

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI**

**“TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI”
FANIDAN**

O'QUV-USLUBIY MAJMUUA
(5 kurs kasb ta'lim yo'nalishi uchun)

Toshkent -2016

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI**

“TASDIQLAYMAN”
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
_____S.Aliyev
2016 yil “ _____ ” “ _____ ”

**TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI”
FANIDAN
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

Toshkent -2016

Tuzuvchi:

N.Yusupova- Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchi:

A.Kaldibekova Nizomiy nomli TDPU “Umumiy pedagogika”kafedrası dotsent

O’quv-uslubiy majmua Toshkent farmatsevtika inztitutining soha uslubiy kengashning 2016 yil 15.06. dagi 15-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Soha uslubiy kengashning kengash raisi _____ K.K.Ismoilov

O’quv-uslubiy majmua MUK da ko’rib chiqildi va tasdiqlandi

_____ 2016 yil _____ sonli bayonnomasi

Kelishildi: Markaziy uslubiy kengash raisi _____ S.U.Aliyev

MUNDARIJA

I.	Ishchi dastur.....	5
II.	Sillabus.....	20
III.	Fanni o‘qitishda foydalaniladigan intrefaol ta’lim metodlari.....	25
IV.	Nazariy materiallar.....	28
V.	Amaliy mashg‘ulot materiallari	97
VI.	Keyslar banki.....	150
VII.	Mustaqil ta’lim mavzulari.....	160
VIII.	Test.....	161
IX.	Glossariy.....	168
X.	Adabiyotlar ro‘yxati.....	176

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazish jarayonining mohiyati to‘laqonli ochib berilgan.

Mazkur o‘quv dastur “Barkamol avlod yili” davlat dasturi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning “YUksak ma’naviyat-engilmas kuch” hamda «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli asarlari, Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi, “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi asosidagi materiallar asosida tuzilgan.

Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida “Barkamol avlod yili” Davlat dasturida e’tirof etilganidek yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyoxvandlik illatlaridan, boshqa turli xalokatli taxdidlardan hamda biz uchun yot bo‘lgan diniy ekstremistik ta’sirlardan asrash masalalari taxlil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” nomli asarlarida keltirilgan materiallar, qoidalar va xulosalarni puxta o‘zlashtirishlari, kelgusi faoliyatida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondashishlari taminlash fanni o‘rganish oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. 2009 yilda Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi haqida gapirganda, ularning avvalo eng muhim masalalarga – yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholimizning turmush darajasini yanada oshirishga yo‘naltirilganini alohida qayd etish zarur.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

“Barkamol avlod yili” Davlat dasturi to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida 2010 yilning “Barkamol avlod yili” deb e’lon qilingani munosabati bilan barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazish jarayonining mohiyati to‘laqonli ochib berilgan .

Fanning maqsadi – Talabalarga pedagogik texnikani, o‘qituvchining pedagogik muomala mahoratini, nutq texnikasi va madaniyatini, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish usullarini har tomonlama tushuntirishdan iboratdir.

Fanning vazifasi – tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bo‘yicha talabalarning bilimlarini kengaytirish hamda yangi tushuncha va qarashlar bilan qurollantirish;

-dars jarayoniga tarbiyaga oid ilg‘or tajribalarni tatbiq qilish, har bir fan bo‘yicha bu sohada aniq rejalarini tuzish va amalga oshirish;

-pedagogik meros va uning g‘oyalari nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

-rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta'lim-tarbiya, ta'lim tizimlari hamda ta'limni boshqaruv jarayoniga doir eng ilg'or tajribalarni bo'lajak bakalavr-pedagoglarga chuqurroq o'rgatish va amaliyotda qo'llashni tashkil etish va boshqalardan iborat.

Ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui hamda ta'lim va tarbiya jarayonini optimal tashkil etishdir.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

«Tarbiyaviy ishlar metodikasi» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

-jamo'a faoliyatini tashkil etish; tarbiya jarayoniga ijodiy yondashishni ahamiyati va afzalligi; guruh rahbarining pedagogik faoliyati; guruh rahbarining tashkilotchilik faoliyati; sotsiometriya uslubi orqali jamoani o'rganish; jamoani tarbiyalashda guruh rahbarining faoliyati bo'yicha malakalarga ega bo'lishi lozim.

-disput o'tkazish uslubi; tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining qonuniyatlari va qoidalari; tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora tadbirlarini; tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning samarali usul va vositalarini; tarbiyaviy ishlar uslubiyotining asosiy aspektlari va yo'nalishlarini; tarbiyaviy ishlarning komponentlarini bilishi va qo'llay olishi kerak.

-guruh bilan ishlash va unga rahbarlik qilish bo'yicha; tarbiyachining ota-onalar bilan munosabat o'rnatishi bo'yicha; treninglar o'tkazishda guruhlar bilan ishlash va rahbarlik qilish bo'yicha; guruhda iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatdan uzviyligi

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani o'quv rejasida ko'zda tutilgan barcha fanlar bilan o'zaro aloqadordir. Jumladan "Pedagogika", "Kasbiy ta'lim metodikasi", "Pedagogika tarixi", "YAngi pedagogik texnologiyalar", "Psixologiya", "Pedagogik mahorat", fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu fanlarning ko'p bo'limlarini "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv kursini to'ldiradi va shu bilan bir qatorda talabalarning tarbiya to'g'risidagi taassurotlarini, bu sohadagi bilimlarini yanada kengaytiradi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani o'quv rejasiga asosan «Kasbiy ta'lim» yo'nalishi talabalari uchun 5-kurs, 10-semestrda o'tiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bo'lajak bakalavr-pedagoglarni o'z kasbini puxta egallash va ularni tarbiyalashdek juda muhim vazifani hal qilar ekan, ulkan nazariy va amaliy tayyorgarlikni nazarda tutadi. Bitirish kursidan oldingi va bitiruvchi kurs talabalarining o'quv-tarbiyaviy amaliyoti ularning oliy ta'lim muassasasidagi kasbiy tayyorgarligining yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Amaliyot jarayonida talabalar o'quvchilarni tarbiyalashga har tomonlama yondashadilar, ularda axloqiy, aqliy, milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish, ekologik, iqtisodiy, jismoniy, huquqiy, oilaviy hamda estetik jihatdan tarbiyalash birligini ta'minlaydilar. SHuning uchun ushbu fan asosiy umumkasbiy fani hisoblanib, ishlab chiqarish tizimining ajralmas bo'g'inidir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

«Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanini o'qitishda mavjud mavzularning barchasi ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tiladi. Mavzularning mazmuni va hajmiga

qarab ularda ilg'or pedagogik texnologiyalarning ayrim usul va texnikalaridan foydalaniladi. Mavzularni o'tishda "insert", "blits-so'rov", "klaster", "aqliy hujum" kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi. Amaliy va seminar darslarda "zig-zag", "guruh bo'lib ishlash", "insert", va boshqa texnikalaridan ustun darajada foydalaniladi. Bundan tashqari mazkur fanni o'qitishda O'UM va keyslardan foydalanish lozim.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanidan mashg’ulotlarning mavzular va soatlar bo’yicha taqsimlanishi:

t/r	Mavzular nomi	Jami soat	Ma’ruza	Amaliy mashg’ulot	TMI
10-semestr					
1	Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha	9	2	2	5
2	Tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida	4	2	2	
3	Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbarining pedagogik mahorati.	13	4	4	5
4	Insonparvarlik tarbiyasi	4	2	2	
5	Tarbiya jarayonida muomalaning tutgan o’rni	4	2	2	
6	Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish	9	2	2	5
7	Guruh rahbari va uning faoliyatini tashkil etish.	4	2	2	
8	Tarbiyaviy ish va uni tashkil etish metodikasi	4	2	2	
9	Mehnat tarbiyasi va iqtisodiy tarbiyaning tashkiliy shakllari	4	2	2	
10	Ekologik, estetik va jismoniy tarbiyaviy ish	4	2	2	
11	Tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlarningning o’zaro hamkorligini yo’lga qo’yish.	4	2	2	
12	O’quvchilarni darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.	4	2	2	
13	Guruh rahbarining ota-onalar va jamoatchilik bilan guruh tarzidagi ishlash shakllari.	4	2	2	
14	Tarbiyaviy ishda badiiy pedagogikasini tarkibiy qismlarini qo’llanilishi	9	2	2	5
15	AL va KHKlaridagi tarbiyaviy ishlarning xususiyatlari.	4	2	2	

	Jami	88	32	32	40
--	------	----	----	----	----

Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma'ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislari orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi

Ma'ruza mashg'ulotlari

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha

Tarbiyaviy ish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. Tarbiyaviy ish metodi-kasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *kichik guruhlarda ishlash,, aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3;A4;A;5 Q1;Q2;Q3;Q6.

Tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida

Tarbiya tushunchasi. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaviy qarashlari. Tarbiya – umuminsoniy qadriyat sifatida. Tarbiya paradigmalari. Tarbiya jarayonida bola shaxsi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *kichik guruhlarda ishlash,, aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3;A4;A;5 Q1;Q2;Q3;Q6.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbarining pedagogik mahorati.

Pedagogik mahorat haqida tushuncha, pedagogik faoliyatidagi vositalar, maqsadlar va natijalarning muhim ahamiyat kasb etishi, mahorat va tajribaning hamohangligi, pedagogik texnikani egallash yo'llarini o'rganish.

Pedagogik texnika malakalarining individual-shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib darslarni tashkil etish. Pedagogik texnik malakalarini shakllantirishda guruhlarda ish olib borishga ahamiyat berish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *kichik guruhlarda ishlash,, aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3;A4;A;5 Q1;Q2;Q3;Q6.

Insonparvarlik tarbiyasi

Insonparvarlik tarbiyasi: mazmun va mohiyati. Insonparvarlik tarbiyasi qonuniyatlari va tamoyillari. Insonparvarlik tarbiyasi metod va texnologiyalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim., aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3,A7; Q1; Q2 ;Q4;Q5; Q6.

Tarbiya jarayonida muomalaning tutgan o'rni

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va kadrlarga qo'yilgan talablardan foydalangan xolda bulajak zamonaviy, tashabbuskor mutaxassislarni etishtirish. Pedagogka qo'yiladigan axloqiy talablar. Pedagogning talabalarga bo'lgan munosabati mehr va hayrihohlikdan iborat bo'lishi. Pedagogning ishida muomalaning o'rni. Kasbiy pedagogik munosabat jarayonida ijobiy kayfiyatni boshqarish. Pedagogning pedagogika eteketiga qat'iy rioya qilishi. Pedagogning guruh bilan muomalasi tizimi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim., aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3,A7; Q1; Q2 ;Q4;Q5; Q6.

Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish

Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq, uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar quyish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim., aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3,A7; Q1; Q2 ;Q4;Q5; Q6.

Guruh rahbari va uning faoliyatini tashkil etish.

Guruh (sinf) rahbari va uning faoliyati mazmuni. Guruh (sinf) rahbarining vazifalari, huquq va majburiyatlari. Guruh (sinf) rahbarining o'quvchilar bilan olib boradigan ish shakllari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim., aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3,A7; Q1; Q2 ;Q4;Q5; Q6.

Tarbiyaviy ish va uni tashkil etish metodikasi

Tarbiyaning tashkiliy shakllari. Tarbiya usul va vositalari. Tarbiyaviy ish: tarkibi va tuzilishi. Tarbiya turlari. Ijtimoiy yo'naltirilgan tarbiyaviy ish. Axloqiy tarbiyaviy ish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim., aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3,A5;A6;A7; Q1; Q2 ;Q4;Q5; Q6.

Mehnat tarbiyasi va iqtisodiy tarbiyaning tashkiliy shakllari

Inqiroz sharoitida mehnat tarbiyasining mazmuni. Mehnat tarbiyasi fan asoslari yuzasidan o'quv mehnati va mehnat ta'limini o'z ichiga olishi. Ijtimoiy foydali mehnat. Mehnat tarbiyasida tarbiyalanuvchilarning o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim., aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3,A5;A6;A7; Q1; Q2 ;Q4;Q5; Q6.

Ekologik, estetik va jismoniy tarbiyaviy ish

Ekologik ta'lim va tarbiya. Ekologik tarbiyaning o'ziga xos jihatlari. Estetik va

jismoniy tarbiyaning mazmun mohiyati. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim., aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3,A5;A6;A7; Q1; Q2 ;Q4;Q5; Q6.

Tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlarningning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish.

“Kamalak” bolalar va “Kamolot” yoshlar harakatining ish jarayonini o'rganish. YOshlar harakatining faoliyatini tahlil qilish. YoIHTlarining ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda olib boradigan ishlari. Kamolot va Kamalak yoshlar tashkilotlarining faoliyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim., aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3,A5;A6;A7; Q1; Q2 ;Q4;Q5; Q6.

O'quvchilarni darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalari to'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlaridan habardor qilib turish, ular ongini ijobiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilishning muhimligini anglash. Talabalarda darsdan tashqari vaqtlarida turli to'garaklarga a'zo bo'lishini ta'minlash.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim., aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3,A5;A6;A7; Q1; Q2 ;Q4;Q5; Q6.

Guruh rahbarining ota-onalar va jamoatchilik bilan guruh tarzidagi ishlash shakllari.

Oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta'sirini muvofiqlashtirish yuzasidan pedagogning faoliyati, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta'sirini vazifalari, ota-onalar va o'quv yurti bilan olib boradigan tarbiyaviy ishning ommaviy shakllari.

Oilaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati, shaxslar va ota-onalarning o'ziga hos xususiyatlari. Ota-onalar bilan ish shakllari va usullarini tanlash yo'l –yo'riqlari. Ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim., aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3,A5;A6;A7; Q1; Q2 ;Q4;Q5; Q6.

Tarbiyaviy ishda badiiy pedagogikasini tarkibiy qismlarini qo'llanilishi

Tarbiyaviy ishda badiiy pedagogikasining o'rni. Badiiy pedagogikaning mazmun-mohiyatini ochib berish. Badiiy pedagogikaga bo'lgan qiziqish va ehtiyojini rivojlanishi. Badiiy pedagogika orqali tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga erishish yo'llari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim., aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3,A5;A6;A7; Q1; Q2 ;Q4;Q5; Q6.

AL va KHKlaridagi tarbiyaviy ishlarning xususiyatlari.

Akademik litsey va kasb hunar kollejlarida tarbiyaviy ishlarning xususiyatlari. Milliy urf-odatlar, qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim., aqliy xujum, T-sxemasi.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3,A5;A6;A7; Q1; Q2 ;Q4;Q5; Q6.

**“Tarbiyaviy ishlar metodikasi ” fani bo'yicha ma'ruza
mashg'ulotining kalendar
tematik rejasi**

t/r	Ma'ruza mavzulari(barcha)	soat
	Mavzu.Asosiy qism(A)	
1.	Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha	2
2.	Tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida	2
3.	Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbarining pedagogik mahorati.	4
4.	Insonparvarlik tarbiyasi	2
5.	Tarbiya jarayonida muomalaning tutgan o'rni	2
6.	Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish	2
7.	Guruh rahbari va uning faoliyatini tashkil etish.	2
8.	Tarbiyaviy ish va uni tashkil etish metodikasi	2
9.	Mehnat tarbiyasi va iqtisodiy tarbiyaning tashkiliy shakllari	2
10.	Ekologik, estetik va jismoniy tarbiyaviy ish	2
11	Tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlarningning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish.	4
12	O'quvchilarni darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.	2
13	Guruh rahbarining ota-onalar va jamoatchilik bilan guruh tarzidagi ishlash shakllari.	2
14	Tarbiyaviy ishda badiiy pedagogi-kasini tarkibiy qismlarini qo'llanilishi	2
15	AL va KHKlaridagi tarbiyaviy ishlarning xususiyatlari.	2
	Jami	34

**“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani bo'yicha seminar mashg'ulotining kalendar
tematik rejasi**

t/r	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari (barcha)	soat
	Asosiy qism	

1.	Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha	2
2.	Tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida	2
3.	Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbarining pedagogik mahorati.	4
4.	Insonparvarlik tarbiyasi	2
5.	Tarbiya jarayonida muomalaning tutgan o'rni	2
6.	Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish	2
7.	Guruh rahbari va uning faoliyatini tashkil etish.	2
8.	Tarbiyaviy ish va uni tashkil etish metodikasi	2
9.	Mehnat tarbiyasi va iqtisodiy tarbiyaning tashkiliy shakllari	2
10.	Ekologik, estetik va jismoniy tarbiyaviy ish	2
11	Tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlarningning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish.	2
12	O'quvchilarni darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.	2
13	Guruh rahbarining ota-onalar va jamoatchilik bilan guruh tarzidagi ishlash shakllari.	2
14	Tarbiyaviy ishda badiiy pedagogi-kasini tarkibiy qismlarini qo'llanilishi	2
15	AL va KHKlaridagi tarbiyaviy ishlarning xususiyatlari.	2
	Jami	34

Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi ” bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarni yechadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanidan mustaqil ish majmuasi faning deyarli barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 5 ta mavzu ko‘rinishida shakllantirilgan.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

t/r	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Xajmi (soatda)
1	“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining predmeti va mazmuni	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1,2,3,4 - haftalar	(5soat)
2	Pedagogik texnika – pedagogik mahoratining birinchi bosqichi sifatida	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	5,6,7,8-haftalar	(5soat)
3	Jamoadagi shaxsni tarbiyalash shakllari va usullari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	9,10,11 - haftalar	(5soat)
4	Oila, jamoa o‘quv bilim yurtining tarbiyaviy ishlarini hamkorligi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	12,13,14,16-haftalar	(5soat)
5	Tarbiyaviy ishda teatr pedagogikasini tarkibiy qismlarini qo‘llanilishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	15,16-haftalar	(5soat)

Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutilgan:

- mavzular zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o‘tkaziladi;
- amaliy mashg‘ulotlarda aqliy xujum, guruhli fikrlash, “ish o‘yini” va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi;
- amaliy mashg‘ulotlarida kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutiladi.
- mavzularga bag‘ishlangan multimedialardan foydalaniladi.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo‘yicha birinchi

mashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;
- **oralik nazorat (ON)** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oralik nazorat bir semestrda bir marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
- **yakuniy nazorat (YaN)** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YaN ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YaN natijalari bekor qilinishi mumkin.

Bunday hollarda YaN qayta o'tkaziladi. Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

"Tarbiyaviy ishlar metodikasi"fani bo'yicha talabalarining semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N(MI).-55+5 ball va O.N.-10 ball qilib taqsimlanadi.

1. Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarining fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

2. Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari:

Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, xaqqoniylik, ishonchlilik va kulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

ye) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyutrlashtirishga sharoit yaratish.

3. Fanlar bo'yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

4. Talabalar bilimini 100 balli reyting tizimi orqali baholash fanlarni chuqur o'zlashtirish, topshiriqlar va uy vazifalarga ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash va ishlashni ko'zda tutuvchi, umumiy o'quv yuklamasini hisobga olish, o'z bilimi va ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirishga intilish, hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni shakllantirishga erishiladi.

II. Baholash tartibi va mezonlari

1. Talabalarining fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB)
- talabalarining mustaqil ishi (TMI)
- oraliq baholash (OB)
- yakuniy baholash (YaB)

Har bir fan bo'yicha talabaning semestr (yil sikl) davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimida baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

№	Baholash turi	Maksimal ball	Saralash ball
1	Joriy baholash	55	30,2
2	Talabaning mustaqil ishi	5	1,7
3	Oraliq baholash	10	5,5
4	Yakuniy baholash	30	16,5
	JAMI	100	55

Talabalarining fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir baholash turlarida to'plagan ballar yig'indisiga teng bo'ladi.

Joriy baxolash (JB)

JB da fanning xar bir bo'lim bo'yicha talabaning bilimi va amaliy ko'nikmalarini aniqlab borish ko'zda tutiladi va u amaliy mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv uslublarida qatnashishining faollik darajasi, shuningdek amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi xisobga olinadi. Har bir fan bo'yicha o'quv soatidan kelib chiqqan holda maksimal ball belgilanadi. Semestr davomida 16 ta dars rejalashtirilgan, unda 11 ta JB o'tkaziladi. Maksimal ball $5 \times 11 = 55$ ballni tashkil qiladi.

JB har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda og'zaki, yozma ish, test yoki ularning kombinatsiyasi shaklida amalga oshiriladi. Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart.

Talabaning ballarda ifodalangan o'zlashtirishi quyidagicha baholanadi:

№	Baho	Talabaning bilim darajasi
1	A'lo	Talabalar uy vazifasini bajargan, og'zaki savollarga aniq javob beradi, mavzu bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, mazmunini tushunadi mavzu bo'yicha mustaqil fikrlay oladi. Vazifalarni mustaqil bajaradi, natijalarini rasmiylashtirib tahlil qila oladi.
2	Yaxshi	Talaba uy vazifasini bajargan, og'zaki va test savollariga javob bera oladi. Ijtimoiy fanlar qonuniyatlarini va ta'riflarni yod biladi. Mavzuni tushungan, lekin ayrim masalalarni taxlil qila olmaydi.

3	Qoniqarli	Talaba uy vazifasini bajarib kelgan, ogʻzaki va test savollariga qiyinalib javob beradi, taʼriflarni yod biladi, lekin mohiyatini yaxshi tushunmaydi.
4	Qoniqarsiz	Talaba uy vazifasini daftoriga yozib kelgan, lekin mavzu boʻyicha savollarga javob bera olmaydi. Mohiyatini tushunmaydi.

Talaba darsga kelib unga mutloq tayyorlanmaganda va muhokamada mutloq ishtirok etmaganida (2) ishora qoʻyiladi.

Talabani mustaqil ishi (TMI)

Talabani mustaqil ishi OʻzR oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 25.08.2010 yil 333-sonli buyrugʻi va institut rektori tomonidan 2013 yil 3 sentyabrda tasdiqlangan “Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi toʻgʻrisida Nizom” asosida tashkil etiladi.

Mustaqil ish boʻyicha belgilangan maksimal reyting balining 55% dan kam ball toʻplagan talaba fan boʻyicha yakuniy nazoratga qoʻyilmaydi.

Talabani mustaqil ishi kafedra arxivida roʻyxatga olinadi va 2 yil mobaynida saqlanadi.

Ijtimoiy fanlar kafedrasida talaba mustaqil ishi boʻyicha kafedra nizomi ishlab chiqiladi. Bunda talaba mustaqil ishining shakl va turlari, har bir ish turiga soatlarni taqsimlash va aniq baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

TMI ning oʻzlashtirishi quyidagicha baxolanadi. Maksimal ball 5.

Ballar	Baho
4,3-5,0	“5” a'lo
3,6-4,2	“4” yaxshi
2,8-3,5	“3” qoniqarli
2,8 dan kam	“2” qoniqarsiz

Talabani mustaqil ishdan olgan bali JB baliga qoʻshiladi.

Oraliq baxolash (OB)

OB da fanning bir necha mavzularini qamrab olgan boʻlimi yoki qismi boʻyicha mashgʻulotlar oʻtib boʻlingandan soʻng, talabani nazariy bilimlari baholanadi va unda talabani muayyan savolga javob berish yoki muammoni yechish qobiliyati aniqlanadi.

Bir semestrda oʻtiladigan fanlardan bitta OB oʻtkaziladi.

Ikki semestrda oʻtiladigan fanlardan ikkita OB oʻtkaziladi. OBga oʻquv mashgʻulotlarining qarzi boʻlmagan talabalar qoʻyiladi.

Oraliq baholashning maksimal bali 10 ball;

Oʻzlashtirish	10 ball
A'lo	8,6-10
Yaxshi	7,1-8,5
Qoniqarli	5,5-7
Qoniqarsiz	5,5

OB kafedra majlisi qarori bilan yozma ish, test, ogʻzaki suhbat shakllarida yoki ularning kombinatsiyalarida oʻtkazilishi mumkin. OB boʻyicha belgilangan maksimal reyting balining 55% dan kam ball toʻplagan talaba YaB ga qoʻyilmaydi.

Yakuniy baxolash (YaB)

YaB da talabaning bilim, ko'nikma va malakalari fanning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YaB fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tugagandan so'ng o'tkaziladi.

YaB ning maksimal bali - 30 ball.

O'zlashtirish	30 ball
A'lo	30-25,8
Yaxshi	25,5-21,3
Qoniqarli	21-16,5
Qoniqarsiz	16,5 dan kam

JB va OB ga ajratilgan umumiy ballarning har biridan saralash balini to'plagan talabaga YaB ga ishtirok etishga huquq beriladi.

YaB o'tkazish shakli – test, og'zaki, yozma ish yoki ushbu usullar kombinatsiyasida Ilmiy Kengash qarori bilan belgilanadi.

JB, OB va YaB turlarida fanni o'zlashtira olmagan (54 % dan kam ball to'plagan) yoki uzurli sabablar bilan baholash turlarida ishtirok eta olmagan talabalarga quyidagi tartibda qayta baholashdan o'tishga ruxsat beriladi:

- qoldirilgan amaliy mashg'ulot kelgusi darsga qadar guruh o'qituvchisiga qayta topshirish va maslaxat kunida topshiriladi. 3 ta mashg'ulotni qoldirgan talaba fakultet dekani ruxsati bilan qayta topshiradi;

- OB ni 2 hafta muddatda qayta topshirishga ruxsat beriladi va bali koeffitsientsiz qayt etiladi;

- semestr yakunida fan bo'yicha saralash balidan kam ball to'plagan talabaning o'zlashtirishi qoniqarsiz (akademik qarzdor) hisoblanadi;

- akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin dekan ruhsatnomasi asosida qayta o'zlashtirish uchun – 2 hafta muddat beriladi. Shu muddat davomida o'zlashtira olmagan talabaga belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talabaning reytingi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\frac{Q \cdot V}{100}$$

$R = \frac{Q \cdot V}{100}$ bunda: Q-o'zlashtirish darajasi (ball), V-umumiy o'quv yuklamasi (soat)

Reyting natijalarini qayd qilish tartibi

Fandan reyting nazorati bo'yicha yakunlovchi qaydnoma varaqasi (vedomost) fan tugagan kundan bir kun muddatda kafedra 2 nusxada to'ldiradi va mas'ul xodim kafedra mudiriga imzolotib, 1 nusxasi dekanatlarga topshiriladi.

Talabaning fan bo'yicha baholash turlarida to'plagan ballari reyting qaydnomsiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining "Umumiy soat" ustuniga fanga ajratilgan umumiy yuklama soatlari, "Ball" ustuniga esa talabaning mazkur mezonning 3.1 bandiga muvofiq 100 ballik tizimdagi o'zlashtirish bali, "Reyting" ustuniga hisoblangan reyting ko'rsatkichi qo'yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi "Reyting daftarchasi" da qayd etilmaydi.

Dekanat va kafedralar tomonidan belgilangan tartibda fan bo'yicha talabaning JB, OB hamda YaB turlarida ko'rsatilgan o'zlashtirish reyting ko'rsatkichlarining monitoringi olib boriladi. O'zlashtirish natijalari kafedra tomonidan reyting nazorati ekranida muntazam ravishda yoritib boriladi va belgilangan tartibda qaydnomalarga kiritiladi. Reyting nazorati ekranining tashkil etishi va uning belgilangan muddatlarda to'ldirish vazifasi kafedra mudiri va fakultet dekani zimmasiga yuklatiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T.: O'zbekiston, 2009. -56 b.
2. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch. T.:Ma'naviyat,2008,176-b.
3. Fayzullaeva N., SHodmonova SH. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2008. -18 bet.
4. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010.
5. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar/ – T.: Fan va texnologiya, 2010.
6. Ilinicha V.I. Fizicheskaya kultura studenta.Uchebnik.– M.:Gardariki,2005. – 448 str.
7. Solonina YU.N., Kagana M.S. Kulturologiya. Uchebnik.– M.: Vysshee obrazovanie, 2005. – 566 str.
8. Ismailova Z.K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. T.: «Fan» 2003 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'afurov, B.K. To'xlijev. -T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.
2. Pronina E.N., Lukashevich V.V. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya studentov VUZov. – M.: Elit, 2004.– 322 str.
3. Slastenina V.A. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya.– M.: Akademia, 2004.– 234 str.
4. Ibragimov X.I., Yo'ldoshev U.A., Bobomirzaev X. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2009.- 400 bet.
5. Orexova V.A. Pedagogika v voprosax i otvetax. Uchebnoe posobie. – M.: KNORUS, 2006. – 200 str.
6. Ochilova G., Musaxanova G., Tojiev SH. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. -T.: TDIU, 2005.– 345 bet.
7. Ochilova G., Musaxanova G., Tojiev SH. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. Masalalar to'plami, 2005.– 345 b.

Internet saytlari

1. www.ziynet.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz

II.SILLABUS

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” moduli bo‘yicha tayyorlangan Sillabusi 2015/2016 o‘quv yili uchun mo‘ljallangan

Fanning qisqacha tavsifi									
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Toshkent farmatsevtika instituti						M.Oybek ko‘chasi, 45-uy		
Kafedra:	Ijtimoiy fanlar						Sanoat farmatsiyasi fakul’teti tarkibida		
Fan nomi va kodi: 3.05	Tarbiyaviy ishlar metodikasi								
Ta’lim sohasi va yo‘nalishi:	5111000-kasb ta’limi					Bilim sohasi: 500000 – Ijtimoiy ta’minot va sog‘liqni saqlash Ta’lim sohasi: 510000 - Sog‘liqni saqlash			
Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumot:	Katta o‘qituvchi Ygsupova Nigora Erkinovna					e-mail:	nigora.yusupova.1980		
						telefon	@ mail.ru +998909284020		
Dars vaqti va joyi:	2-bino 23-auditoriya					Kursning davomiyligi:	02.09.2015-10.12.2015		
Individual grafik asosida ishlash vaqti:	Dushanba, seshanba,chorshanba kunlari 10.00 dan 16.00 gacha								
Fanga ajratilgan soatlar	Auditoriya soatlari						Mustaqil ta’lim:	40	
		Ma’ruza:	32	Amaliyot	32				
Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi :	pedagogika, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya, psixologiya, kasbiy ta’lim metodikasi, kasbiy pedagogika, axborot texnologiyasi, maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi.								
Fanning asosiy maqsadi:	Talabalarida pedagogika bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish. – Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida bo‘lajak mutaxassislarni ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishga o‘rgatish hamda ularda kasbiy faoliyatning pedagogik mohiyatini to‘la anglay olish qobiliyatini hamda pedagogik tafakkurini shakllantirishdan iborat.								

Fanning mazmuni

Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	<p>Fanning dolzarbligi:« Tarbiyaviy ishlar metodikasi » fanini o'rganishning maqsadi talabalarni kasbiy pedagogik tayyorgarlik ta'lim sohasini 5111000 «Kasb ta'limi» yo'nalishi ta'lim sohalari bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavrlarda kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining ta'limi va tarbiyasi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni eng olishida hamda ularning texnologiya va ishlab chiqarish ta'limi darslarini olib borishiga yordam beradigan metodik bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.</p> <p>Fanning qisqacha mazmuni: « Tarbiyaviy ishlar metodikasi » fanini belgilangan maqsad asosida talabalarni kasbiy tayyorlashning quyidagi vazifalarini hal etadi: bo'lajak mutaxassislarining « Tarbiyaviy ishlar metodikasi » fanida mutaxassislik bo'yicha bilimlarini kengaytiradi hamda yangi tushuncha va qarashlar bilan qurollanadi. Ushbu dastur ta'lim oluvchilarni milliy mafkura tarbiyasi, talabaning kasbiy ta'lim asoslari bo'yicha bilimlarini rivojlantirish, o'qituvchi va o'quvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar, kasbiy ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish vazifasini bajaradi.</p>
O'quv fanini prerekvizitlari	<p>Talaba: pedagogika fanlarini o'qitish metodikasiga oid dastlabki bilimlarga ega bo'lishi, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi.</p>
Fanni o'rganish jarayonida talabalar quyidagi natijalarga erishadi	<p>Bilib oladi: fanga oid tushunchalar: pedagogika, metodika, metodologiya, ta'lim jarayonini qonunyalari va tamoyillari, tarbiya jarayonini mazmuni, tarbiyaning umumiy metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari, tarbiya turlari ta'lim sifati haqida.</p> <p>Bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilinishi: “” fani bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat o'tkaziladi. Joriy nazorat uchun 60 ball, oraliq nazorat uchun 10 ball, yakuniy nazorat uchun 30 ball. (maksimal 100 ball)</p> <p>Fan bo'yicha egallagan bilimlari asosida: ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalarini qo'llay oladi hamda innovatsion faoliyat va kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'llarini egallaydi.</p>
Postrekvizitlar	<p>Ushbu o'quv modulini o'zlashtirish natijasida talabalardan: Nazariy ta'lim texnologiyasini mustaqil loyihalashni bilish; Ishlab chiqarish ta'limini o'tishni mustaqil loyihalashni bilish; Nazariy va amaliy ta'lim bo'yicha mashg'ulotlarni mustaqil o'tkazish; Trenajyorlarda mashg'ulot o'tkazishni bilish; Mashg'ulotlarda faol o'qitish metodlarini qo'llash olish; Mashg'ulotlarda fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish; O'quvchilar bilimini reyting tizimida baholash haqida bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi.</p>
Talabalar uchun talablar	<ul style="list-style-type: none"> - professor-o'qituvchiga hurmat bilan munosabatda bo'lish; - institut ichki tartib-qoidalariga rioya qilish; - institut uniformasini kiyish; - mobil telefonni dars davomida o'chirish; - berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish; - guruhdoshlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

	- darsga o'z vaqtida kelish; - 6 soatdan ortiq dars qoldirgan taqdirda, dekan ruxsati bilan darsga kirish.
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. elektron pochta ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha

№	Ma'ruza mashg'uloti mavzulari	Ma'ruza mashg'uloti soati	Mustaqil ta'lim soati
1	Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha	2	5
2	Tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida	2	
3	Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbarining pedagogik mahorati.	4	5
4	Insonparvarlik tarbiyasi	2	
5	Tarbiya jarayonida muomalaning tutgan o'rni	2	
6	Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish	2	5
7	Guruh rahbari va uning faoliyatini tashkil etish.	2	
8	Tarbiyaviy ish va uni tashkil etish metodikasi	2	
9	Mehnat tarbiyasi va iqtisodiy tarbiyaning tashkiliy shakllari	2	
10	Ekologik, estetik va jismoniy tarbiyaviy ish	2	
11	Tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish.	2	
12	O'quvchilarni darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.	2	
13	Guruh rahbarining ota-onalar va jamoatchilik bilan guruh tarzidagi ishlash shakllari.	2	
14	Tarbiyaviy ishda badiiy pedagogi-kasini tarkibiy qismlarini qo'llanilishi	2	5
15	AL va KHKlaridagi tarbiyaviy ishlarning xususiyatlari.	2	
	JAMI	32	40

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	soat
1	Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha	2
2	Tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida	2
3	Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbarining pedagogik mahorati.	4
4	Insonparvarlik tarbiyasi	2
5	Tarbiya jarayonida muomalaning tutgan o'rni	2
6	Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish	2
7	Guruh rahbari va uning faoliyatini tashkil etish.	2
8	Tarbiyaviy ish va uni tashkil etish metodikasi	2
9	Mehnat tarbiyasi va iqtisodiy tarbiyaning tashkiliy shakllari	2
10	Ekologik, estetik va jismoniy tarbiyaviy ish	2
11	Tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlarningning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish.	2
12	O'quvchilarni darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.	2
13	Guruh rahbarining ota-onalar va jamoatchilik bilan guruh tarzidagi ishlash shakllari.	2
14	Tarbiyaviy ishda badiiy pedagogi-kasini tarkibiy qismlarini qo'llanilishi	2
15	AL va KHKlaridagi tarbiyaviy ishlarning xususiyatlari.	2
	Jami	32


t/r	Nazorat turlari va topshiriqlarning nomlanishi	Nazorat turlari bo'yicha maksimal ball	O'tkazish vaqti
<i>I. Joriy nazorat uchun ballar taqsimoti</i>		60 ball	Semestr davomida
<i>II. Oraliq nazorat</i>		10 ball	
<i>III. YAkuniy nazorat</i>		30 ball	Semestrning oxirgi haftasi
1.	Umumiy o'quv kursi bo'yicha tuzilgan topshiriqlar asosida o'tkaziladi		
JAMI:		100 ball	
<i>Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari namunaviy mezonlarit/r</i>	Talabaning fanni o'zlashtirish (bilim, ko'nikma va malaka) darajasi		Ballar

A)	Xulosa va qarorlar qabul qilishi	86-100 ball
	Ijodiy fikrlay olishi	
	Mustaqil mushohada yuritish	
	Olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi	
	Mohiyatini tushunish	
	Bilish, aytib berish	
	Tasavvurga ega bo'lish	
B)	Mustaqil mushohada yuritish	71 -85 ball
	Olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi	
	Mohiyatini tushunish	
	Bilish, aytib berish	
	Tasavvurga ega bo'lish	
V)	Mohiyatini tushunish	55 - 70 ball
	Bilish, aytib berish	
	Tasavvurga ega bo'lish	
G)	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik	0 - 54ball
Asosiy adabiyotlar :	<p>1.Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.</p> <p>2.Karimov I.A. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch. T.:Ma'naviyat,2008,176-b.</p> <p>3.Fayzullaeva N., SHodmonova SH. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2008. -18 bet.</p> <p>4. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010.</p> <p>5. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar/ – T.: Fan va texnologiya, 2010.</p> <p>6. Ilinicha V.I. Fizicheskaya kultura studenta.Uchebnik.– M.:Gardariki,2005. – 448 str.</p> <p>7. Solonina YU.N., Kagana M.S. Kulturologiya. Uchebnik.– M.: Vysshee obrazovanie, 2005. – 566 str.</p> <p>8. Ismailova Z.K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. T.: «Fan» 2003 y</p>	
Qo'shimcha adabiyotlar :	<p>8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'afurov, B.K. To'xlijev. -T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.</p> <p>9. Pronina E.N., Lukashevich V.V. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya studentov VUZov. – M.: Elit, 2004.– 322 str.</p> <p>10. Slastenina V.A. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya.– M.: Akademia, 2004.– 234 str.</p> <p>11. Ibragimov X.I., Yo'ldoshev U.A., Bobomirzaev X. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2009.- 400 bet.</p> <p>12. Orexova V.A. Pedagogika v voprosax i otvetax. Uchebnoe posobie. – M.: KNORUS, 2006. – 200 str.</p> <p>13. Ochilova G., Musaxanova G., Tojjeva SH. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. - T.: TDIU, 2005.– 345 bet.</p> <p>14. Ochilova G., Musaxanova G., Tojjeva SH. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. Masalalar to'plami, 2005.– 345 b.</p> <p>1.www.ziyonet.uz</p> <p>2. www.tdpu.uz, www.pedagog.uz</p>	

III. FANNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

“SWOT-tahlil” metodi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, baxs – munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv seminari yakunida, yoki o‘quv rejasi asosida biron bir bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin. Bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshkalarga o‘tkazishga, ochiq xolda baxslashishga, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni baxslashish madaniyatiga o‘rgatadi.



Namuna: yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulining afzallik tomonlari	Bir vaqtning o‘zida tekshiri-luvchi moddaning ham chinligi, ham to‘zalagi va ham miqdorini aniqlashga imkon beradi..
W	yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulining kamchilik tomonlari	Asbob qimmat turadi...
O	yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulidan foydalanishning imkoniyatlari	Internet bilan bog‘langan...
T	To‘siqlar (tashqi)	Elektr bo‘lmasa ishlamaydi...

“Keys-stadi” metodi



Keys-stadi interaktiv ta’lim metodi sifatida tinglovchilar tomonidan eng afzal ko’riladigan metodlar qatoriga kirmoqda. Ushbu texnologiya asosan farmatsevtika fanlaridan dars beruvchi o’qituvchi va tinglovchilarning umumiy intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Buning sababi sifatida ushbu metod tinglovchilarga tashabbus bildirish, nazariy holatni o’zlashtirishda hamda amaliy ko’nikmalarni shakllantirishda mustaqillikka ega bo’lish imkoniyatini berishda ko’rish mumkin. O’z navbatida vaziyatlarning analizi (tahlili) tinglovchilarning kasbiy shakllanish jarayoniga kuchli ta’sir o’tkaza olishi, ularning kasbiy jixatdan “ulg’ayishiga” xizmat qilishi, ta’lim olishga nisbatan qiziqish va ijobiy motivatsiyaning shakllantirishi alohida ahamiyatga ega. Keyslar metodi o’qituvchining tafakkur turi sifatida, alohida paradigma ko’rinishida gavdalanib, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, noan’anaviy tarzda fikrlash imkoniyatini beradi.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none">• yakka tartibdagi audio-vizual ish;• keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);• axborotni umumlashtirish;• axborot tahlili;• muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlash-tirish va o’quv topshirig’ni belgilash	<ul style="list-style-type: none">• individual va guruhda ishlash;• muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;• asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig’ining echimini izlash, hal etish yo’llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none">• individual va guruhda ishlash;• muqobil echim yo’llarini ishlab chiqish;• har bir echimning imkoniyatlari va to’siqlarni tahlil qilish;• muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini	<ul style="list-style-type: none">• yakka va guruhda ishlash;

echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> • muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; • ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; • yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish
------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Keys. Laboratoriyaga yangi yuqori samarali xromatografi o'rnatildi. Ammo ishga tushirishning imkoni bo'lmadi.

“Assesment” metodi

Ushbu “Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



esa



Test

- SF usulida qanday ko'rsatkich aniqlanadi?
- A. Nur sindirish



- SF usulidan foydalanish imkoniyatlarini qiësiy tahlil qilinr



Tushuncha tahlili

- Spektrofotometriya usulini izohlanr...



- Spektrofotometriya usulida dori moddaninr chinliri, tozaliri va miqdorini

IV.NAZARIY MATERIALLAR



1-mavzu: Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining nazariy asoslari.

Reja

1. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining maqsadi, vazifasi, asosiy tushuncha va tamoyillari.
2. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining mazmuni, mohiyati va shaxs tarbiyasidagi roli.
3. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining dolzarb muamolari va uni bartaraf etish yo'llari.
4. Tarbiyaviy jarayonda g'oyaviy-siyosiy-ahloqiy tarbiyani tashkil etish.
5. Guruh rahbari ishini rejalashtirish.

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o'z vatanining ilg'or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

Yangi asrga qadam qo'yar ekanmiz mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy yukasalishi va yangilanishi sari yuz tutgun bir paytda O'zbekiston Respublkasi Prezidentining 1999 yil 3-sentyabrdagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkani benihoyat go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushinib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.¹

Ma'naviyati yuksak shaxslar yurtini tanitadi. Shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat–tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim – tarbiyasiz ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

¹ Raximjonov N. "Eshlar iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda oilaning roli" T., 2005 (B.M.I.)

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!” degan so’zlari fikrimizga dalil bo’ladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sog’lom, ma’nan yetuk shaxs yaratishga e’tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi.²

Mazkur “Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti” fanining o’qitilishi ham aynan ushbu qarorga asosan pedagogikaga ixtisoslashgan mutaxassislar uchun ishlab chiqilgan. Bunda uslubiyot tarbiya nazariyasining umumiy qoidalariga asoslanishi, lekin ularni takrorlamasligi, bu qoidalarni ro’yobga chiqarish usullarining vositalari, yo’llari va shakllaridan iborat bo’lishi lozim.

Tarbiyaviy ish uslubiyotini o’rganish talabalarni tarbiyalashning umumiy masalalarini mustaqil, ijodiy va dadil hal qilishga tayyorlashi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirishi uchun tarbiyaning asosi bo’lgan barcha g’oyalar qaytadan ko’rib chiqilishi, asosiy e’tibor shaxs shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to’plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqazo etadi.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy – tarixiy an’analarga, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining asosiy vazifasi esa – shaxsning aqliy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun: yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko’maklashish, o’z – o’zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o’z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg’otish;

Talabalarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo’lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o’stirib–boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

Har bir o’smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarida joriy qilib ko’rish;

Insonparvarlik odobi me’yorlarini shakllantirish (bir–birini tushinadigan, mehribon, shafqatli, irqiy kamsitishlarga yo’l qo’ymaslik) muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo’llanishi lozim.

Tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir shaxs, o’smir va yosh yigit – qizning betakror va o’ziga xosligini e’tiborga olish;

Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ishiga va turli yoshdagi tarbiyalanuvchilarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish lozim.

O’smir yigit va qizlar nafaqat bo’lg’usi katta hayotga tayyorgarlik ko’radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti “Pedagogika” fanining bir qismi bo’lib, fan sifatida ajralib chiqdi. Va o’zining nazariy, uslubiy, Amaliy asoslarini yaratdi. Natijada tarbiyaviy ishlarning tarmoqlari vujudga keldi. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fani bir necha qismga bo’lib o’rganiladi. Bular quydagilardir: “Odobnoma fanini o’qitish”

² Z. Qurbaniyazova “Tarbiyaviy ishlar jaraenida tarbiyalanuvchilarda milliy o’zlikni anrlashni shakllantrishnir pedarorik asoslari” nomzodlik dissertastiyasi. T., 2002.

metodikasi, “Jamoani tashkil qilish” metodikasi, “Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlarni tashkil etish” metodikasi hamda “Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla hamkorligini amalga oshirish” metodikasi va hokozolar.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti “Pedagogika” fanining bir qismi bo’lib, fan sifatida qaraladi va o’zining nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada tarbiyaviy ishlarning tarmoqlari vujudga keldi. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fani bir necha qismga bo’lib o’rganiladi.

Demak bu fanni o’qitishdan maqsad kelajakda talabalarimizga ta’lim muassasalarida ta’lim – tarbiyaga davr talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondoshishni, ishni sifat, mazmun jihatdan to’g’ri tashkil etishni o’rgatishdan iboratdir.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy – tarixiy an’analarga, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Pedagogik texnika – bu shunday bir malakalar yig’indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko’rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o’z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beradi. Talabalar bilan bevosita muomala qilishda pedagogning xuddi ana shu malakalari (yoki ularning yo’qligi) uning xulq atvorida namoyon bo’ladi.

Pedagogik mahorat bu fahm – farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo’lgan nufuzli rahbarlikning, talabalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo’lgan talaba shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya bo’lgan qobiliyat majmuasidir.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo’llari pedagog rahbarligidagi mashg’ulotlar (pedagogik texnikani o’rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o’z – o’zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual – shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o’z – o’zini tarbiyalash, ya’ni talabaning o’zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o’ynaydi.

O’zbekistonning mustaqilligi tufayli ota – bobolarimizning axloq – odob haqidagi hikmatli hikoyalari, naql – rivoyatlari yoshlarning ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni biz Odobnoma fanining o’qitilishi misolida ko’rishimiz mumkin. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda esa har bir pedagog axloq odob haqidagi bilimlarga ega bo’lishi kerak.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanini o’qitishda jamoani tashkil qilish metodikasiga katta e’tibor beriladi, chunki shaxsni jamoada tarbiyalash bilangina jamiyatni yuksaltirish mumkin. Bu vazifalarni esa biz odatda guruh rahbarlarining zimmasiga yuklaymiz. Guruh rahbarlari o’z navbatida guruhdagi talabalarning bevosita ta’lim – tarbiya jarayoni, ya’ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga ma’suldirlar.

Keyingi yillarda davlatimiza qabul qilinayotgan ta’lim va tarbiya to’g’risidagi qator me’yoriy hujjatlar, jumladan «Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o’quv maskanlarining nufuzini yanada yuqori pag’onaga ko’tarishni taqozo etadi. Shu maqsadda tarbiyaviy ishlarni

tashkil etish va uni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida biz sizlar bilan o'qish davomida ushbu uslublardan foydalangan holda darslarni tashkil etamiz. Va har bir yo'nalishga alohida to'xtalib o'tishga harakat qilamiz. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda huquq – tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, Davlat va nodavlat jamg'armalar, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti faniniing dolzarb muammolari va uni amalga oshirish yo'llari. Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o'z vatanining ilg'or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

Yangi asrga qadam qo'yar ekanmiz mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy yukasalishi va yangilanishi sari yuz tutgun bir paytda O'zbekiston Respublkasi Prezidentining 1999 yil 3–sentyabrdagi “Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining qo'llab quvvatlash to'g'risida”gi Farmoni zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevishtuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon ulkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushinib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Ma'naviyati yuksak Shaxslar yurtini tanitadi. Shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat – tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim – tarbiyasiz ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!” degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk shaxs yaratishga e'tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi.

Mazkur “Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti” fanining o'qitilishi ham aynan ushbu qarorga asosan pedagogikaga ixtisoslashgan mutaxassislar uchun ishlab chiqilgan. Bunda uslubiyot tarbiya nazariyasining umumiy qoidalariga asoslanishi, lekin ularni takrorlamasligi, bu qoidalarni ro'yobga chiqarish usullarining vositalari, yo'llari va shakllaridan iborat bo'lishi lozim.

Tarbiyaviy ish uslubiyotini o'rganish talabalarini tarbiyalashning umumiy masalalarini mustaqil, ijodiy va dadil hal qilishga tayyorlashi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirishi uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor shaxs shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqazo etadi.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy – tarixiy an'analarga, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining asosiy vazifasi esa – shaxsning aqliy erkin fikrlovchi, axloqan barkamol va jismoniy jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirish hamda uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun: yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z – o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

Talabalarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib–boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

Har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko'rish;

Insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir – birini tushinadigan, mehribon, shafqatli, irqiy kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik) muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo'llanishi lozim.

Tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir shaxs, o'smir va yosh yigit – qizning betakror va o'ziga xosligini e'tiborga olish;

Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ishiga va turli yoshdagi tarbiyalanuvchilarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish lozim.

O'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

Respublika mexnatiga qo'shiladi» mavzusida mehnat xaftaligi va o'n kunliklari tashkil qilish mumkin. Bu xildagi ishlar o'z mazmuni bilan o'quvchilarda yuksak fuqarolik fazilatlarini shakllantiradi, g'oyaviy-siyosiy mehnat hamda axloqiy tarbiya uyg'unligi ta'minlaydi va ana shular tarbiyadagi namunaviy munosabatni ifodalaydi.

Guruh rahbari tarbiya ishlari tizimidan xam majmuaviy munosabat xavaziyatni yaratish maqsadida foydalanish kerak. Chunki tarbiyada vazifalar yaratadigan tarbiyani undan o'z maqsadi uchun juda keng va unumli foydalana oladi ham.

G'oyaviy axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi g'oyaviy axloqiy jixatidan yetuk va faol yoshlarni tayyorlashdir. Eng muhim vazifalardan esa, bu talabalarni axloq talablariga muvofiq takomillashtirishga tomon yo'naltirishdir. Har bir talaba o'zini-o'zi tarbiyalashning maqsadini aniqlab olishga yordamlashmoq kerak. Buning uchun har bir o'quvchining extiyoj va qiziqish darajasini o'rganish ularga o'z extiyojlarini jamiyat manfaatlariga, hal etilayotgan ijtimoiy vazifalarga bo'ysintirishga, o'z jamoasi sharoitida vujudga kelayotgan extiyojlarni ko'ra olishga va nihoyat ularning hal qilishning aniq shart-sharoiti va haqiqiy imkoniyatlarni topa olishga o'rgatish gurux rahbarining burchidir. G'oyaviy ahloqiy tarbiya vazifalarini amalga oshirish, o'quvchilarni g'oyaviylik, baynalmilallik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash; shaxsning faol pazittsiyasini tarkib toptirish; axborotlar oqimida o'ziga to'g'ri yo'nalish ola bilishga o'rgatish; milliy g'oya uchun kurash jarayonida o'zining faol faoliyati bilan ishtirok etishga tayyorgarlik; mehnat faoliyatida g'oyaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Talabalarni g'oyaviy-siyosiy,

axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda dunyoqarashni shakllantirish asosan darsda hal qilinadi, lekin bu ish gurux rahbari faoliyatida alohida o'rin tutish kerak. Lekin bu muhim masalani hal etishda gurux rahbari quyidagi vazifalarni majmualari hal qilish kerak:

1. Talabalarni ma'lum bir darajadagi siyosiy bilimlar, dunyoqarashga doir g'oya va tushunchalar bilan qurollantirish;

2. Talabalarda fuqarolik xislarini hosil qilish, ya'ni o'zining mamlakatdagi, xalqi hayotidagi voqealarga aloqador ekanligini anglashiga erishish, vatanparvarlik, baynalmilallik sifatlarini tarbiyalash;

3. Talabalarni ijtimoiy-siyosiy amaliyotga, ijtimoiy foydali ishlarga mehnat faoliyatigafaoal jalb qilish yo'li bilan ularda ijtimoiy-siyosiy tajribani barpo etish.

Gurux rahbari talabalarining darsda egallagan g'oyaviy-siyosiy bilimlarni darsdan tashqaridagi turli tarbiyaviy ishlar vositasida kengaytirildi. Bu ishlar vaqt o'lchovining chegaralanmaganligi, emotsional ta'sir imkoniyatining kengligi shaxsiy ehtiyojga muvofiqligi tufayli talabalar tomonidan darsdagidan ko'ra boshqacharoq qabul qilinadi. Bu narsa ya'ni milliy g'oyalar xar bir kishining xulq-atvorida, har bir jamoa va har bir tashkilotning faoliyatidagi ishlar bilan uzviy bog'lab olib borilishi lozim. Ana shunga amal qilgan gurux rahbari har bir talabani va butun gurux jamoasini faol ijtimoiy ishlarga jalb qiladi, ularda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatda qatnashish ehtiyojini uyg'otadi, bu esa g'oyaviy-siyosiy tarbiyaning natijasidir.

Talabalarining o'zlari gazeta va jurnallardan maqolalar to'plami gurux burchagida ko'rgamalar tayyorlashi, maxsus gazetalar chiqarishi, axborotlarni o'zlari mustaqil o'tkazishlari foydaldir. Yuqori kurslarda bu ishlarning mazmuni, shakli va metodlari yanada murakkablashadi, manbalar hajmi ko'payadi va ular xalqaro voqealarga doir ma'ruzalar talabalar anjumanlari, jamoatchilik muhokamalari, munozaralar shaklida o'tadi.

Siyosiy axborotlar talabalarda siyosiy bilimlarga chuqur qiziqish uyg'otish, gazeta o'qish, ichki va tashqi voqealarga doir radio eshittirishlarni va teleko'rsatuvlarni tinglash va kurish ehtiyojini tarbiyalash kerak. Gurux rahbari bolalarining turli hil voqealar haqidagi o'zaro mulohazalardagi noto'g'ri fikrlarni tuzatishi, ijtimoiy xayotning muxim voqealarini ilmiy asosda sharxlab berishi g'oyat muhimdir.

Ayni vaqtda gurux rahbari talabalarining axloqiy shakllanishi, ma'naviy dunyosining tarkib topishi uchun ham g'amxo'rlik qiladi. Xalqimiz moddiy farovonligining, madaniy darajasining, ma'naviy dunyosining o'sib borishi, mamlakatimiz ma'naviy hayotida eng ilg'or va eng insonparvar ijtimoiy munosabatlar tizimining qaror topganligi gurux rahbari amalga oshiradigan ahloq tarbiyasining muvoffaqiyatini ta'minlash uchun garovdir.

Talabalarining axloqiy shakllanishi faoliyat jarayonida ro'y beradi. Faoliyatni tashkil etish bilan gurux rahbari xar bir talaba shaxsini g'oyaviy – axloqiy jihatdan tarkib topishni ta'minlaydi. Talabalarni faoliyatning ma'lum bir turiga jalb qilish aniq maqsadga qaratilishi kerak.

Talabalarni axloq nazariyasiga doir bilimlar bilan qurollantirish va ularni ijtimoiy hayot voqealaridan axloqiy tomonlarni ajrata olishga, axloq me'yorlariga muvofiq baxolashga o'rgatish bilan gurux rahbari yigit-qizlarning o'z xulqini axloq me'yor va qoidalari nuqtai nazaridan idora qila olishlariga erishadi.

Yoshlar bilan o'tkaziladigan odob va axloqqa oid suhbatlar ulaar ishtirok etadigan ijtimoiy foydali va unumli mexnat, turli xil ijod ishlari «Kamolot» tashkiloti faoliyati bilan uzviy bog'liq tarzda borsagina, ijobiy natija beradi.

Axloqqa oid suhbatlar samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biri talabalarining ongi bilan xulqi o'rtasidagi birlikni ta'minlash hisoblanadi. Axloqiy bilim berishdan maqad, tashqi ta'sirni ongli harakat bilan bog'lovchi ichki istakka aylantirishni ta'minlashdir. Bunda u o'ziga ma'lum bo'lgan axloq me'yoriga rioya qilgan holda to'g'ri harakat qilish yo'lini tanlab olishga o'rganadi. Masalan, gurux rahbari o'z suhbatini shunday boshlaydi. «Avtobusda ketayotgan bir necha yoshlar qo'llaridagi radiopleyni baland qo'yib, allaqaysi gurux ijrosidagi sershovqin kuy tinglab borardilar. Keksa ayol ulardan ovozni pasaytirishni iltimos qilib qoldi. Bunga javoban «Eshitgingiz kelmasa qulog'ingizni berkitib oling»dedi yoshlardan biri. Ikkinchisi esa vaziyatni yumshatish uchunmi, yoki noqulay axvoldan chiqish uchunmi xar xolda «Xolajon, siz zamonaviy kuylarni yomon ko'rarkansiz-da»--dedi, uchinchisi esa, «Siz birginasiz, biz esa ko'pchilikmiz. Ko'pchilikni istagini xurmat qilish kerak buvijon!»-- deb qo'shib qo'ydi. Gurux raxbari talabalar bilan vujudga kelgan ushbu vaziyatni muhokama qilib, o'z fikrlarini bildirishni taklif qiladi.

Axloqiy bilim berishda gurux rahbari bilan oilaviy hamjixatlik g'oyat muhim omildir. Shuning uchun yoshlar bilan bir qatorda ota-onalar o'rtasida ham axloqiy tarbiyaga doir bilimlar tarqatish kerak. Axloqqa oid suhbatlarni bir oyda bir marta o'tkazgan ma'qul. Har bir suhbatga 7-10kun tayyorlaniladi. Suhbat vaqti 40-45 minutdan oshmasligi kerak. Navbatdagi suhbatga tayyorlik davrida gurux raxbari hamda yoshlar turli xil faoliyatda ishtirok etadilar. Mavzu tanlashda guruh rahbari mamlakatning ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan voqealarga, o'quv materialining mazmuniga, talabalarining axloq me'yoriga doir bilimlari darajasiga asoslanadi.

Axloqiy ongni shakllantirishda guruh rahbari suhbatlar bilan bir qatorda tushuntirish, ma'ruza, namuna-ibrat kabilardan xa keng foydalaniladi. Ana shu jarayonda u talabaning axloqiy mulohazasini o'stirishga o'zining va boshqalarning xulqini axloq me'yorlari asosida baholay olishga qaratilgan ishlarga, ularni jalb qilishga alohida e'tibor berish lozim. Odatda talabalar o'rtoqlarining, atrofdagi kishilarning xulqidagi ijobiy, salbiy tomonlarni baholay olganlari holda o'z xulqidagi tomonlarga u qadar e'tibor berishmaydi va ularda o'z xulqini baholash ancha kech ko'rina boshlaydi. Mana shuning uchun gurux rahbari talabalarni o'z xulqini baholash ancha kech ko'rina boshlaydi. Mana shuning uchun gurux raxbari talabalarni o'z xulqini axloq me'yor va talablari asosida quyi kurslardan boshlaboq baholashga o'rgata boshlashi maqsadga muvofiqdir.

Gurux raxbari axloq tarbiyasini amalga oshirishda har bir talabaning xulqiga, xarakter xislatlariga alohida e'tibor berib borishi kerak. Guruhda pedagogik qarovsiz qolgan, tarbiyasi qiyin bolalarga ham uchraydi. Agar bu xil bolalarning xulqi o'z vaqtida tuzatilmasa, u jamiyatdagi axloq me'yorlariga xilof yo'nalish kasb etishi ham mumkin. Shuning uchun ham guruh raxbari bu xil yoshning xulqidagi salbiy yo'nalishni qancha tez aniqlasa, uni tuzatishga qanchalik tez va faol aralashsa, shuncha yaxshi ish qilgan bo'ladi.

Gurux rahbarining axloqiy tarbiyani amalga oshirishi metodik asosga ega bo'lsagina samara beradi. Buning mohiyati gurux rahbarining talabalarni axloqiy

rivojlantirishga qay darajada ta'sir qila olishidadir, ya'ni talabaning yoshi, guruxi, shaxsiy xususiyati hisobga olinishi kerak.

Axloqiy mavzular yuzasidan munozaralar o'tkazish talabalarda axloqiy e'tiqod, qarash va nuqtai nazarni shakllantirishning muhim vazifasi hisoblanadi.

Munozara vaqtida gurux rahbari betaraf turishi foydalidir. Munozara oxirida guruh rahbari yakun chiqaradi. Munozara uchun yoshlarni to'liqlantirayotgan masalalar mavzu bo'ladi, masalan: «Hayotda o'z o'rnini topishning ma'nosini qanday anglaysiz?», «Yashashning ma'nosi va xayotdan maqsad», «Inson qachon baxtli bo'la oladi?», «Zamonaviy bo'lishning ma'nosi nimada?».

Gurux rahbari har bir mavzuning mazmuniga kiradigan masalalarni aniqlashda talabalarga yordam beradi.

Munozara uchun tavsiya etilayotgan bu mavzular yoshlarning fikrini band qiladigan asosiy mavzular bo'lib, ulardan qaysi birini tanlash, qanday uyushtirish gurux o'quvchilarning ehtiyojiga, jamoadagi kayfiyat va qiziqishga bog'liq. Bu mavzular mazmuniga kiradigan masalalar xammasi axloq, ma'naviy xayot bilan bog'liq bo'lgan bo'lib, ular yuzasidan yuritiladigan baxslar yordamida talabalar axloqiy bilimga jamiyatdagi odamlar munosabati bilan bog'liq me'yor va qoidalarga oid tushunchalarga ega bo'ladilar, asta-sekin ularda ishonch va qarashlar tarkib topa boradi.

Gurux rahbari faoliyatining mazmuniga kiradigan axloq tarbiyasi faqat yuqoridagilar bilangina hal bo'la qolmaydi. Axloqiy tarbiyani amalga oshirish murakkab jarayon bo'lib, asosiy e'tibor talablarda axloqiy ong, axloqiy his, tushuncha, muloxaza kabilarga muvofiq axloqiy malaka va odatlarni shakllantirishga qaratilishi kerak.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining maqsadi va vazifalari, asosiy tushuncha va tamoyillari.
- 2.Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining asosiy tushuncha va tamoyillari.
- 3.Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining mazmuni, mohiyati va shaxs tarbiyasidagi roli.
- 4.Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining dolzarb muamolari nimalardan iborat?
- 5.Guruh rahbari ishini qanday rejalashtiriladi?.

2-mavzu: TARBIYA IJTIMOYIY-TARIXIY JARAYON SIFATIDA

Reja:

- 1.Tarbiya pedagogikaning kategoriyasi ekanligi
- 2.Eng qadimdan XII asrgacha bo'lgan davrda o'qituvchi – ustoz, shogird va ularning jamiyatdagi o'rni, mahorati haqida.
3. Sharq donishmandlari va mutafakkirlarining ijodiy meroslarida mudarrislar, ularning mahorati, muloqot, muomala madaniyatiga qo'yilgan talablar.
4. Hozirgi zamon pedagogikasida, ilmiy pedagogik adabiyotlarda pedagogik mahorat, pedagogik texnika va uning tizimi, mohiyati haqida.

Tarbiya tushunchasi usib kelaetgan avlodda xosil kilingan bilimlar asosida akliy kamolot—dunekarashni,insoniy e'tikod, burch va ma'suliyatni , jamiyatimiz kishilariga xos bulgan axlokiy fazilatlarini yaratishdagi maksadni ifodalaydi.SHu ma'noda tarbiya deb tarbiyachi uzi xoxlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga

singdirish uchun ularning ruxiyatiga ma'lum maksadga kura tizimli ta'sir kursatishga aytiladi. tarbiya bola tugilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jaraendir. SHu tufayli tarbiya suzi kup vaktlarda ta'lim , ma'lumot jaraenlariga kiradigan ishlarning mazmunini xam anglatadi. Tarbiya ta'lim va ma'lumot natijalarini uzida aks ettiradi.

Xozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir kursatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning anik bir maksadga karatilgan, bir-biri bilan xamkorlikda kiladigan munosabatlari va uzaro ta'sir kursatishi ekanligi aloxida ta'kidlanadi.

Tarbiya jaraenida kishining turli kobiliyatlari rivojlanadi, goyaviy, axlokiy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy karashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-kuvvatlari mustaxkamlanadi.

Bola kattalarning tajribalarini sust xolda emas, balki faol ravishda uzlashtiradi: bu uzlashtirishda uning ongli xarakati, tirishkokligi katta ahamiyatga ega buladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat kursatmasalar tajriba va bilimni uzlashtira olmaydilar. Bolaning eshi ulgaygani sari bu faollik tobora kuprok mustakil xususiyatlarga ega bulib boradi; tarbiyalanuvchilar uzlaridadunekarashni tarkib toptirishga, uz-uzini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan xodisalarni tushunishga xamda idrok etilgan narsalarga tankidiy munosabatda bulishga kunika boradilar.

Xar bir odam shaxs sifatida turlicha namoen buladi. U uzining xarakteri, kizikishi va kobiliyati, akliy kobiliyati rivojlanganligi darajasi, extieji va mexnat faoliyatiga munosabati bilan farklanadi.

Odamning ijtimoiy mavjudod sifatida shaxs nomini olishi uchun unga ijtimoiy – iktisodiy xaet va tarbiya kerak. SHaxsing kamolot topishi va uning xulkida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi xamishaxam bir xil bulavermaydi. CHunki ning xulkiga, munosabatlariga, alokalariga eshi , bilishi, odatlari, tajribasi va nixoyat, vaziyat xam ta'sir etadi.

Pedagogika shaxsning kamolga etishini murakkab ziddiyatli jaraen deb biladi. SHaxsning kamolga etishida nasl – irsiyat, ijtimoiy muxit xam maksadga muvofik amalga oshiriladigan ta'lim – tarbiya va nixoyat uzining mustakil faoliyati xam muxim ahamiyatga ega.

R. Maxmudov Koshifiyning axlokiy goyalariga insonni kamolga etkazish maksadida uni tarkib topdirish uchun zarur bulgan xislatlarni unga bulib turkumlashtiradi.

1. Komil inson etuk axlokli xakidagi fikrlarni an'anaga kura buyuk donishmandlar-xakimlar, sarkardalar, shoxlar tilidan bayon etadi va ularni adolatli, dono, okil va kamtar inson sifatida ta'riflab , uzining komil inson xakidagi konsepsiyasini ilgari suradi.

2. Koshifiy fakat podsholarnigina emas, xar bir oddiy insonda xam eng oliyjanob xislatlar tarkib topishini istaydi.

3. U uzining ijtimoiy axlokiy idealini yuzaga chikarishda asosiy vosita deb ilm ma'oifat va axlokiy tarbiyani tushunadi.

4. Koshifiy odobli insonni axlokli deb tushunadi. Inson fakat odobli, saxovatli , tugri, xalol, pok bulgandagina xakikiy inson bulishi mumkin deydi.

5.Voiz Koshifiy insonparvarlik va xalollikni eng yuksak insoniy fazilatlardan deb biladi.

6.Koshifiy insonning eng yuksak xulk-atvor egasi bulishi uchun un koidaga amal kilish zarurligini ilgari suradi .

a)elga teskari ish kilmaslik.

b) uz nafsiga insof tilash

v)kishi aybini ochmaslik

g)kishilarda uchraydigan yomon xulk atvorni yaxshilikka tomon burish

d)uz aybiga ikror bulib, uzr suragan kishining uzrini kabul kilish

e)och-yupunlarning xojatini chikarish

yo)inson uchun mashakkat tortish

j)uz nafsini tiyish

z)xalkka toza yuz bilan kurinish

i)kishilarga yaxshi suz aytish

7.Kishilarni inoklikka,tinch-totuv yashashga chakirish

8.Xalklar urtasidagi dustlikni targib etadi

9.Kasb-xunar,ilm-ma'rifatniegallashga chakiradi

10.Ilmlı kishilarning jamiyatda tutgan urnini ta'kidlab, olimlarni,umuman ilm axlini e'zozlash kerak ,deydi

Pedagogika tarixi ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lishi, inson kamoloti haqidagi g'oyalarni nihoyatda puxta bilishni talab etadi.

Eramizdan oldingi oltinchi asrdan milodiy beshinchi asrgacha o'tgan davrda Yunonistondagi quldorlik davlatlari va Rim imperiyasida bir qadar demokratik tartiblar, respublika boshqaruvi o'rnatilgan. Bu erda o'ziga xos ta'lim – tarbiya tizimlari va pedagogik ta'limotlar yaratilgan. Yunonistonlik olimlar – Demokrit (460-370), Suqrot (469-339), Aflotun (427-347), Arastu (383-322); shuningdek, mashhur Rim pedagogi Kvintilian (42-118)lar o'z asarlarida ta'lim – tarbiya, o'qituvchi axloqiga doir pedagogik nazariyalar yaratganlar.

Demokrit tarbiyaning tabiatga mosligi g'oyasini o'rta qo'ygan. O'qitish jarayonida bolalarning qiziquvchanligini hisobga olish zarurligini uqtirgan. Ta'limning kishi tabiatini o'zgartiruvchi qudratli kuch ekanligini, o'qitishda majburlash usulidan ko'ra, ishontirish vositasidan foydalanish afzalligini, salbiy namunalarning zararliligini ta'kidlagan. **Aflotun** bola tarbiyachiga itoat qilishi zarurligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. U bolani muttasil nazorat qilib borish; uning yaxshi, itoatkorligini rag'batlantirish, itoatsizlik qilsa qo'rqitish va urib bo'lsa ham to'g'ri yo'lga solish lozimligini ta'kidlaydi. «Agar pedagog yoki ota-ona,-degan edi u,- bolaga: mana bu adolatli, bu esa — adolatsiz, bu ishni qilish yaxshi, bu esa - uyat, bu narsa – muqaddas,bu esa — nopoklik: bu ishni qilish kerak, buni qilmaslik lozim, deb aytmasa va ko'rsatmasa bolani tarbiyalay olmaydi»

Arastuning «Iskandarga nasihat»i (qarang: «O'zbek pedagogikasi antologiyasi». Toshkent, «O'qituvchi». 1995, 39-46-betlar) da bayon etilgan pedagogik g'oyalar yoshlarni axloqiy tarbiyalash nuqtai nazaridan hamon qimmatini yo'qotmagan. Shuningdek, Arastuning «Afina siyosati» asarida tasvirlangan (qarang: Pisarenko V. I., Pisarenko P. Ya. Pedagogicheskaya etika. Minsk,1977. 10-11-betlar) afinaliklarning o'qituvchilarni saylash taomili ham o'qituvchi bobida diqqatga sazovordir.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiya pedagogikaning kategoriyasi ekanligi
2. Eng qadimdan XII asrgacha bo'lgan davrda o'qituvchi – ustoz, shogird va ularning jamiyatdagi o'rnini, mahorati haqida nimalarni bilasiz?
3. Sharq donishmandlari va mutafakkirlarining ijodiy meroslarida mudarrislar, ularning mahorati, muloqot, muomala madaniyatiga qo'yilgan talablari nimalardan iborat?
4. Hozirgi zamon pedagogikasida, ilmiy pedagogik adabiyotlarda pedagogik mahorat, pedagogik texnika va uning tizimi, mohiyati haqida qanday g'oyalar ilgari surilgan?

3-mavzu: Guruh rahbarining pedagogik faoliyati va mahorati

Reja:

1. Guruh rahbari faoliyati
2. Guruh rahbarining pedagogic mahorati
3. Guruh rahbarining tashkilotchilik funksiyasi

Tayanch iboralar: Pedagogik oliyanoblik, oliyanoblik hissini shakllantirish, kasbga nisbatan munosabati, talabaning munosabati, nuqsonlarni yo'qotishga yordam berish, talabalarining yutuqlaridan hursand bo'lish.

Guruh rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sarmazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan guruh o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili davomida nimalar qilish kerakligi, talabalar hayotining nima bilan band qilish va tanlangan ish turini amalga oshirishini behato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni uchadi. Bu borada guruh rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. Guruh rahbarining ish stolida «Talabalarni tarbiyalash ishining mazmuni» bo'lishi kerak. Chunonchi,

- dunyoqarash asoslarini tarkib toptirish;
- siyosiy onglikni tarbiyalash va ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish,
- axloqli, ongli intizomni va xulq madaniyatini tarbiyalash;
- o'qishga ongli munosabatni tarbiyalash, bilish faolligini va aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish
- mehnatga va ijtimoiy mulkka munosabatni tarbiyalash, politexnika bilim doirasini kengaytirish, kasbni ongli tanlashga tayyorlash;
- o'z huquqini anglab yetishga o'rgatish, fuqarolik mas'uliyatini tarbiyalash;
- estetik madaniyat asoslarini tarbiyalash va badiiy qobiliyatni rivojlantirish;
- jismoniy barkamollik, salomatlikni, mustahkamlash va sanitariya-gigiena madaniyati kabi muhim masalalar alohida qayd etiladi.

Guruh rahbarining pedagogik faoliyati va mahorati o'quv faoliyatida ham, o'qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi.

Xo'sh, tarbiyachining pedagogik mahorati, texnikasi qanday malakalarni o'z ichiga oladi? Ularning pedagogik ta'sir ko'rsatishdagi roli qanday?

Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida pedagogning nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z fikr va his tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini aytib o'tish mumkin.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi guruh rahbarining mimkin va pantomimik ifodaliligidir. Aniq imo – ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zli tushuntirish yoki e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomala vositalari bo'ladi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda guruh rahbarining o'z hissiy holatini boshqarish, o'zida eng qulay hissiy jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatini saqlash, o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol o'ynaydi. Bu mahorat pedagogning kasbiy jihatdan o'z – o'zini nazorat qilishni ta'minlaydi. Ko'p yillar davomida sog'lom asab sistemasini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo'riqishdan o'zini tiyishga yordam beradi.

Samarali o'zaro ta'sir ko'rsatishni tashkil tish uchun pedagog aktyorlik va rejissyorlik mahorati tarkibiy qismlarini egallashi zarur, ular pedagogga tarbiyalanuvchilar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchilarning aql – idorkigagina emas, balki ularning his tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatishga yordamlashadi.

Shunday qilib, guruh rahbarining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u guruh rahbariga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ulaga o'z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beradi. A.S.Makraenko shularni nazarda tutib, «Trabiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishini bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har biri harakati tarbiyalasin», deb yozgan edi. Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari pedagog rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalrining individual – shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol' o'ynaydi, deb aytish mumkin.

Pedagogik texnik-malakalarini shakllantirishda gruppaviy ish olib borish alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnik mashg'ulotlarining bu shaklini batafsiliroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar pedagoglar uchun muljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda lozim darajada ko'rsatib berilmagan. Guruh shaxsning o'z – o'zini bilish va o'z–o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullari tekshirib ko'riladigan, nazariy masalalar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin.³

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini ishlash malakalarni egallashga faol intilishlari, o'z – o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z –o'zini tarbiyalash bo'yicha chuqur ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhviy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalri shakllanishining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq tajribaning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu Bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham borishi mumkin ekan. Bular masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo'lga qo'yilishi, to'g'ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq, mimik va

³ Mahkamov M. «Bo'lajak tarbiyachilarninr pedarorik muloqat madaniyatini shakllantirish» nomzodlik dissertastiyasi. T., 2005.

pantomimik aniqlik va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday ko'nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi.

Oliy o'quv yurtlaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash guruh rahbariga o'zining kasb yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan holi bo'lishda, talabalarga ta'lim tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Guruh rahbari vaziyatlarning haddan tashqari xilma – xilligi pedagogdan ijodiy xulq – atvorni talab qiladi. Pedagogik texnika pedagog malakalarining eng yaxshi ijodiy xulq atvoriga, boshqacha qilib aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga samarali ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Pedagogik texnika malakalari tarbiyachining individual–shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqligi faqat bu malakalarning individual tusda bo'lishi emas, balki ularning shakllanishi va rivojlanishi pedagog shaxsiga ta'sir ko'rsatishda ham nomoyon bo'ladi.⁴

Pedagogik texnikaning yana muhim xususiyatlaridan biri pedagogning ma'naviy va estetik nuqtai nazarlari tarbiyalanuvchilarga yanada to'laroq ochib beriladi. Agar pedagogning nutqi qashshoq va tartibsiz bo'lsa, agar u bo'lar bo'lmas sabablar bilan o'z hissiyotlariga erk bersa, didi past, estetik jihatdan omi bo'lsa, u holda “eng to'g'ri” so'zlar ham, eng “kerakli” tadbirlar ham tarbiyalanuvchilarning na aql – idrokiga, na hissiyotiga ta'sir qiladi.

Pedagogik texnika to'g'risida aytilganlarning hammasi har bir guruh rahbari uchun bu texnikani tashkil etuvchi malakalarni egallash nihoyatda zarurligini ochiq – oydin ko'rsatib turibdi va bu pedagogik vaziyat hamda san'at bilan bog'liq. Chunki inson o'zining har bir qadamini oldindan ko'rishi, rejalashtirishi amalda mumkin bo'lmaydi. Guruh rahbari ning mehnati – bu behad izlanish va azob – uqubatli kechinmalar, ilhom va betakror nurlanish oni, ko'pdan ko'p kundalik ishlar, hafsalasi pir bo'lish va shaxslar birgalikda boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilishdir. Pedagogk san'at – bu qandaydir qul bilan tutib bo'lmaydigan, fahm – farosat bilan amalga oshiriladigan mahorat mahsulidi.

Xo'sh, pedagogik mahorat nima va u nimalardan tashkil topadi?

Pedagogik mahorat fahm – farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlikning, shaxslar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan shaxs shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat majmuasidir. Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm – farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradiki, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab, ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o'zicha, paypslab ijodiy izlanish olib boadi, Ayni bir xil savollarni: shaxslar bilan, pedagoglar jamoai bilan qanday qilib til topish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ichida tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq kerak? Tarbiyalanuvchilarni pedagogik talablarni bajarishga qanday qilib majbur etish mumkin? Qanday qilib yaxshi pedagogik ruhiyatni saqlab qolish va o'z kuch – qo'vvatini oqilona sarflash mumkin? Degan savollarni muttasil takrorlaydi va hakoza.

⁴ Mahkamov M. «Bo'lajak tarbiyachilarning pedarorik muloqat madaniyatini shakllantirish» nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2005.

Bu kabi savollarga javob berish uchun pedagogdan odatdan tashqari kuch – g'ayratni, qat'iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlar olib boirishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va halollikni, o'tkir aql idrokni, o'z topilmalarining qimmatini aniqlash qobiliyatini talab qiladi. Pedagogika fani bilan tarbiya san'atining o'zviy aloqadorligi zarurki, u yuksak kasb mahoratini ta'minlaydi.

Pedagogika fikrlashga o'rgatadi, murakkab pedagogik muammolarni hal qilish uchun to'g'ri yo'l yo'riq va ilmiy asoslangan yo'llarni ko'rsatadi, pedagogning pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasi va texnikasi bilan qurollantiradi. Biroq texnikaning tarkibiy qismlari bilan mahorat o'rtasidagi nisbatning dialektik muammolarini to'g'ri hal qilish uchun tayyor andazalar, mutloq aniq tavsiyalar qayerda bo'lishi mumkin, qayerda bo'lishi mumkin emas, degan savolga javob berishi mumkin.

Tarbiyaning maqsadlari, vositalari va natijalari o'rtasida, shuningdek, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi tafakkuri, motivlari o'rtasida g'oyat murakkab bog'liqlik bor. Kattalarning maqsadi, odatda, yoshlarning maqsadlari (hatto strategik maqsadlari) bor. Talabaning rivojlanish mantiqi, uning tafakkuri, harakatlari bitta nuqtai nazarda, tarbiyachining mantiqi boshqa nuqtai nazarda turishi mumkin. Bunday variantda hech qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish bo'lmaydi.

Pedagogik faoliyatda vositalar, maqsadlar va natijalarning nisbatini doimo tahlil qilib borish zarur. Ular uzviy birlikni tashkil etadi, bir – biriga bog'liq bo'ladi va alohida tarzda amalga oshirilmaydi. Maqsadni amalga oshirish usuli – bo'lajak natijadir. Natija yangi vositalarni tanlash, yangi maqsadlarni qo'yish uchun amaliy asos hisoblanadi. Tajribada ma'lum darajada qo'llanilgan har qanday vosita natija beradi, hatto biror sababga ko'ra maqsad aniq ifodalanmagan bo'lsa ham natija bervermaydi.

Tajribada mavjud bo'lgan pedagogik vositalarni ikkitasini ko'rib chiqamiz.

Birinchisi: har qanday pedagogik vosita hamisha bir qator boshqa vositalar, usullar, shartlar bilan bog'liq bo'ladi, ular pedagogik jarayoning muayyan bosqichida ta'sir ko'rsatish natijasini belgilab beradi. Masalan rag'batlantirish bir xil jarayonlarni tezlashtirish va boshqarishga to'siqlik qilish, turli salbiy va ijobiy hissiyotlarning turli – tuman ko'irinishlarini vujudga keltirishi mumkin.

Ikkinchi: ayrim vositalarni qo'llanish pedagogning ular ta'sirini, mumkin bo'lgan o'zgarishini anglash qobiliyatlariga butunlay bog'liq bo'ladi. jamoa muomala sharoitida vositalarni qo'llash minut sayin o'zgarib turadigan vaziyatni hisobga olish zarurligini taqazo qiladi.

Hozircha biz ko'proq mavhum kategoriyalardan foydalanamiz. Amaliy faoliyatda esa vositalar, maqsadlar va natijalar dialektikasi ovozlari shovqini, g'oyat turli – tuman ehtiyojlar va da'volarning avj olishi bilan to'la bo'ladiki, bu barcha jonli manzara doimo bir kishining – pedagog tarbiyachining diqqat markazida bo'lishi lozim.

Agar pedagogik san'at haqida gapirganda, chamasi, uning asosiy ko'rinishlari – talabalarga umidbaxsh faraz bilan yondoshish, talab va ishonchning birligi, uning shaxsga avayla munosabatda bo'lish, uni hurmat qilishdan iborat bo'lishi mumkin.

Pedagogik umidbaxshlik hatto eng qarovsiz talaba ham o'zida ko'pgina ijobiy narsalarga egadir, degan ishonchga asoslangan.

Pedagogik mahorat o'ziga talabalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, ta'lim muassasasi haqidagi, ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy

pedagogik madaniyani tashkil etadi, pedagog, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andazalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Biroq zamonaviy guruh rahbariga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi – maxsus bilimlar va malakalar: talabalarni kuzatish, ularning o'sishidagi muhim narsalarni aniqlay olish, bu muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy ijtimoiy g'oyalar bilan taqqoslash, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir – biriga o'tish dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir sistemaga solish malakalari zarur bo'ladi.

Guruh rahbari yangi tajribalarni o'rganar ekan, o'zining hayotiy bilmini, his etgan va anglagan narsalarini, o'z tajribasini aslo kamsitmasligi kerak. Guruh rahbarini keng va dadil tajribachilik ishlariga yo'llash zarur.

Demak, guruh rahbarining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u guruh rahbariga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beradi. Talabalar bilan bevosita muomala qilishda guruh rahbarining xuddi ana shu malakalari (yoki ularning yo'qligi) uning xulq atvorida namoyon bo'ladi.

Guruh rahbarining pedagogik mahorati bu tarbiyachining fahm – farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlikning, talabalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan talaba shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat majmuasidir.

Pedagogik texnika, mahorat, san'at, pedagogik malakalar, pedagogik vaziyatlar, maqsad, o'z – o'zini tarbiyalash, moxirlik, tashkilotchilik, aktyorlik, rejissyorlik, mimika, pantomimika, savodli gapirish, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, pedagogik ta'sir ko'rsatish.

Guruh rahbari noxoyatda ma'suliyatli va murakkab vazifani bajaradi. U guruhdagi tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, talabalarining murabbiysi, guruxni tashkil etadi hamda kamolot tashkilotchilari, o'qituvchilar, oila, keng jamoatchilik ahli bilan birga ish olib boradi. So'nggi yillarda guruh rahbarining faoliyati turli shakl va metodlar bilan boyitildi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda o'quv yurti jamoat tashkilotlarining roli tobora oshirildi. Ushbu ishni tayyorlashdan maqsad o'quv yurtining guruh rahbariga hozirgi vaqtda mamlakatda uzluksiz ta'limning yagona tizimini yaratish borasidagi ish uslublarini xar tomonlama keng joriy qilish va metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ideologik muassasalar sifatida o'quv yurti oldiga muhim tarbiyaviy vazifalar ko'yilgan, bu esa ayni vaqtda har bir guruh rahbarining asosiy vazifalarni xisoblanadi, shunday qilib. Alohida guruh birlashib o'quv yurtini tashkil etadilar. Alohida guruh jamoalari ko'lga kiritgan ta'lim va tarbiya borasidagi muvaffaqiyatlar butun o'quv yurti jamoasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan guruh rahbarining ma'suliyati jamiyat oldida raxbarlik ma'suliyatidan kam emas. Shuning uchun o'quv yurti direktorlari gurux rahbari vazifasiga tajribali, tashkilotchi, mexnatsevar, mahoratli, yosh avlodni sevadigan o'qituvchilarni tayinlab, ular bilan muntazam ish olib boradilar.

Guruh rahbarining muhim vazifalaridan biribu talabani o'qishga bo'lgan havasi, e'tiqodi va bilim, qobiliyatini rivojlantirish, kasb-xunarga bo'lgan layoqatini, yosh va ruxiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o'quvchining bo'lg'usi hayoti rejalarini amalga oshirish, talabalarning salomatligini muxofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning gurux jamoasi orasida obro'sini ko'tarish, o'z vaqtida ularga tegishli yordam ko'rsatish gurux rahbarining bevosita asosiy vazifasidir.

Shuningdek, guruh rahbarining tashkilotchilik funksiyasi tarbiya jarayonida muhim vosita sanaladi. Chunki, tashkilotchilik tushunchasining o'zi keng ma'noga ega. Maxsus bir maqsadni ko'zlab u yoki bu ishni tadbiriy choralarni tashkil etish guruh rahbaridan katta malaka va maxsus mahoratni talab qiladi.

Tashkilotchilik funksiyasi bir necha elementlarga bog'liqdir:

A. O'tgan ishlarni tashkil qilish, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi sabablarini belgilab olish.

B. Guruhda o'tkaziladigan barcha ishlar tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, ma'lum maqsadni ko'zlab o'tkazilishi va guruh rahbari turli tarbiy ishlarini o'tkazishda oldin shu ishning modelini tuza bilish lozim.

D. Guruh rahbari oldiga qo'yilgan maqsadga yetishish uchun o'z oldiga aniq vazifa qo'ya bilish lozim.

E. Guruh rahbari har bir tadbiriy choralarni amalga oshirishda o'qituvchi va talabalarning qobiliyatlariga qarab, vazifalarni taqsimlash, ma'lum reja asosida tarbiyaviy tadbirlarning o'tazish o'rni, vaqti, soati, javobgar shaxslar va tizimligini aniqlash lozim.

F. Ma'lumki tarbiyaviy ish bajarishda bajaruvchi kishilarni to'g'ri taqsimlash, ishga boshqa o'qituvchilarni, ota-onalar, talabalar, otalik tashkilotlari va ish obe'ktini aniqlash lozim.

Guruh rahbarining asosiy faoliyati esa quyidagilarni bilishni talab etadi.

1. Har bir talabani shaxs sifatida o'rganish.
2. Talabalarning guruhda tarbiyalashni tashkil etish.
3. Talablarning bilim-tarbiyasini oshirish va ularning tartib intizomini mustahkamlash.
4. Guruhda darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish.
5. Fan o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlarni (koordinatsiyalash) birlashtirish.
6. Talabalarning ota-onalari bilan ishlash.
7. Guruh rahbari fan o'qituv ishlariga nisbatan tarbiyaning ko'p qirrali muhim vazifalarini bajaradi. Shuning uchun uning oldiga juda katta pedagogik va psixologik talablar qo'ygan, bu talablar tarbiyaviy ishlarni yuqori darajaga ko'tarishda muhim rol o'ynaydi.

8. Demak yuqoridagilarga tayangan holda guruh rahbarining faoliyatiga nisbatan qo'yilgan talablar quyidagilardan iborat.

1. Yuqori g'oyafiylik va ongli.
2. Guruh rahbari katta obro'ga ehtiromga va hurmatga ega bo'lishi
3. Pedagogik mahorat
4. Madaniy qobiliyatning mavdudligi
5. Pedagogie odibga ega bo'lish
6. Yosh avlodga nisbatan hurmat va ehtirom bo'lish
7. Tashkilotchilik malakasi va mahoratiga ega bqlish
8. Tarbiya ishlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lish

9 Guruh rahbari kasbini yuqoriga ko'tarish mustaqil bilim olish qobiliyatiga ega bo'lish.

Rasmiy hujjatlarga guruh rahbarining vazifalari qisman bayon qilingan bo'lsa ham biz quyida guruh rahbarining vazifalarini aniq tarzda ko'rsatishni zarur deb bildik.

Guruh rahbarining vazifalari:

1. Anatomik, fiziologik va psixologik xususviyatlarini o'rganish.
 2. Talabalarning kundalik davomati odob, xulqi va jamoat ishlariga qatnashishini tekshirib borish.
 3. Talabalarning rejimga rioya qilishlari va uyga berilgan vazifalarni tayyorlab borishlarini kuzatish.
 4. Guruhda ishlaydigan fan o'qituvchilari bilan majlis o'tkazish
 5. Darsda talabalarning davomatini ta'minlash, guruhda va o'quv yurtida navbatchilikni tashkil etish, xonani jihozlash, xonadagi o'quv asboblari saqlashga o'rtgatish, talabalarning qiyinchiliklarini nazorat qilib ular bilan suhbat o'tkazish
 6. Guruh majlichlarini tizimli va tartibli o'tkazish
 7. «Kamolot» tashkiloti bilan ish rejalariga muvofiq darsdan tashqari ishlarini tashkil etish.
 8. Talabarlarning darsdan ashqari o'kishlari va anjumanlarini o'ikazish
 9. Guruh talabarlari bilan sport, harbiy vatanparlik tarbiyasi borasida tadbiriy choralar ko'rish, talabalar sog'lig'ini muntazam nazorat qilish, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, harbiy ta'lim o'qituvchilari bilan doimiy aloqada bo'lish
 10. Talabalarni rag'batlantirish va zarur vaqtlarda ularga nisbatan chora ko'rish.
 11. Talabalarning ota-onalari bilan tarbiya borasida doimiy aloqada bo'lish va ular bilan individual suhbatda bo'lish.
 12. Talabalarning shaxsiy va guruhga oid hujjatlarni tartibli olib borish.
- Guruhda tarbiyaviy ishlarga doir masalalarni har tomonlama hal qilish maqsadida guruh rahbari talabarlarning ta'lim olishlari guruhning uyushtirishning tahminiy rejasini tuzadiki bu reja talabalar bilan tizimli ish olib borishga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

2. Talabani o'rganishning tahminiy dasturi

1. Talabalar to'g'risida umumiy ma'lumot.

1. Talaba qayerda yashaydi?
2. Ota-onasining kasbi va ish joyi.
3. Oila a'zolarining va ularning moddiy ta'minlanganligi
4. Oilada ota-onaning o'zaro munosabatlari
5. Oilada talabaning tarbiyalash xarakteri
6. Talabaning rejimi
7. Oilaning xo'jalik ishlarida talabaning ishtiroki
8. Talabaning hayotida eng muhim voqealar
9. Talabaning sog'ligi to'g'risida ma'lumot

II. YOSHLAR TARAQQIYOTINING UMUMIY HOLATI

1. Umumiy taraqqiyot (nafaqat madaniyati dunyoqarashi xarakteri kino, teatr, muzey, sport majmualariga borish)
2. Talabaning o'qishga bo'lgan munosabati
3. Talabaning davomati

4. Talabaniy jismoniy mehnaga munosabati
5. Talabaniy intizomi , xulqi tirishqoqligi
6. Talabaniy qiziqishi (o'qishga, sportga)

III. Talabaniy jamoat ishlarida ishtiroki

1. Guruhning jamoat ishlarida ishtirok etish
2. Jamoat ishlarini bajarishi
3. Talabaniy guruhdagi obro'yi va mavqei

IV. Talaba shaxsining asosiy xususiyatlari

1. Jamoatchilik dunyo qarashi
2. Talabaniy ma'naviy sifatlari, vatanni sevish, do'stlik, insoniylik, baynalminallik.
3. Irodalilik xarakteri va xususiyatlari. (maqsadli bo'lish, faollik, botirlik tashkilotchilik mustaqillik intizomlik, bandlik, kamtarlik va hokazo)
4. Talaba mijozining xususiyatlari va uning ruhiy jarayoni (nutq, diqqat , xotira xayol ruhiy holatlar)

V. Talabani o'rganish asosida gurux raxbari quyidagi chora-tadbirlarni tuzadi.

1. Talabaniy qaysi sifatlarini tarbiyalab rivojlantirish lozim.
2. Talaba axloqdagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun nimalar qilish kerak?

2. B. Guruxni o'rganishning dasturi.

I.Gurux nayoti.

1. Guruxdagi talabalarining yoshi, ruxiy, fiziologik va gigienik xolatlari.
2. Talabalarining shaxsiy taraqqiyoti, ma'rifatchilik jixatlari.
3. Guruxdagi jamoatchilik ishlari.

II. Guruxning hamjixatligi va uyushqoqligi

1. Talabalarining o'zaro munosabati.
2. Talabalarining birgalikda mehnat qilishlari va uning vaqti.
3. Qizlar va o'g'il bolalarining do'stligi hamda xamfikrligi.
4. Jamoa a'zilarini himoya qilish.

Guruxda do'stlik aloqalarini xarakteri

1. Talabalarining o'quv yurti va undan tashqarida o'zaro do'stlik munosabatlari qanday?
2. Talabalarining bir-biriga nisbatan sezgirlik, kuzatuvchanlik xususiyatlariga egami?
3. O'rtoqlariga nisbatan talabchanligi
4. O'rtoqlarning kamchiliklarini ko'ra biladimi, yo'qmi?
5. Guruxning a'lochilar, zukko, ishbilarmon talabalarining darsdan ketib qolgadigan, o'zlashtirmovchi talabalarga munosabatari qanday?
6. Jismoniy jihatdan zaif bo'lgan bolalarga qanday yordamlar beriladi?

gurux faollari.

1. Faollar hayati
2. Ularning guruhdagi obro'lari.
3. Faollarining o'rtoqlariga nisbatan munosabatlari.
4. Faollar guruhdan ajralib turadilarmi, guruhdagilar ularni hurmat qiladilarmi yoki yo'qmi?

Guruhning o'quv yurti bilan aloqasi

O'quv yurtida hodisalardan, boshqa guruhlardan guruhning xabari bormi?
O'quv yurtining yaxshi yo'lga qo'yilishi uchun guruh o'quvchilari takliflar kiritib turadilarmi yoki yo'qmi?
O'quv yurti talabalarini guruh qanday bajaradi?
Guruhning boshqa guruh talabalari bilan qanday aloqasi bor?
O'quv yurti tadbiriy choralarni rejalashtirishda guruh talabalari qanday ishtirok etadilar?

Talabalar jamoasining yuqori ko'rsatilgan usullar bilan holatini o'rganish o'qtuvchiga ko'a imkoniyatlar beradi. Tajribali o'qtuvchilar hamma vaqt biror guruhning rahbarligini olishdan avval oldin guruhni batafsil o'rganadilar, bu esa qiyinchilik guruh rahbariga vaqti tejashda, aniq ish rejalarini tuzishda va o'z faoliyatini o'quv yili davomida belgilangan tarzda amalga oshirishga yordam beradi.

5. Mustaqillik sharoitida tarbiyaviy ishlar jarayoniga va guruh rahbari faoliyatiga qo'yilgan talablar.

Pedagoglarda biz albatta oliyjanoblik hissini tarbiyalashimiz shart. Oliyjanoblik qalbning o'ziga hos holatidir. Bu holat insonda sokinlik, hurmat, mehr, g'urur hislarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Oliyjanoblik hissi har bir insonda yoshligidan tarbiyalanib o'ziga to'g'ri baho berishga yordam beradi. Bu hislat har bir inson uchun lozim, ammo pedagog uchun bu zaruratdir. Chunki faqat oliyjanob odamgina talablarda bu hislatni uyg'otishi va rivojlantirishi mumkin. Qanday qilib o'zini hurmat qilmagan inson boshqalarga o'zini hurmat qilishni o'rgatish mumkin.

Faqat ichki uyg'onlikka ega bo'lgan insongina boshqalar hayotga ham uyg'unlik kiritishi mumkin. Oliyjanob inson boshqalarning muvafaqiyatidan hursand bo'ladi va mag'lubitidan aziyat chekadi. Pedagog esa talabalarining yutuqlarida hursand bo'lib qolmasdan balki lazzat ham oladi. Chunki bu yutug'da pedagogning ham kichkina ulushi bor. Mag'lubiyat bu pedagogning ham mag'lubiyatidir.

Pedagogka qo'yiladigan birinchi ahloqiy talab, bu talabaga hurmat bilan, mehr bilan qarash. Ma'naviy shakllanish talabadan ko'p kuch vako'p vaqt talab etadi. Ichki qrama – qarshiliklar talabani hulqida salbiy ko'rinishlar vujudga kelishi mumkin. Bunday hollarda murabbiy eteket chegarasi doirasida ish olib borishi mehr va toqat bilan ish yuritishi shart. Murabbiy har bir shaxsni baholashda uning jamoadagi o'rniga, o'qishdagi muvafaqiyatlariga, ota – onasining nasl nasabiga qarab emas, balki shu talabaning ichki dunyosini shakllanishi darajasiga, odamiyligiga qarab baho berishi lozim. Bu kamsitmaslik ularning tarbiyasi ustida ish olib borayotgan davrda nuqsonlarni yo'qotishga harakat qilish va hurmat bilan qarashi zarur.

Pedagogning talabalarga bo'lgan nisbatan bo'lgan munosabati mehr, hayri ho hlik va yordamida iborat bo'lishi kerak. Ma'lumki rivojlanish uchun yordam berish murakkab jarayon bo'lib, talabalar olidag qo'yib o'zi chetda qarab turishi va faqat shu talablar qanday bajarilayotganligini kuzatib borishi yetarli degan hulosaga kelgan pedagoglar katta hatoga yo'l qo'yadilar. Talabni qo'yish qiyin emas, lekin uni bajararilishiga erishish qiyin shuning uchun talablariga to'liq javob olgan pedagoggina o'z kasbining ustasidir deb tan olish kerak. yaxshi pedagog har bir talabga individual yondoshib, uning talablariga javob berishida qanday qiyinchiliklar vujudga kelayotganini, uni nima qiynayotganini sinchiklab o'rganishi lozim. Talabaga bu jarayonda hayri ho hlik bilan yordam qo'lini cho'zishi kerak.⁵

⁵ Mahkamov M. «Bo'lajak tarbiyachilarninr pedarorik muloqat madaniyatini shakllantirish» nomzodlik dissertastiyasi. T., 2005.

Pedagogning ishida muomalaning turli bosqichlarida uning emotsional kayfiyati: faoliyatga hozirlik ko'rish jarayonida, uni amalga oshirish davrida, munosabat amalga oshgandan keyingi his qilnadigan sezgilarda va kechinmalarda muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa biz kasbiy pedagogik munosabatni amalga oshirish uchun juda muhim bo'lgan pedagogning psixik holatlari va ularni faoliyati hamda munosabati jarayonida boshqarish muommasiga yaqinlashib kelayapmiz.

Kasbiy pedagogik munosabat jarayonida ijobiy kayfiyatni boshqarish muammolari nihoyatda muhimdir. Darsaga bo'lgan

psixologik rag'bat, guruh bilan bo'ladigan munosabatga rag'bat, o'zaro fikr almashish ilhomi degan ilhomning vujudga kelishi va amalga oshirilishi murakkab jarayondir. Dastlab pedagogning mustaqil psiologik yo'l tutishi asosida, uning pedagogik ishga munosabati uni jalb qiladigan bo'lajak faoliyati materialiga munosabati natijasida, talabalar bilan bo'ladigan munosabatidan qoniqishini oldindan his qilish asosida vujudga keladigan ilhom guruh bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilish paytida huddi ana shu bevosita aloqaga muhtoj bo'ladi, bevosita muomala asosida rivojlanadi va mustahkamlanadi.

Pedagogning talabalar bilan munosabati ijodiy kayfiyati pedagogning ijodiy individualligining o'ziga hosligi, talabalar jamoasining xususiyatlari, faoliyat sharoitlari va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali jarayondir. Pedagogning munosabatidagi kayfiyati pedagogik ta'sir ko'rastishning ob'ektlari – sub'ektlari bo'lgan talabalarning ijodiy kayfiyati bilan ko'p jihatdan bog'liqdir. Buning ustiga pedagogning mustaqil psixologik yo'l tutishi asosida vujudga keladigan ijodiy kayfiyat uning guruh bilan uzviy hamkorligi paytida aynan talabalar bilan bo'ladigan munosabatga bog'liqdir.

Talabalar bilan bo'ladigan munosabat oldidan pedagogning ijodiy kayfiyatini hosil qilishda uning o'quv materialiga o'z hissiy munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini oldindan topishga intilishi muhim rol o'ynaydi: bular tegishli imo – ishoralar, yuz harakatlari, gapirish ohangidir. O'quv materialiga o'z munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini o'ylab olish, tabiiyki, darsga, tadbirga shunday psiologik tayyorgarlik ko'rishga tayanadiki, uning tarkibiy qismlari sanab o'tilgan. Darsda tadbirlarda o'z fikrlari, his – tuyg'ularini qanday qilib ya hshiroq va yorqinroq gavalantirish ustida mulohaza yuritir ekan, pedagog bo'lajak faoliyat vaziyatga kirib boradi, unga chog'lanadi, uning shakllarini his qiladi, faoliyatga bo'lgan o'zining hissiy munosabatini yetkazish vositalarini izlaydi.

Tarbiyalanuvchilar bilan muomalada kishi o'zini boshqara bilishi nihoyatda zarurdir. Pedagogning darsdagi yomon, noijodiy kayfiyati darhol umuman guruhning ijodiy kayfiyatiga ta'sir qiladi, biragalikdagi faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Ijodiy kayfiyatini boshqarishining taklif etilgan tizimi individual o'zlashtirishni, o'z ustida muntazam o'ynaltirilgan ish olib borishni talab qiladi.

Tarbiyalanuvchilar bilan muomala jarayonida va bevosita undan oldin ijodiy kayfiyatni boshqarish – pedagog mehnatining eng muhim kasbkorlik talabi bo'lib, u pedagogning guruhda, tarbiyalanuvchilar bilan muomalada va shu kabilarda erkin bo'lishni, xulq – atvorning samarli bo'lishni ta'minlaydi. Pedagogik ijodkorlikning asosiy bosqichlariga nisbatan pedagogning ijodiy kayfiyatiga muomala ta'sirining qo'ydagi jixatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

-pedagogning guruhdagi muomalasini oldindan payqashi uning ijodiy kayfiyatini safarbar qiluvchi omil ekanligi;

-guruh bilan dastlabki aloqa bevosita muomala paytida pedagog ijodiy kayfiyatining rag'batlantiruvchi omili sifatida;

-pedagogning guruh bilan muomalasi tizimi: u faoliyat jarayonida pedagogning ijodiy kayfiyatini rivojlantirishni qo'llab – quvvatlaydi va rag'batlantiradi;

-muomaladan qanoat hosil qilish shundan keyingi faoliyatda pedagogning ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil sifatida.

Pedagogning muomala jarayoni o'zida kechadigan bir qancha shart –sharoitlar bilan murakkablashadi. Muomala shart – sharoitlari muomala xarakteriga ancha ta'sir qiladi, aslida ular muomalaning kasbiy yo'nalishini ko'p jihatidan belgilab beradi. Muomalaning oshkoralik vaziyat ko'pgina qiyinchiliklar tro'g'diradi. Tadqiqotchilar qayd etib o'tganlaridek, kishilar oldida, katta auditoriya oldida muomala qilish auditoriyaning gapiruvchiga diqqat qilishga muljallanganbo'lib boshlovchilar uchun nihoyatda murakkabdir va maxsus tayyorgarlik ko'rmasdan o'tkazilishi mumkin emas. Faqat o'zaro fikr almashish malaka va usullarini egallashgina muomala jarayonida pedagogning hissiy kayfiyatini ta'minlaydi.⁶

Pedagogning ijodiy kayfiyatini boshqarishning alohida muhim muomalasi bunday kayfiyatni bevosita faoliyat oldidan chiqarish va safarbar qilish noijodiy kayfiyatni yengish hisoblanadi va hakozi.

Pedagogning ijodkorligida «jismoniy harakatlar» usulini ro'yobga chiqarishning o'ziga xosligi shundan iboratki, u pedagogga faqat bevosita ijodkorlik boshlanishidan oldin o'zining ijodiy tabiyyatini safarbar qilishning vositasi sifatidagina zarurdir, keyin esa «bordi – yu» holatidagi «jismoniy harakatlar» mantiqni ijodkorlik vaziyati bilan chinakkamiga ma'naviy moyillikka sekin – asta o'sib o'tadi.

Muomalada ijodiy kayfiyatni shakllantirish murakkab jarayondir. Bu yerda ko'pincha pedagog zo'riqish tuyg'usini boshidan kechiradi, buni pedagog ijodkorligining omma o'rtasidagi faoliyat, o'zgarib boruvchi ijodkorlik holati, o'zining psixikholatlarini operativ ravishda boshqarish zarurligi, mehnatning o'zaro fikr almashish jihatdan boyligi kabi xususiyatlarini taqozo qiladi.

Pedagog talabalar bilan hamkorlikda yashar ekan o'qituvchining entelektiga qat'iy rioya qilishi kerak. Unga ishonib aytilgan talabaning (sekretini) sirini hech kimga aytmassligi, uning ustidan kulmassligi va albatta u bilan samimiy bo'lishi shart.

Pedagoglarda biz albatta oliyjanoblik hissini tarbiyalashimiz. Oliyjanoblik qalbning o'ziga hos holatidir. Bu holat insonda sokinlik, hurmat, mehr, g'urur hislarining qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Pedagogning talabalarga nisbatan bo'lgan munosabati mehr, hayrihohlik va yordamidan iborat bo'lishi kerak. Ma'lumki rivojlanish uchun yordam berish murakkab jarayon bo'lib, talabalar olidag qo'yib o'zi chetda qarab turishi va faqat shu talablar qanday bajarilayotganligini kuzatib borishi yetarli degan hulosaga kelgan pedagoglar katta hatoga yo'l qo'yadilar.

Nazorat uchun savollar.

1. Oliyjanoblik deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagog va talaba o'rtasidagi munosabatni shakllantirishda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Munosabatlar samimiy bo'lishi uchun nima qilish kerak?

⁶ A.Alieva «Bo'lajak pedarorda muomala madaniyatini shakllantirishninr o'zira xos xususiyatlari» T., 2001, maristirlik dissertastiyasi

4. Talaba va pedagog o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni qanday yuzaga keltirish mumkin?
5. Hozirgi kunda pedagog bilan talaba o'rtasida "devor" bo'lishi kerak deb o'ylaysizmi?
6. Pedagogik muomalada bir qolipdagi usullar hamisha ham ijobiy rol o'ynaydimi?
7. Talabaning shahsida shakllanishida muomalaning o'ni qanday?
8. Individual muomala uslubiga qo'yiladigan metodik talablar nimalardan iborat?

5-mavzu: Tarbiya jarayonida muomalaning tutgan o'rni

REJA:

1. Muloqot - pedagogik hamkorlik vositasi sifatida.
2. Muloqotning mohiyati va tuzilishi.
3. Pedagogik o'zaro munosabatlar mohiyati.
4. Pedagogik muloqot uslubi va uning tuzilishi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Muloqot, pedagogik muloqot, didaktika, tarbiya nazariyasi, kategoriya, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», Kadrlar tayyorlash miliy modeli, Kadrlar tayyorlash miliy modelining tarkibiy qismlari, o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar.

Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatleri bilan belgilanishini ta'kidlab o'tish lozim. Pedagogik muloqot madaniyatining har jihatdan to'g'ri tanlangan, o'qituvchining ma'naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi:

birinchidan, muloqotda har bir o'quvchiga alohida e'tibor va dildashlik, sinf jamoasi bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, o'qituvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal qiladi;

ikkinchidan, har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatni erkin muloqot asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand pedagogik va psixologik muloqot uslublarini tanlash, uning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga "kirib borish"ga yo'l ochadi;

uchinchidan, pedagogik muloqotda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo'lib, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqish hissini xotirjamligini ta'minlaydi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot madaniyati individual uslublarini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlarini o'rganishi. O'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish, har tomonlama tavsif berish, o'qituvchining muloqotni to'g'ri tashkil etishi asosida amalga oshadi.
2. Shaxsiy muloqotda ro'y beradigan kamchiliklarni aniqlash va darhol ularga barham berish choralarini izlab topish: muloqotda qo'pollik, mensimaslik va boshqa salbiy holatlarni yengish.

3. O`qituvchi o`zi uchun muloqot madaniyatining qulay bo`lgan uslublarini ishlab chiqishga doir faoliyatni ishlab chiqishi va o`z-o`zini kuzatish bilan yutuq va kamchiliklarni taqqoslash.

4. O`zining muloqot madaniyati uslublariga muvofiq keluvchi milliy an`ana va ma`naviyatimizga xos jihatlardan unumli foydalanish.

5. Muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik, bu uslubni mustahkamlash (pedagogik amaliyot va malaka oshirish jarayonida).

Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o`qituvchilar o`z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o`quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur. Ta`lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o`qituvchi va o`quvchilarning bevosita o`zaro munosabatini ma`lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo`naltiruvchi kuchdir. Bu o`rinda o`qituvchi quyidagi vaziyatlarni e`tiborga olishni alohida ta`kidlash lozim:

- o`qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o`qituvchi va o`quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so`z ohangiga e`tibor, an`anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o`zlashtirishi;

- muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, o`quvchilar hatti-harakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;

- o`z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so`z, ovozda yoqimli ohang, hulq-atvorni vujudga keltirish;

- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart- sharoitlarini bilib olishning o`zi kifoya qilmaydi, o`quvchilar bilan o`zaro muomalaning “ustoz-shogird” an`analariga xos boshlanishi va o`zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala ob`ektining diqqatini o`ziga jalb qilish;

- muloqot ob`ekti, ya`ni o`quvchining diqqatini o`ziga jalb qilish deganda nimanı anglash kerak? Buning ma`nosi o`qituvchi o`zining xushmuomalaligi, madaniyati, go`zal xulqi, muloqotda o`quvchilar qalbiga yo`l topa olishi bilan o`z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy- psixologik negizni asos qilib olishidir. Ko`rsatib o`tilgan vaziyatlar asosida pedagogik ta`sir ko`rsatish uchun, o`qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga, etikasi va odob-axloqiga, dilkashligiga, muosharat odobiga alohida talablar qo`yiladi. Ushbu fazilatlar o`qituvchining sinf jamoasida, ota-onalar bilan muloqot qila bilishida, o`quvchilar bilan aniq maqsadni ko`zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida va ularni boshqara olishida muvaffaqiyatlar garovidir. Kasbiy faoliyatning noyob fazilati bo`lmish pedagogik muloqot madaniyatiga amal qiladigan yosh o`qituvchi quyidagi xususiyatlarni o`zida mujassamlashtirishi lozim:

- mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablari va ehtiyojlariga mos bo`lgan yuksak ma`naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e`tiqod, davlatimiz ideallari, milliy g`oya va istiqloq mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoyilik tuyg`ulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs;

- o`quvchilarga samimiy mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, hatti-harakatlari motivlarini, xulq-atvorlarini tushunish ko`nikmasi va malakasining

shakllanganligi;

- jamiyatda ro'y berayotgan hodisalar, jahonda ro'y berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyatining mavjudligi;

- pedagogik faoliyatning barcha jabhalarida odamlarning hatti-harakatlari, munosabatlaridagi xususiyatlarni oqilona tushunish, o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatni tarkib toptirish;

- har qanday favqulotda vaziyatlarga, jamiyatda ro'y berayotgan yangiliklarga nisbatan hamda ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlarga omilkorlik va aql idrok bilan munosabatda bo'lish, o'z oldiga to'g'ri maqsad qo'ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z imkoniyatlarini namoyon eta olish;

- pedagogik faoliyatlarda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyish etishi;

- dunyoqarashi va tafakkur ko'lamining kengligi, dunyoviy bilimlarni bilishga nisbatan qiziqishining serqirraligi, ilmiy izlanishlarga moyilliligi, muayyan ilmiy salohiyat va pedagogik mahorat darajasini muntazam oshirib borishi;

- o'quvchilar bilan muloqotda layoqatliligi, nutq madaniyatining mantiqan ixcham, ma'noli, ta'sirchan kuchga egaligi, psixologik ta'sir o'tkazish bilan qurollanganligi.

Har bir o'qituvchi uchun o'quvchilarga to'g'ri, omilkor axborot uzatish va unga suhbatdoshini ishontira olishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi. Bunda o'qituvchining muloqot madaniyati, ma'naviy olamining kengligi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining pedagogik faoliyati uzluksizdir, shu sababli u pedagogik muloqot madaniyatini ham muntazam shakllantirib borishida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berishi lozim:

1. yuksak pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan o'z-o'zini anglashi, (muomalada o'zining o'zaro fikr almashishga doir sifatlarini, ijobiy va zaif tomonlarini bilishi) va shu asosda o'zaro fikr almashish yo'li bilan o'z-o'zini tarbiyalashi.

2. Kishilar bilan o'zaro munosabatda kommunikativ iqtidorini shakllantirib borishi, muloqot asosida to'g'ri bashorat qilish sezgilarini mashq qildirishi, muloqotda o'zining ideal tasavvurlarini, imkoniyatlarini boshqalar (o'qituvchilar jamoasi, o'quvchilar, ota-onalar) qanday baholashi haqidagi refleksiv tasavvurlarini tahlil qilishi.

3. O'zida muosharat odobining muhim xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlashi.

4. O'quvchilar va ota-onalar bilan tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan turli jamoat ishlarini olib borishi, bunda o'zaro fikr almashish asosida pedagogik tashkilotchilik qobiliyatini takomillashtirib borishi.

5. Muloqot jarayonida paydo bo'ladigan salbiy holatlarni yengish ko'nikmalarini shakllantirishi, dilkashlik va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratishi.

O'qituvchi muloqot madaniyati asosida faoliyat olib borgan taqdirda ham, o'quvchilar jamoasi orasida turli tushunmovchiliklar, ziddiyatlar paydo bo'lishi tabiiy hol. Har qanday tajribali o'qituvchining pedagogik muloqoti jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keladi. Sinfdan sodir bo'ladigan har qanday pedagogik vaziyatga

javobgar shaxs o'qituvchidir. Bu barcha davrlar pedagogik faoliyatida namoyon bo'ladigan tipik hodisa. Ayniqsa, ushbu holat endigina o'z faoliyatini boshlagan yosh o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida muammoli vaziyatlarni paydo qiladi. Yosh o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini doimiy nazorat qilish, ularga to'g'ri yo'nalish berish, barcha o'quv muassasalari pedagogik jamoatchiligiga, ustoz o'qituvchilar zimmasiga yuklatilishi lozim. Pedagogik faoliyatda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadigan o'qituvchining yoshiga va ish tajribasi ko'lamiga odatda o'quvchilar hech qachon e'tibor bermaydilar. Chunki, o'quvchilar yoshidan va tajribasidan qat'iy nazar barcha o'qituvchilarni ustoz deb ataydilar. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya va pedagogik muloqotning o'ziga xos an'analari, milliylikimizga mos shakl va metodlari mavjud. Zero, I.A.Karimov asarlarida ta'kidlanganidek, *"Mamlakatimizning istiqbol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda"*. Bu ulkan mashaqqatlar evaziga amalga oshirilib kelinayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishidir. Hozirgi zamon o'qituvchisidan, hayot sinovlariga bardoshli bo'lish, millat qadriyatlarini anglash, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topish, yuksak ma'rifatli va ulkan salohiyatli bo'lish, eng so'nggi zamonaviy texnologiyalarni mukammal bilish talab etiladi. Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlarning umumiy yo'nalishini mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish uchun, har bir muloqot ishtirokchilarining imkoniyatlarini ochishga ko'maklashuvchi uning shaxsiy hislatlarini rivojlantirib borishni ta'minlovchi vositalardan foydalanish taklif qilinadi. Muloqotga ba'zi o'quvchilarning sub'ektiv qarashlarini aniqlash, shu o'quvchi bilan muloqotni oqilona hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalarni belgilash, uning xulqini tuzatish yoki unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish kerak. Mazkur vaziyatlarda o'zaro harakatlarning tizimli vositalari majmuasi quyidagicha belgilanishi mumkin:

- muloqot jarayonida tarbiyalanuvchi ob'ektning javob harakati imkoniyatlarini oldindan ko'ra bilish;
- ob'ektda psixologik to'siq va salbiy qarashlarni keltirib chiqaruvchi vositalarni qo'lga kiritish;
- vaziyatning o'zgarishiga qarab foydalanish mumkin muloqotlarning bir nechta modeliga ega bo'lish;
- o'quvchilar jamoasi fikrlarini tinglash, ularning mulohazalariga qo'shilish, ularga hamdardlik ko'nikmasini rivojlantirib borish;
- o'zaro muloqot natijalarini baholash va erishilgan yutuqlar hamda kamchiliklarni pedagogik-psixologik vositalar asosida taqqoslash.

Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot xarakteri o'qituvchining shaxsi, uning qarashlari nuqtai nazarlarida va xulqida namoyon bo'ladigan g'oyaviy siyosiy saviyasi, professional tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan uzviy bog'liq. Bu asosiy hislatlardan tashqari o'qituvchining umumiy va boshqa qobiliyati, uning moyilligi xarakteri, muvaqqat psixik holatlari, shuningdek, to'plangan tajribasi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi shaxsining professional jihatlarini o'z-o'zini tarbiyalash yo'llaridan biri o'zining sifat va hislatlarini, shuningdek pedagogik faoliyat va muloqotlarining barqaror xususiyatlariga, o'qituvchi bilimining saviyasi va

tarbiyalanganligi natijasida erishilgan natijalarini tahlil qilishga doir mashqlarda ham namoyon bo'ladi.

Mustaqillikdan keyin amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar tufayli ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Odamlarning ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakllantirishda, intellektual jihatdan rivojlantirishda o'qituvchining muloqot madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ta'kidlash joizki, o'qituvchi kasbiga nisbatan talab va javobgarlik ham kuchaydi, ularning jamiyat oldidagi vazifalari yanada oshdi. Buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish kabi buyuk vazifalarga javobgarlik o'qituvchilar zimmasiga yuklatildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, *«Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no- mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim- tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezon bo'lishi kerak... bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma'naviy, kerak bo'lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi»*. Bu vazifalarning bajarilishiga, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lgan o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. O'quvchi ma'naviy muhitining shakllanishi o'qituvchining yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo'ladi. Bu o'rinda o'qituvchining shaxsiy va ijtimoiy harakati pedagogik muloqot madaniyati zaminida shakllanib, takomillashadi. Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega. Pedagogikaning kategoriyasi sifatida **muomala** o'quvchilar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyatidir. O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.
2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi.
3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi.
4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi.

Muomala o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada o'qituvchi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

- o`qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so`z va ohangni tanlay bilishi va ta`sir o`tkaza olishi;
- muomala ob`ekti bo`lmish o`quvchi diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o`z o`rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta`sirni bilishi;
- o`quvchining ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o`quvchilarni ta`lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi;
- o`quvchiga og`zaki, o`zaro ta`sir ko`rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. O`qituvchining nutqi ravon, o`quvchi ongiga ijobiy ta`sir qiladigan bo`lishi. Nihoyat, o`qituvchining o`quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o`quvchilarning hatti-harakatlaridagi chuqur ma`no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uning o`zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o`quvchilarning xulq-atvop usullaridan foydalanadi. O`qituvchining o`quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o`rnini to`ldiruvchi vazifasini bajaradi. Muomala o`zaro munosabatlar doirasida sodir bo`ladi. Boshqarish vositasi bo`lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo`ladi.

Pedagogik muloqot o`qituvchining pedagogik faoliyatida o`zaro axborot almashish jarayoni vazifasini bajaradi. O`qituvchi o`quvchilar bilan muloqot jarayonida bevosita o`z tarbiyalanuvchilari, umuman o`quvchilar jamoasi haqida, unda ro`y berayotgan turli ichki hodisalar haqida g`oyat xilma-xil axborotlarga ega bo`ladi va o`zining kelgusi ta`lim-tarbiyaviy rejalarini hamda pedagogik faoliyatini belgilaydi. Shu bilan birga, o`qituvchi muloqot asosida o`z tarbiyalanuvchilariga ma`lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma`lum qiladi. Bunda o`qituvchi tomonidan yo`l qo`yiladigan arzimas bir xatolik, adolatsizlik, qo`pollik o`quvchilar bilan o`zaro muloqot madaniyatining buzilishiga sabab bo`ladi va tuzatib bo`lmaydigan og`ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. O`qituvchining o`quvchilar bilan o`zaro muloqot madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo`ladi:

- pedagogik muloqot orqali o`qituvchi tarbiyalanuvchi ob`ekt bilan o`ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o`qituvchi o`zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san`ati, ta`sir o`tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;
- o`qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo`lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir;
- o`quvchilar jamoasi bilan muomalada o`qituvchining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta`lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi;
- o`qituvchi o`quvchilar jamoasi bilan o`zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo`ladi.

Mukammal shakllangan pedagogik muloqot madaniyati asosida ob`ekt va sub`ektning ichki hissiyoti bilan ular harakatlarining uyg`unlashuvi sodir bo`ladi. Ushbu o`zaro uyg`unlashuvni yuzaga keltiradigan muloqotning asosiy bog`lovchisi so`zdir. *So`z – mazmunan o`qituvchining nutqida, ma`ruzasida, dialog, monolog va deklamatsiyalarida o`z ifodasini topadi.*

Pedagogik muloqot madaniyati vositasida o`qituvchi har qanday axborotni qarab chiqar ekan, o`quvchining shaxsi va psixologik xususiyati haqidagi axborotlarning muhimligini alohida e`tiborga olishi lozim. Pedagogik muloqot madaniyati,

o'qituvchini g'oyat xilma-xil sharoit va ko'rinishlarga moslashishiga imkoniyat yaratadi. Bular sirdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmasada, o'quvchi ichki dunyosida sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlarini bilib, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Muomala madaniyati nima?
2. Muomala va munosabatning farqi nimada?
3. SHaxslararo munosabatlarning turlari haqida gapiring.
4. Millatlararo muomala madaniyati nima?
5. Milliy tarbiya nima?
6. Milliy g'oya nima?
7. Milliy dunyoqarash nima?
8. Umuminsoniy qadriyatlar.

6-mavzu: Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish

1. Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalashga qo'yilgan talablar.
2. Guruh jamoasini o'rganish va uni dasturini ishlab chiqish.
3. Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalash ishini rejalashtirish.
4. Guruh jamoasi bilan ishlash va unga rahbarlik qilish.

Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning etakchi maqsadidir.

Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi hozirgi kunda ancha to'liq va mukammal ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kursida bayon etilgan, jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish; faollarni aniqlash, o'quv mehnat, ijtimoiy siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish; sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish, va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoa (maktab, sinf jamoasi, maktabdan tashqari bolalar birlashmasi va hokazolar)ni shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma bo'lib hisoblanadi.

Bolalarning jamoa turmush, normalari va qoidalarining intizomini bo'zilishiga munosabatlarini kuzatib jamoaning tashkiliy tuzulishi ta'sirchanligi ishonch hosil qilish mumkin. Jamoa rivojlanishining dastlabki bosqichlarida bolalar tarqoq bo'lib, ularda yakdil fikr va sinf rahbari tayanishi mumkin bo'lgan ta'sirchan faollar bo'lmaydi. SHuning uchun jamoada salbiy hodisalar ochiq muxokama qilinmaydi va mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi. Agar jamoa rivojlanishning 2-chi bosqichida bo'lsa, nomigagina emas balki harakatlarini qo'llab quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo'lsa, uning ayrim o'quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar qo'yishini kuzatish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilardan biri – o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatga ishtiyoqi chiqindi qog'oz yoki metallolom to'plash, kechaga tayyorgarlik ko'rish kabi maktab tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko'zga tashlanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda

o'quvchilarning faqat sinfdan tashqari faoliyatida namoyon bo'ladigan munosabatlarni tahlil etish bilangina cheklanib bo'lmaydi.

Sinf rahbari ishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakllantiradi. O'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. SHuning uchun sinf rahbari dastavval bolalarning o'qishga qanday munosabatda ekanliklarni, o'zlarini darsda qanday tutishlarni, o'zlarini darsda qanday tutishlarni, uy vazifalarni sidqidildan bajarishlarni yoki bajarmasliklarni aniqlaydi. Va nihoyat eng muhimi – ularning o'qishdagi muljallari ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi.

O'quvchilar o'rtasida salbiy holatlar ro'y bermasligi uchun jamoaning rivojlanish usulini aniqlab olishimiz kerak buning eng ishonchli usuli – o'quvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashqarida o'zaro faol hamkorlik qilish jarayonida ko'zatishtan iboratdir. Maxsus diagnostik usullar. Masalan: anketa, tarqatish, pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirish, boshqalardan ham foydalanish mumkin.

Lekin, bu usullar guruhni juda ehtiyotkorlik bilan katta pedagogik odobi bilan qo'llash lozim. O'quvchilarni o'rganishning har bir usuli ayni vaqtda tarbiya usuli ham ekanligi o'qituvchilar uchun qonun bo'lishi kerak.

Jamoadan shaxsni yakka tartibda tarbiyalashda maktab o'quvchisini o'z-o'zini tarbiyalashga jalb etish, uni tegishli malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga bo'yini yor bermaydigan tarbiyasi qiyin bolalar – bu albatta, yomon o'zlashtiruvchilar emas, holbuki ular orasida odatda ular ko'pchiligi ana shunday bolalardir. Zamonaviy sinf rahbar o'quvchidan yomon xulq atvorining, past o'zlashtirishning sabablarini puxta o'rganadi. Bunda o'quvchining sinfdoshlari bilan munosabatlari, bu munosabatlarning ma'naviy asoslari eng muhim masalalardan biridir. Jamoa munosabatlari – dastavval muayyan maqsadlarga asoslangan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlar yo'naltirib turadigan o'zaro ma'suliyatli munosabatlardir.

Sinf o'quvchilari ko'p bo'lgan sharoitda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, har bir bola qalbiga to'g'ri yo'l topish juda qiyin. Agar o'quvchilar jamoasi qo'llab quvvatlasa, har xolda bunday yo'lni topish mumkin.

Jamoadan shaxsni tarbiyalashda yakka tartibdagi yondashuvning mohiyati alohida o'quvchini jamoa faoliyatidan jalb etishdan jamoani esa mazkur o'quvchi bilan qiziqtirib qo'yishdan ham iboratdir. Har qanday jamoadan tarbiyasi qiyin bolalar bo'ladi, lekin «ajratib qo'yilgan» bolalar bo'lmaydi.

O'quvchilarning xulq atvori, o'quvchining muntazam o'rganishni o'z oldiga maxsus maqsad qilib qo'ymasa uning uchun sezilmagan tarzda o'zgarishi mumkin. Bunday o'rganish yakka tartibda ishni tashkil etishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Jamoani shakllantirish, yuzasidan olib boriladigan ish albatta ayrim o'quvchilarning rivojlanishga ta'sir etadi va shuning uchun ham bu jarayon stixiyali emas, balki maqsadga qaratilgan va boshqariladigan bo'lishi kerak.

Sinf rahbari o'quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda bo'ladi. Ota-onalarga pedagogik bilim berishni uyushtirishda sinf rahbariga muayyan tarzda yordam beradigan asosiy manba «Ota-onalarga pedagogik bilim berishning namunaviy dasturi»dir. Mazkur dastur o'quvchilarning ota-onalari bilan xilma-xil mashg'ulotlarni birga qo'shib olib borishni ko'zga tutadi.

Dasturda o'quv yili mobaynida ikkita umumta'lim mashg'ulotni va har bir sinf ota-onalari uchun 6 tadan 9 tagacha mashg'ulot o'tkazish ko'zda tutilgan. Mashg'ulotlar shunday tarzda quriladiki, ota-onalar pedagogika, psixologiya va fiziologiya asoslari izchil kursini o'zlashtirib, farzandlari bilan sinfdan-sinfga o'tgandek bo'lishadi. Kurs bolalarning yosh xususiyatlariga muvofiq va ta'limining har bir yildagi ta'lim-tarbiya vazifalarini hisobga olib qurilgan.

Ota-onalarning yuksak ta'limiy va madaniy darajasi pedagogik va psixologik ta'sir etish sifatini oshirish uchun ular bilan bevosita muomalada, o'qituvchilarning bu yo'nalishidagi ijodiy jamoa ishida o'rganish mumkin.

Ota-onalar bilan ish olib borishning an'anaviy tarkib topgan shakl bu ota-onalar yig'ilishlaridir. Ota-onalar majlislari turli xil ko'rinishda bo'ladi:

1) Tashkiliy yig'ilishlar ota-onalar komiteti saylanadi. Bunda asosan jamoatchi o'qimishli kishilar (hisoblanadi) saylanadi.

2) CHorakdagi yakunlovchi sinf majlislari ota-onalarning e'tiborini o'quvchilarning bilishga doir qiziqishlari, axloqiy qobiliyatlari, irodali fazilatlari, rivojlantirishdagi yutuqlari, kamchiliklari, foydalanilmagan imkoniyatlarga qaratish maqsadini ko'zda tutadi. Agar har bir ota-onalardan keyin o'z bolasiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish sistemasiga to'zatishtirish kiritishning asosiy yo'llarini aniq tasavvur etsagina, sinf rahbari o'tkazilgan majlislardan qanoat hosil qilishi mumkin.

3) Biror mavzuga bag'ishlangan yig'ilishlar, tarbiyaning eng dolzarb muammoalari yuzasidan o'tkaziladi.

Agar maktab sinf rahbarlari orqali ota-onalarga ularning pedagogik bilimini oshirishda yordam berar ekan o'z navbatida ota-onalar ham maktabga bolalarni tarbiyalashni tashkil etish ishda har tomonlama yordam berishlari mumkin va lozim.

Sinf rahbarining ota-onalar komiteti bilan mohirona, yaxshi uyushtirilgan va yo'lga qo'yilgan ishi, bolalar bilan olib boriladigan butun tarbiyaviy ishlarning muvafaqqiyatli bo'lishiga garov hisoblanadi. Tashabbuskor, ijodiy ishlaydigan ota-onalar komiteti sinf rahbariga, sinf jamoasini tashkil qilishdagi bebaho yordamchisidir.

Yakka tartibdagi pedagogik suhbat sinf rahbarining o'quvchilar ota-onalari bilan olib boriladigan ishining eng ommalashgan qulay va samarali shakli hisoblanadi.

Suhbat yordamida vujudga keladigan masalalarni tez hal etish, ota-onalar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish, o'quvchilar oilaviy tarbiya sharoitlari haqida qo'shimcha ma'lumotlar olish, ota-onalarga pedagogik bilim berish, bolaning yakka tartibdagi rivojlanish dasturini birgalikdagi pedagogik xarakatlar sistemasini ishlab chiqish, ota-onalarning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishlarini va tarbiyasi qiyin bola hulqini tuzatish va o'quvchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal etish, kabi keng ko'lamdagi ta'lim-tarbiya vazifalari hal qilinadi.

O'qituvchilar u yoqi bu o'qituvchining biror o'quvchi uning darsida intizomni buzganligi xususidagi shikoyatga javoban ota-onani maktabga chaqirtiradilar. Sinf rahbari hamma narsani sinchiklab o'rganib chiqishi kerak. Ba'zan o'quvchilarning darsda yomon ishlashga, gap qaytarishga va hakovzolarga o'qituvchining o'zlari aybdor bo'ladilar. Bunday holda o'qituvchida pedagogik odobning yo'qligi yoki uning darsdan, sinfdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonini yomon tashkil etganligi uchun ma'suliyatni o'qituvchi va ota-onalarga ag'darish noto'g'ri bo'lur edi. Agar o'quvchi bir muncha tarbiyasiz intizomsiz bo'lsa ham sinf rahbari ota-onalarga faqat uning

kamchiliklari haqida gapirmasligi kerak. Bu ularning yoqimsiz bo‘lib, ular va pedagog o‘rtasida ishonchli munosabatlar o‘rnatishiga yordam bermaydi.

Har bir ota-ona o‘z farzandini yaxshi ko‘radi, shuning uchun ular, o‘z farzandida hosil bo‘lgan yangi, ijobiy kurtaklar xususida quvonchni o‘rtoqlashadigan va bolalarning xulqidagi ijobiy jihatlarni mustahkamlash yuzasidan ehtimol tutilgan, birgalikdagi harakatlar xususida maslahatlashishni muhim deb hisoblaydigan sinf rahbariga samimiy hurmat va ishonch bilan qaraydilar. Bunday sharoitda ota yoki ona juda hayrixoh bo‘ladi va sinf rahbari bilan bajonidil aloqa bog‘laydi.

Sinf rahbarining o‘quvchilar oilalarida bo‘lishi maktab va oila o‘zaro hamkorlikning muhim shakli hisoblanadi. Oilada bo‘lishning maqsadini aniq vaziyat belgilab beradi. Sinf rahbari nima maqsadda oilaga berishga muvofiq tarzda unga oldindan tayyorgarlik qo‘radi (O‘qituvchilar bilan maslahatlashadi, o‘quvchining o‘zlashtirishi xulqini aniqlaydi, avvalgi borishi natijalari to‘g‘risidagi mavzularni ko‘rib chiqadi, suhbat mazmunini va shaklini belgilaydi, muhokama qilish ota-onalar bilan kelishish uchun masalalarni tanlaydi, yaqin kelajak uchun ota-onalarning tarbiyaviy vazifalarni, tavsiyanomalarni va hakazolarni belgilab oladi).

Oilada bo‘lganda faqat maslahatchi bo‘lib qolmasdan, o‘zi ham ota-onalarning fikri va takliflariga quloq solishlari kerak, chunki ular farzandlarining muvofaqqiyatidan bizga nisbatan kam manfatdor emaslar. YUqori sinf o‘qituvchilarining oilalariga borishni zarur deb hisoblaydigan sinf rahbari nohaqdir. YUqori sinf o‘qituvchilari oldida kasb tanlash mummosi turadi, ota-onalar esa bunga o‘z farzandlarining u yoki bu faoliyatiga qiziqishi va qobiliyatini inkor etib, o‘z hayotiy tajribalari asosida yondoshadilar. Bu jihatdan sinf rahbari tamonidan odob bilan yordam berishi zarurligi ravshandir.

Nobop oilalar bilan ishlash sinf rahbari uchun alohida qiyinchilik tug‘diradi. Odatda bola oilaviy notinchlikning qurboni bo‘ladi, binobarin uni pedagogikaga zid oilaviy munosabatlardan asrash – maktabning vazifasidir.

Jamoatchi va bilimli sinf rahbari har qanday vaziyatdan juda ustalik bilan chiqib ketadi va har tomonlama rivojlangan sinf jamoasini tashkil qiladi.

Maktab, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta’sirini muvofiqlashtirishda – oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta’sir ko‘rsatishga qodir va odatda ta’sir ko‘rsatadi,

Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqiyosi uning mafkuraviy va psixologik ta’sir ko‘rsatishining chuqur o‘ziga xosligi bilan uyg‘unlashib ketadi. Bu esa uni oila darajasida ta’sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shahsiy tiklantirish jarayoninig zarur bo‘g‘iniga aylantiradi.

Maktablar tajribasida faoliyat odatda ommaviy jamoa, guruh va individual shakllarda tashkil etiladi. Tabiyki individual shakllar muammolash nazarda tutmaydi.

Faoliyatni tashkil etishning ommaviy shakllari ham (ya’ni ularda o‘quvchilarning muayyan guruhlari ishtirok etadi), o‘z mohiyatiga ko‘ra uni amalga oshirish jarayonida faoliyat maqsadiga (masalan, leksiya, konsert va hokazo) erishish uchun qatnashchilarning o‘zaro muammosini nazarda tutmaydi.

Jamoa tashkil etishning samarali shakllaridan biri guruhiiy ishdur bunda mazkur ish bolalarning tarkib jihatdan (eng ko‘pi bilan besh kishi) guruhlarda amalga

oshiriladi. SHunday kichik guruhlarda barcha a'zolar bir-birlari bilan bevosita muomilada bo'ladilar va bir-birlariga bevosita ta'sir ko'rsatadilar.

O'qituvchilar guruhlarda muammolarning o'ziga xos husuiyatini o'rganish uning guruhlarini o'quvchilar muomalasini tashkil etishning samarali shakliga aylantiriladigan xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Maktablarda guruhiy ishlarni tashkil etishning turli usullari qo'llaniladi: bir xil ishlar: unda jamoani tashkil etgan barcha guruhlar bir xil topshiriqlarni bajaradilar; tabaqalashtirilgan guruhiy ishlar; unda guruhlar individual topshiriq oladilar. Tashkil etishning guruhiy shakllari amalda o'quvchilar faoliyatining barcha sohalarida qo'llaniladi. Masalan: sinfdagi darsdan tashqari bilish faoliyatida «topilgan va topilmagan sirlar kechasi» o'tkaziladi. Sinf bir necha guruhga bo'linadi, ulardan har biri o'z «siri»ni belgilab va uni sinfga taqdim etadi. Darsda bilish faoliyatini masalan 8-sinfdagi tarix darsida o'quvchilar guruhlariga bo'linadilar, ularning har biri topshiriq oladi. Guruhlarning vakillari topshiriqlarning bajarilish yakunlarini butun sinfga ma'lum qiladilar, sinf ular muhokama qilib, tuzatishlar kiritadi.

Jamoa tashkil etganda o'quvchilar muhitida mavjud bo'lgan haqiqiy guruhlarini tutish, bir-biriga va o'zaro do'stlashadigan bolalarni birlashtirish zarur. Pedagog bu guruhlarini xususiyatlarini ularning yo'nalishi, qiziqishlari, malakasini bilishlari hisobga olish va foydalanish kerak. Jamoa ishni tashkil etishda va amalga oshirishda vazifalarni taqsimlash vaqtida mazkur xususiyatlarni hisobga olish ishining samaradorligini oshiradi. Ikkinchi tomondan bu hol guruhdagi muammolarni jamoaning qiziqishlari sohasiga va jamoaning qiziqishlarini guruhdagi muomila sohasiga olib kiradi.

Jamoa faoliyatini tashkil etishda o'qituvchilarning shaxslararo real mavjud bo'lgan aloqalarni hisobga olish ikki xil maqsadga erishish: guruh a'zolarini jamoa hayotiga jalb qilish va ular o'rtasiga muomalaga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

2-2. SHaxsga jamoaviy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish

O'qituvchi faoliyatida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi. Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq uni yaratish metodikasi asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniyat faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi.

Tarbiya metodlarini tanlashda ularning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffakiyatining muhim sharti hisoblanadi. SHuning uchun har bir o'qituvchi tarbiyaviy ishni sinfdan jamoa munosabatlarining rivojlanishi darajasini aniqlashdan boshlaydi. O'qituvchining esa yangi sinf bilan ko'p marta ish boshlashiga to'g'ri keladi: o'z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, sinfni navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba'zan esa maktabda vujudga kelgan vaziyat taqozo bilan sinf rahbari o'zining metodlari jamoaning rivojlanishiga to'sqinlik qilmasligi uchun shundan keyingi ishlari davomida vaqti-vaqti bilan jamoaning rivojlanishi darajasini aniqlab turadi.

Nazariyada jamoa rivojlanishning uch yoki to'rtta darajasi ajratib ko'rsatiladi.

Boshlang'ich daraja pedagogning kuch-g'ayrati natijasida sinfda o'rnatilgan muayyan darajadagi tartib, intizom bilan, o'quvchilarning unga katta bo'lmagan qismi

sinf rahbarining harakatlarini qo'llab-quvvatlashi bilan izohlanadi. Tarbiya jarayoniga o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o'quvchilar va umuman jamoa o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va tashkil etadi, o'ziga va bir-biriga talablar qo'yadi va o'z-o'zini nazorat qiladi. Sinf rahbari va o'quvchilar jamoasi o'y-niyatlari va ishlarida birgadirlar.

Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yo'l uzoq bo'lib, muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar yuzasidan juda qiziqarlidir. Bu sinf rahbarining asosiy ishidir. Umuman maktab o'quvchisi tarbiyasining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o'tishiga bog'liq bo'ladi. Agar o'quvchilar jamoasi tashkil etilmagan bo'lsa, o'quvchi maktabni hech afsuslanmay tark etadi, hatto keyinchalik maktab yillarini eslamaydi ham. O'quvchilarni inoq jamoaga birlashtirish mohir sinf rahbari qo'lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulg'ayayotgan kishining hyotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo'lini belgilashda o'z vazifasini anglash sinf rahbarining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boriladigan faol va qat'iy faoliyatning zarur sharti hisoblanadi.

Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi. Uning mohiyati u yoki bu rivojlanish darajasidagi jamoa normativ ta'rifini aniq jamoa ta'rif bilan taqqoslashdan iboratdir. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadning, pedagoglar bilan o'quvchilarning birgalikdagi har tomonlama sobitqadam faoliyatining, o'zaro ma'suliyatli munosabatlarning mavjudligi: o'z-o'zini boshqarish organlarining faoliyati va h.k.

Bolalarning jamoa turkum normalari va qoidalarining, intizomning buzilishga munosabatlarini kuzatib, jamoasining tashkiliy tuzilishi ta'sirchanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Jamoa rivojlanishining dastlabki boskichida bolalar tarqoq bo'lib, ularda yakdil va sinf rahbari tayanishi mumkin bo'lgan ta'sirchan faollar bo'lmaydi. SHuning uchun bunday jamoada salbiy hodisalar ochiq muhokama qilinmaydi, mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi va hakoza.

Agar jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichida bo'lsa, nomigagina emas, balki pedagogning harakatlarini qo'llab-quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo'lsa, uning ayrim o'quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar qo'yishni kuzatish mumkin.

Jamoa rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilaridan biri – o'quvchilarning birgalidagi faoliyatiga ishtiyoqi chiqindi qog'oz yoki metallom to'plash, kechaga tayyorgarlik ko'rish kabi maktab tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko'zga tashlanadi. Sinf rahbari jamoaning rivojlanish darajasini belgilash uchun bolalarda ularning hozirgi va bo'lajak hayotlarida ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlari mavjudligini bilish muhim, ya'ni jamoaning hayotiy faoliyati istiqbollari barcha yoki yarim o'quvchilar qabul qilishni va bu istiqbollarning xususiyati qandayligini bilib olish zarur. Agar bo'lajak shanbalik yoki bayram kechasi bolalar uchun faoliyatga undovchi bo'lsa va bo'ya kun istiqbol faqat ayrim o'quvchilar uchun ahamiyatli bo'lsa, jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi haqida gapirish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o'quvchilarning faqat sinfdan tashqari faoliyatida namoyon bo'ladigan munosabatlarni tahlil etish bilangina

cheklanib bo'lmaydi. Sinf rahbari ishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakllantiradi. O'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. SHuning uchun sinf rahbari dastavval bolalarning o'qishga qanday munosabatda ekanliklarini o'zlarini darsda qanday tutishlarini, uy vazfalarini sidqidildan bajarishlari yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat, eng muhimi – ularning o'qishdagi mo'ljallari nimalardan iborat, bu mo'ljallar ijtimoiy mohiyatga molik yoki emasligi hisoblanadi.

Pedagog sinf bilan ishlashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Sinfda haqiqiy jamoa munosabatlari bo'lmashligi mumkin, bunda o'qituvchi ishni boshidan boshlashga to'g'ri keladi. Ko'pincha bunday holat yangi shakllangan, «yig'ma» sinflarda, yangi qurilgan maktablarda bo'lishi mumkin. To'g'ri boshqa hollarda ham shunday bo'lishi, avvalgi sinf rahbarining kuch-g'ayrati muvaffaqiyat keltirmagan bo'lishi, tarkibi o'zgarmagan jamoa VII-VIII cinflarda ham shakllanmasligi mumkin.

Ikkinchi tomondan sinf rahbari sinf bilan ishlar ekan, har doim jamoa rivojlanishning boshlang'ich davri bilan ish ko'radi, deb mo'ljallab bo'lmaydi. Boshlang'ich maktabdayok (I-IV sinflarda) ko'pincha yaxshi sinf jamoalari shakllanadi. O'qituvchi bunday holda jamoa faoliyatining avvalgi tajribasini tahlil etadi va uning ancha yuqori rivojlanish darajasiga mos keladigan tarbiya metodlarini qo'llaydi.

Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning roli va ahamiyati.

Odam bolasining rivojlanishi bu muhim jarayon sanaladi. Bizga ma'lumki, hyoti davomida inson jismoniy va psixik tomonidan o'zgarib boradi, lekin bolalik va o'smirlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola manba shu yillarda ham jismoniy, ham psixik jihatdan o'sishi o'zgarishi shaxs sifatida kamolga etadi. Bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar sistemasida o'ziga munosib o'rin egallaydi. SHaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va behato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasiga, turli munosabatlar doirasiga, turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlarini ro'yobga chiqadi. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal qilish uchun uning xulqiga, ta'sir etuvchi omillarni, bu omillarning tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmoq kerak.

Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvori shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir etadi: biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta'sir etadi.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Farobiy, Abu Ali Ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berib kelganlar Farobiy inson kamolotida ta'lim tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: «munosib inson» bo'lishi uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olim imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqotda ahloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yashirishga olib boradigan yo'ldir deydi. Abu Ali Ibn Sino etika va ahloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda yoritib berishda yordam berdi. U ayniqsa oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa oila baxtli bo'ladi degan fikrni ilgari suradi.

Bola shaxsining rivojlanishga, kamol topishga irsiyat, muhit va tarbiya kabi (ta'sirlar) omillar ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishga naslning ta'siri rivojlanishga naslning ta'siri deganda, ota-onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarni takrorlanishini tushunmoq kerak, har bir bolaga ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochning, ko'zning, terisining rangi, buy-basti va boshqalar) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. Bularning barchasi jismoniy xususiyatlarga kiradi. Bulardan tashqari oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tug'ma o'tadi. Bu esa fiziologik xususiyat hisoblanadi.

Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan yana biri bu muhitdir.

Muhit deganda kishiga hayajonli ta'sir etadigan tashqi voqealar majmuasi tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti kiradi. SHular bilan birga muhit-oila sharoiti ham katta ta'sir kuchiga ega. CHunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindosh urug'ini ko'radi. Bola kamolotida ijtimoiy muhit bo'lib hisoblanadi. CHunki bu erda ishlab chiqish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar alohida ta'sir qiladi. Bu xil munosabat natijasida odam bolasi hyotga va tajriba va bilimlarini egallaydi. Inson kamolotida ijtimoiy muhitning ta'siri turli tarixiy davrda turlicha bo'ladi, turli sotsial guruhlariga ham turlicha ta'sir etadi.

Bizga ma'lumki komil inson shaxsni tarbiyalashda yuqoridagi omillardan tashqari yana bir omil ya'ni jamoaning roli ham katta hisoblanadi. CHunki jamoa har qanday bola tarbiyasini to'g'ri yo'lga soladi. Masalan, sinf jamoasini oladigan bo'lsak, agar shu sinfda bir yomon ya'ni xulqi, tarbiyasi jihatdan yomon bulsa, shu sinf jamoasi uni asta-sekinlik bilan o'z ta'sirini albatta o'tkazadi. YA'ni qanday yo'llar bilan degan savol tug'ilish mumkin.

Masalan, tadbirlar yoki sayohatlar orqali. Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning ahamiyati juda katta. Azal-azaldan bizgacha ota-bobolarimizdan qolgan o'lmas maqollarimizdan birini shu o'rinda keltirib o'tmoqchiman; «Aqlni beaqldan o'rgan», ushbu maqol zahirida bir qancha ma'nolar bor. YA'ni jamoada har xil bolalar bo'lib, ular bir-biriga qarab ham o'zlaridagi yomon xulqlarni yuqotadilar. Bu xislatlar esa ularning komil inson bo'lib tayyorlanayotganidan darak beradi.

3. O'quvchilarni tarbiyalashda jamoaning roli.Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun qoidalari bo'lganidek, bola tarbiyasining ham o'ziga xos bpr qator muhim qonun-qoidalari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'ulishini ta'minlaydi, chunonchi,

- tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan, O'zbekistonimizning mustaqilligi, gullab yashnashi yo'lida qilinayotgan fidoiy ishlar bilan bog'lanishi;
- o'quvchini jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
- tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
- tarbiyada o'quvchilarning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Quyida tarbiya jarayonining qonun-qoidalarini ko'rib chiqamiz:

1. Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi. Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi.

Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama kamol topgan-mukammal inson shaxsini tarbiyalashdir.

O'qituvchilar jamoasi va har bir o'qituvchi-tarbiyachi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning, vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda maktab ish sharoitlarini hisobga olgan holda o'quvchilarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

2. Tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi qoidasi tarbiyaviy ishlarning mazmuni va tashkil etilishini doimo yangilab turishini talab etadi. Tarbiyachilar bolalar tarbiyasini hayot bilan bog'lar ekanlar, ularga o'zlarida iymon-e'tiqodni tarbiyalash imkonini beradilar. Tarbiyaviy ishlar shunday tashkil qilinganda yoshlar jamiyat hayotiga faolrok; jalb qilinadi, bu esa o'quvchi shaxsining tarkib topishiga yordam beradi.

Ilg'or o'qituvchilar tajribasining ko'rsatishicha, o'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushgandagina tarbiya ishlarini faol o'quvchilarga tayanmog'i, o'quvchilarni turli ishlarni birgalikda bajarishga odatlantirib, ularga jamoatchilik ruhini shngdirib borishi lozim.

Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash-tarbiyaning etakchi tamoyillari hisoblanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish usuli ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat:

1. Talablar qo'yish;
2. Faollarni tarbiyalash;
3. O'quv mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarini tashkil etish;
4. Sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish;
5. Ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

YUqorida ta'riflangan barcha qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi.

Tarbiya usullarini tanlashda ularni jamoaning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffaqiyatning muhim sharti hisoblanadi. SHuning uchun har bir o'qituvchi tarbiyaviy ishni sinfdagi jamoa muvaffaqiyatning munosabatlarini rivojlanishi darajasini aniqlashdan boshlaydi. o'qituvchining esa yangi sinf bilan kun marta ish boshlanishiga to'g'ri keladi: o'z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, sinfni navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba'zan esa maktabda vujudga kelgan vaziyat taqozosi bilan.

Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o'quvchilar va umuman jamoa o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va umuman jamoani tashkil etadi, o'ziga va bir-biriga talablar qo'yadi va o'z-o'zini nazorat qiladi.

Sinf rahbari va o'quvchilar jamoasi o'z niyatlari va ishlarida birgadirlar. Jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar juda qiziqarli bo'lib, bu ish sinf rahbarining asosiy ishi bo'lib hisoblanadi. O'quvchilarni inoq jamoaga birlashtirgan mohir sinf rahbari qo'lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulayayotgan kishi, shaxsning hayotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo'lini belgilashda o'z vazifasini anglash siif rahbarining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boradigan faol va qat'iy faoliyatning zarur sharti hisoblanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o'quvchilarning faqat sinfdan tashqari faoliyatida namoyon bo'ladigan munosabatlarini tahlil etish bilangina cheklanib bo'lmaydi. Sinf rahbarinnng o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o'quvchilar

jamoasini shakllantiradi. O'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. SHuning uchun sinf rahbari dastavval: bolalarning o'qishga qanday munosabatda ekanliklarini, o'zlarini darsda qanday tutishlarini, uy vazifalarini sidqidildan bajarishlari yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat, eng muhimi ularning o'qishdagi mo'ljallari nimalardan iborat, bu mo'ljallar ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashning eng ishonchli usuli – o'quvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashqarida, maktabda, maktabdan tashqarida o'zaro faol hamkorlik qilish darajasida kuzatishdan iboratdir. O'qituvchi jamoaning kuchli va zaif tamoyillarini aniqlash uchun pedagogik vaziyatlar vujudga keltirishni qo'llaydi. Lekin bunda shuni esda tutish kerakki, o'quvchi kamchiliklarini hamma o'rtasida yorqin namoyish uni ma'naviy halok etishi, qalbini jarohatlashi mumkin.

SHunday vaziyatlarni vujudga keltirish kerakki, ular salbiy tomonlarni emas, har bir bolada odatdagi sharoitda boshqalardan yashiringan ijobiy tomonlarini ham ochib bersin. Sinf rahbari jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasiga qarab tarbiya usullarini tanlaydi. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish qo'shimcha shart hisoblanadi. Bu xaqda gapirmasa ham bo'lardi, chunki bu shart pedagogik tamoyillardan biridir. SHu bilan birga ishni endi boshlagan o'qituvchi, ayniqsa sinf rahbari tarbiya usullarini emas, balki shakllarini tanlashda o'z tarbiyalanuvchilari yoshini hisobga olishi muhimdir. Bunda bir hil usullar talablar, topshiriqlar va hokazolar turlicha izohlanadi. Ta'lim jarayonida jamoa munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari sinf rahbarining katta e'tibor berishini talab etadi. Jamoa faoliyatida ko'proq muomala qilishga bo'lgan ehtiyoj yotadi. Darslarda bu ehtiyoj kam qondiriladi. Agar darsdagi muomalaga bo'lgan ehtiyoj to'g'ri tushunilsa, uning negizida o'quvchilarning o'zaro yordami, darslarga birgalikda foydali tayyorgarlik ko'rish, kiziqishlar buyicha mashg'ulotlar tashkil etiladi. Ta'lim jarayonidagi jamoatchilik tuyg'usi ana shu, ya'ni birgalikdagi mehnat bolalarda katta qoniqish hosil qilish ijobiy kechinmadan boshlanadi. SHu tariqa o'zaro yordam tashkil etish sinfdagi jamoa munosabatlarini shakllantirishning yo'llaridan biridir. O'qituvchi yana o'quvchilarni yosh xususiyatlarini, sinf jamoasining xususiyatlarini, uning shakllanganlik darajasini hisobga oladi, o'sha talablarida jamoa fikrining qo'llab quvvatlanishiga tayanadi. Jamoa rivojlanishining har qanday darajasida sinf rahbari muayyan usullardan foydalanib, jamoatchilik fikrini shakllantirish to'g'risida maxsus g'amxo'rlik qiladi. O'quvchilar jamoasini shakllantirish jarayonini past darajadan yuqori darajaga boradigan vaqt davomidagi harakat, ijtimoiy talablar avval shaxsan sinf rahbaridan, o'qituvchidan faqat yakka bolalar, keyinchalik ko'pchilik bolalar idrok etadigan va nihoyat, barcha uchun va har bir bola uchun hayot qonuni bo'lib qoladigan tarzda jo'n tushunib bo'lmaydi. Hatto uyushgan jamoada ham jamoatchilik xususiyatlari zaif rivojlangan ayrim o'quvchilar bo'ladi. Sinf rahbari jamoa va har bir alohida o'quvchining tarbiyasi uchun ma'suldir. SHuning uchun uning jamoa tarzidagi va yakka tartibdagi shakllarini qo'shib olib borishi tarbiyaviy ishdagi o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Jamoaning shaxsga nisbatan yuksak talabchanligi kuzatiladi.

Maktablar tajribasida faoliyat odatda ommaviy, jamoa, guruh va individulal shakllarda tashkil etiladn. Faoliyatni tashkil etishning ommaviy shakllari ham (ya'ni ularda o'quvchilarning muayyan guruhleri ishtirok etadi) o'z mohiyatiga ko'ra uni amalga oshirish jarayonida faoliyat maqsadga (masalan, ma'ruza, konsert va hokazo) erishish uchun katnashchilariing o'zaro muomalasini nazarda tutmaydi. Biroq, bundan

oldingi holda bo'lgani kabi, bu shakllarda bevosita tengdoshlar bilan birgalikda qatnashish ba'zi hollarda ularning faoliyatidagi ishtirokini faollashtiradi, boshqa hollarda aksincha bo'ladi. Bu ko'p jihatdan o'quvchilarning faoliyat mazmuniga, munosabatiga (ijobiy, passiv yoki salbiy) bog'liq bo'ladi. Faoliyatni amalga oshirish jarayonida uning maqsadiga erishish uchun o'quvchilarning o'zaro muomalaga kirishishlarini nazarda tutuvchi faoliyat shakllari jamoa shakllari deyiladi, bu muomala jarayonida o'quvchilar o'rtasida jamoa aloqalar vujudga keladi. Bu shakllar ob'ektiv jihatdan o'zida muomala uchun muayyan shart-sharoitlarga ega bo'ladi. Ular o'quvchilarga ishning muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun vazifalarni o'zaro taqsimlab chiqish imkonini beradi, katnashchilar o'rtasida aloqa ta'sirining paydo bo'lishiga olib keladi. Misol tariqasida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning jamoa shakllaridan biri-bilimlarning ijtimoiy ko'rigini qarab chiqamiz. U biror fan bo'yicha o'tkaziladi. Unda ikkita parallel sinf yoki bir sinfdan ikkita komanda ishtirok etishi mumkin. Ko'rikning dasturi ishlarning har-xil turlaridan (yozma, og'zaki, grafik masalalar echish, topshiriq uchun topshiriqlarni bajarish va shu kabilar) tashkil topadi, ularni bajarish umuman olganda 40-60 daqiqadan oshmaydi. Ko'rik oxirida hay'at a'zolari har bir qatnashchiga va umuman komandadagi o'rtacha bahoni e'lon qiladi. Bu o'rinda bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muomala ko'rikka hozirlik ko'rish vaqtidayoq boshlanadi va uni o'tkazish jarayonida juda samarali davom etadi. Bunga sabab shuki, ko'rikka doir dastlabki topshiriqlar jamoadan tayyorgarlik rejasini muhokama etishni, vazifalarni taqsimlashpi yoki guruh bo'lib ishlashni talab qiladi. Ko'rik jarayonida muomala uning hamma qatnashchilar o'rtasida sodir bo'ladi, chunki ulardan har biri muayyan vazifaga ega bo'lib, o'z harakatlarini boshqa qatnashchilar bilan muvofiqlashtirgandagina vazifani muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Jamoa muomalani tashkil etishning samarali shakllaridan biri guruhiiy ishdir, bunda mazkur ish bolalarshing tarkib jihatidan uncha katta bo'lmagan (eng ko'pi bilan kishi 5 ta bo'lishi kerak) guruhlarida amalga oshiriladi. Bunday kichik guruhlarda barcha a'zolar bir-birlari bilan bevosita muomalada bo'ladilar va bir-birlariga bevosita biror ta'sir ko'rsatadilar.

O'quvchilar guruhida muomalaning o'ziga xos xususiyatni o'rganish uning guruhlarini o'quvchilar muomalasini tashkil etishning samarali shakliga aylantiradigan xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Umumiy tarzda ular quyidagicha tasvirlanishi kerak: guruhiiy ish jarayonida o'quvchilarning muomalasi juda samarali bo'ladi. Bunga sabab shuki, birinchidan, guruhiiy muayyan topshiriq oladi, ya'ni o'ziga xos yo'l-yuriq oladi. U guruh a'zolari uchun maqbul bo'lgan maqsadlarni ma'lum qiladi, lekin bungacha bu maqsadlarni uning o'zi ilgari surmagan bo'ladi. Yo'l-yuriq, muammo, masala topishmoqni o'z ichiga oladi. Bu hol jamoa a'zolarida taxminiyyat-tadqiqodchilik javobini va ish maqsadiga intilishni vujudga keltiradi. Jamoadagi muomala munozara tusiga ega bo'ladi, bu hol qatnashchilardan ilgari surilgan qoidalarni isbotlashni talab qiladi, jamoaga muammoni noto'g'ri hal etishga intilishga tezda javob qilish, bir-birini tuzatish va to'ldirish imkonini beradi.

Jamoadagi muomalani tashkil etganda, o'quvchilar muhitida mavjud bo'lgan haqiqiy guruhlarni nazarda tutish, bir-biriga mehr bilan qaraydigan va o'zaro do'stlashadigan bolalarni birlashtirish zarur. Pedagog bu guruhlarning xususiyatlarini, ularning yo'nalishi, qiziqishlari, malakasini va hokazolarini bilishi, hisobga olishi va ulardan foydalanishi kerak.

Jamoa ishini tashkil etishda va amalga oshirishda vazifalarni taqsimlash vaqtida mazkur xususiyatlarni hisobga olish ishining samaradorligini oshiradi. Bu hol guruhdagi muomalani jamoaning qiziqishlari sohasiga va jamoaning qiziqishlarini guruhdagi muomala sohasiga olib kiradi. Masalan, jamoa etarli darajada obro‘ qozongan, jamoatchilik yo‘nalishiga ega bo‘lgan guruhga muayyan bir tadbirni tayyorlash va o‘tkazishga boshchilik qilishni topshirsa bo‘ladi. Qandaydir o‘ziga xos qiziqishlari bor guruhga butun jamoa uchun bu qiziqishlarga mos keladigan ishning tashabbuskori va tashkilotchisi bo‘lish taklif etiladi va hokazolar.

Jamoa faoliyatini tashkil etishda o‘quvchilarning shaxslararo real, ya‘ni aniq mavjud bulgan aloqalarini hisobga olish ikki xil maqsadga: guruh a‘zolarini jamoa hayotiga jalb qilish va ular o‘rtasidagi muomalaga ta‘sir ko‘rsatish bundan tashqari o‘z oldilariga qo‘ygan har bir maqsadiga erishish imkonini beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Jamoa nima?
2. Guruh jamoasini qanday tashkil etiladi?
3. Jamoani o‘rganish bosqichlari qanday?
4. O‘quvchilarni tarbiyalashda jamoaning roli nimalardan iborat?

7-mavzu: Guruh rahbari va uning faoliyatini tashkil etish

Reja:

1. Guruh rahbari faoliyati
2. Guruh rahbarining vazifalari
3. Guruh rahbarining jamoani tashkil qilish bo‘yicha asosiy faoliyati.

Tayanch iboralar: Pedagogik oliyanoblik, oliyanoblik hissini shakllantirish, kasbga nisbatan munosabati, talabning munosabati, nuqsonlarni yo‘qotishga yordam berish, talablarining yutuqlaridan hursand bo‘lish.

Guruh rahbaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir talaba shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo‘lish, o‘z malakasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondoshish talab qilinadi. Muhimi shundaki, guruh rahbarining o‘zi bolalarda tarbiyalamoqchi bo‘lgan g‘oyaviy-axloqiy g‘oyaga mos bo‘lishi kerak. Tarbiyadagi xatolarning ko‘pligiga asosiy sabab talabalarning oldiga qo‘yilayotgan talablar tarbiyachi xarakterda hamisha ham namoyon bo‘lavermasligidadir.

Guruh rahbarining maxsus kasbiy va ijtimoiy vazifalariga odilona baho beruvchi xolis hakam – tarbiyalanuvchilar. Avvalo, guruh rahbarining amaliy faoliyati faqat yarimi tarbiya texnologiyaga asoslanganligini nazarda tutish kerak. Uning ikkinchi yarimi bu san‘at. Shu tufayli guruh rahbariga qo‘yiladigan dastlabki talab – unda pedagogik qobiliyat mavjud bo‘lishi kerak. Guruh rahbarining qobiliyati – bu o‘quvchilar bilan ishlashga ishtiyoq, bolalarga nisbatan muhabbat, ular bilan bo‘lgan munosabatdan mamnun bo‘lish bilan ifoda bo‘ladigan shaxsning sifatleri. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Qobiliyat uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o‘qish natijasi hisoblansa. Qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste‘dod, layoqat va zehn, ya‘ni inson asab tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo‘lishi ham zarur.

Tarbiyaviy faoliyatning samarali bo'lishi uchun guruh rahbarida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab yetishtirilmog'i lozim:

□ tashkiliy – guruh rahbarining o'quvchilarni jipslashtirish, ularni band qilish, vazifalar bo'lib berish, ishni rejalashtirish, qilingan ishlarni jamlash mahoratiga namoyon bo'ladi;

□ didaktiga oid – o'rganishga bo'lgan qiziqish hamda ma'naviy, hissiy istaklarni rag'batlantirish, o'quv bilimini orttirish, faollashtirish mahoratida namoyon bo'ladi;

□ pertseptiv – tarbiyalanuvchilarning ma'naviy dunyosiga singib, ularning emotsional holatini baholash, ruhiy xususiyatlarini aniqlash mahoratida namoyon bo'ladi;

□ suggestiv – o'quvchilarga emotsional ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi;

□ kelajakni ko'ra bilish - o'z harakatlarning oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchilarda qanday fazilatlarini ro'yobga chiqarish lozimligini oldindan ayta olish mahoratida namoyon bo'ladi;

□ tadqiqiy - pedagogik vaziyatlar va jarayonlarni o'rganish va ob'ektiv baholash mahoratida namoyon bo'ladi.

Guruh rahbarining faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda u kommunikativ (kattalar bilan ham, kichiklar bilan ham tez aloqa o'rnatish olish) qobiliyatga ega bo'lishi, ro'y berayotgan fakt va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bog'lab baholashgina emas, balki ro'y berish sababiga qarab hukm ham chiqarishi pedagogik optimizmga, ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lish kerak. Guruh rahbarining eng muhim fazilati – odamlar bilan tezda til topa olishi, ko'pchilikka o'shila bilish, ulfatjonlik, dilkashlik bo'lib, bu undagi muomala madaniyatining yuksakligini ifodalaydi. Chunki unga hamisha odamlar bilan aloqa qilishga, ular bilan ishlashga to'g'ri keladi. Hozirgi sharoitdan kelib chiqqan holda o'quv-tarbiya jarayonida qulay munosabatlar yaratish uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli asoslar bo'luvchi guruh rahbarining insoniy xislatlari muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Guruh rahbari uchun juda muhim xislat – insonparvarlik, ya'ni o'sayotgan insonga oliy qadriyat kabi munosabat qilish lozim. Insoniy munosabatlar o'quvchiga nisbatan xayrixohlik, unga yordam berish, ularning fikriga quloq solmoq, uning o'quvchilik faoliyatiga yuksak talabchanlikdan iborat.

Guruh rahbari doimo faol, ijodkor shaxsdir. U o'quvchilarning kundalik hayotini uyushtiruvchi hamdir. O'quvchilarda qiziqish uyg'otish, ularni o'zi bilan yetaklash faqat yuksak irodali insonning qo'lidan keladi. Auditoriya, o'quvchilar jamoasi kabi murakkab organizmlarga pedagogik rahbarlik qilishi guruh rahbaridan topqir, zehni o'tkir, har qanday vaziyatni mustaqil yechishga doim tayyor bo'lishligini talab qiladi. Unga kasbiy jihatdan kerakli xislatlardan biri – sabr-toqat va dadillikdir. O'qituvchining birdan sarosimaga tushgani, o'z nochorligini o'quvchilar sezmasligi lozim. Shuni hamisha esda tutish kerakki, guruh rahbari o'z harakati va axloqini nazorat qilish, hech qachon arzimagan narsalarga asabiylashmasligi kerak.

Muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning birinchi sharti - bu guruh rahbarining talabchanligi. Dastlab talabni u o'ziga qo'yishi kerak, chunki o'zingda bo'lmaganni o'zgadan talab qila olmaysan. Talabchanligi bilan birga oqilona tarbiyachi ham bo'lishi lozim. Pedagogik jarayonlarda yuz berib turadigan keskinliklarni bartaraf

etish uchun tarbiyachiga hazil-mutoyiba tuyg'usi yordam beradi. Uning ko'lamida tayyor hazil, maqol, yaxshi, do'stona piching – ijobiy emotsional holat yaratishga imkon berib, o'quvchilarni o'ziga jalb qildiradi.

Shaxs axloqini xarakterlaydigan belgilardan biri – ma'suliyatdir. Guruh rahbarining ma'suliyati - tarbiyachining faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. Tarbiyachi zimmasiga bolaning shaxs sifatida har tomonlama kamol toptirish ma'suliyati yuklanadi. U o'quvchiga chuqur nazariy bilim berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga u o'quvchidagi mavjud layoqat va qobiliyatni o'z vaqtida payqab, individual munosabatda bo'lishi, unda mavjud bo'lgan ijobiy axloqiy sifatlarni avaylab o'stirishi darkor.

Guruh rahbari o'quv yurtidagi eng universal pedagogik hisoblanib u bajaradigan mehnatning o'lchovi, chegarasi yo'q. Uning bilmagan ishi uddasidan chiqa olmaydigan sohasi bo'lmaydi. Shu bilan bir qatorda, u beg'araz, xolis va ta'masiz shaxs bo'lib, jamoachilik asosida ishlaydi. Guruh rahbari pedagoglar, otanonalar va o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarning nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirishi, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazishi va ayni vaqtda o'zining pozitsiyasini aniq ta'minlay olishi kerak. Bu esa donolikdir.

Shunday qilib, pedagogik odobga ega bo'lgan guruh rahbari o'quvchilar orasida obro' qozonadi. Ustoz qanchalik obro' qozonsa, ta'lim va tarbiya mohiyatan shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi va aksincha, tarbiyachining sha'ni qanchalik past bo'lsa, uning ta'siri shuncha bo'sh va o'quvchilarni voyaga yetkazish jarayoni ham shuncha zaif bo'ladi.

Yuqori aytib utilgan fazilatlar guruh rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishda va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi.

2. Guruh rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishi.

Guruh rahbari nihoyatda ma'suliyatli va murakkab vazifani bajaradi. U guruhdagi tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, talabalarning murabbiysi, guruhni tashkil etadi hamda kamolot tashkilotchilari, o'qituvchilar, oila, keng jamoatchilik ahli bilan birga ish olib boradi.

So'nggi yillarda guruh rahbarining faoliyati turli shakl va metodlar bilan boyitildi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda o'quv yurti jamoat tashkilotlarining roli tobora oshirildi. Ideologik muassasalar sifatida o'quv yurti oldida muhim tarbiyaviy vazifalar qo'yilgan, bu esa ayni vaqtda har bir guruh rahbarining asosiy vazifalari hisoblanadi, shunday qilib, alohida guruh birlashib o'quv yurtini tashkil etadilar. Alohida guruh jamoalari qo'lga kiritgan ta'lim va tarbiya borasidagi muvaffaqiyatlar butun o'quv yurti jamoasining muvaffaqiyatini minlaydi. Shu nuqtai nazardan guruh rahbarining ma'suliyati jamiyat oldida rahbarlik ma'suliyatidan kam emas. Shunnig uchun o'quv yurti direktorlari guruh rahbari vazifasiga tajribali, tashkilotchi, mehnatsevar, mahoratli, yosh avlodni sevadigan o'qituvchilarni tayinlab, ular bilan muntazam ish olib boradilar.

Guruh rahbarining muhim vazifalaridan biri – bu talabaning o'qishga bo'lgan havasi, e'tiqodi va bilim, qobiliyatini rivojlantirish, kab-hunarga bo'lgan layoqatini, yosh va ruhiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o'quvchining bo'lg'usi hayoti rejalarini amalga oshirish, talabalarning salomatligini muhofaza qilishdan iborat.

Faollarga ishonish, ularning guruh jamoasi orasida obro'sini ko'tarish, uz vaqtida ularga tegishli yordam ko'rsatish guruh rahbarining bevosita asosiy vazifasidir.

Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalash jarayonida guruh rahbarining tashkilotchilik funktsiyasi juda katta ahamiyatga egadir. "Tashkilotchilik" tushunchasining o'zi keng ma'noga ega. Maxsus bir maqsadni ko'zlab u yoki bu ishni, tadbiriy choralarni tashkil etish guruh rahbaridan katta malaka va maxsus mahoratni talab qiladi. Tashkilotchilik funktsiyasi bir nechta elementlarga bog'liqdir.

A. O'tgan ishlarni tahlil qilish, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi sabablarini belgilab olish.

B. Guruhda o'tkaziladigan barcha ishlar tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, ma'lum maqsadni ko'zlab o'tkazilishi va guruh rahbari turli tarbiyaviy ishlarni o'tkazishda oldin shu ishning modelini tuza bilish lozim.

V. Guruh rahbari oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'z oldiga aniq vazifa qo'ya bilish lozim.

G. Guruh rahbari har bir tarbiyaviy choralarni amalga oshirishda o'qituvchi va talabalarning qobiliyatlariga qarab, vazifalarni taqsimlash, ma'lum reja asosida tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazish o'rni, vaqti, soati, javobgar shaxslar va tizimlilikini aniqlash lozim.

D. Ma'lum tarbiyaviy ish bajarishda bajaruvchi kishilarni ish uchastkalaridagi joy-joyiga qo'yish, vazifalarni to'g'ri taqsimlash, ishga boshqa o'qituvchilarni, ota-onalar, talabalar, otalik tashkilotlari va ish ob'ektini aniqlash lozim.

Guruh rahbarining jamoani tashkil qilish bo'yicha asosiy faoliyati.

1. Har bir talabani shaxs sifatida o'rganish.
2. Talabalarni guruhda tarbiyalashni tashkil etish.
3. Talabalarning bilim-tarbiyasini oshirish va ularning tartib intizomini mustahkamlash.
4. Guruhda darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish.
5. Fan o'qituvchilarining tarbiyaviy ishlarini birlashtirish (koordinatsiyalash).
6. Talabalarning ota-onalari bilan ishlash.

Guruh rahbari fan o'qituvchi ishlariga nisbatan tarbiyaning ko'p qirrali muhim vazifalarini bajaradi. Shuning uchun uning oldiga juda katta pedagogik va psixologik talablar qo'yilgan, bu talablar tarbiyaviy ishlarni yukori darajaga qo'tarishda muhim rol o'ynaydi.

Guruh rahbariga nisbatan qo'yiladigan talablar : yuqori g'oyaviylik va onglilik; guruh rahbari katta obro'ga, ehtiromga va hurmatga ega bo'lishi; pedagogik mahorat; madaniy qobiliyatining mavjudligi; pedagogik odobga ega bo'lish; yosh avlodga nisbatan hurmat va ehtiromli bo'lish; tashkilotchilik malakasi va mahoratiga ega bo'lish; tarbiyaviy ishlarga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lish; guruh rahbari kasbini yuqori qo'tarish va mustaqil bilim olish qobiliyatiga ega bo'lish.

Rasmiy hujjatlarga guruh rahbarining vazifalari qisman bayon qilingan bo'lsa ham biz quyida guruh rahbarining jamoani birlashtirish bo'yicha vazifalarni aniq tarzda ko'rsatishni zarur deb bildik.

Guruh rahbarinig vazifalari:

1. Talabalarning anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini o'rganish;

2. Talabalarining kundalik davomati, odob xulqi va jamoat ishlariga qatnashishini tekshirib borish;
3. Talabalarining rejiga rioya qilishlari va uyga berilgan vazifalarni tayyorlab borishlarini kuzatish;
4. Guruhda ishlaydigan fan o'qituvchilari bilan majlislar o'tkazish;
5. Darsda talabalar davomatini ta'minlash, guruhdagi va yuqur yurtida navbatchilikni tashkil etish, xonani jihozlash, honadagi o'quv asboblari saqlashga o'rgatish, talabalar bilan suhbatlar o'tkazish;
6. Guruh majlislarini tizimli o'tkazish;
7. "Kamolot" tashkiloti bilan ish rejalariga muvofiq darsdan tashqari ishlarni tashkil etish;
8. Talabalar bilan darsdan tashqari o'qishlari va anjumanlarini o'tkazish;
9. Guruh talabalar bilan sport, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi borasida tadbiriy choralar ko'rish, talabalar sog'ligini muntazam nazorat qilish, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, harbiy ta'lim o'qituvchilari bilan doimiy aloqada bo'lish;
10. Talabalarni rag'batlantirish va zarur vaktlarda ularga nisbatan chora ko'rish;
11. Talabalarining ota-onalari bilan tarbiya borasida doimiy aloqada bo'lish va ular bilan individual suhbatlar o'tkazish;
12. Talabalarining shaxsiy va guruh rahbariga oid hujjatlarini tartibli olib borish.

Guruhda tarbiyaviy ishlarga doir masalalarni har tomonlama hal qilish maqsadida guruh rahbari talabalarining ta'lim olishlari, guruhni uyushtirishining taxminiy rejasini tuzadiki, bu reja talabalar bilan tizimli ish olib borishga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

3. Guruh rahbarining vazifalari va shaxsiy sifatleri.

Hozirgi davrda akademik litsey, kollej va undagi ukuv, tarbiya jamoa oldiga juda katta ijtimoiy axamiyatga molik vazifalar kuyilmokda.

Akaedmik litsey yosh avlodning dunyokarashini tarkib toptirish, goyaviy va siyosiy jixatdan chiniktirishi yuksak axlokiy fazilatga ega kilishi mexnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlash lozim. Bu vazifalarni xal kilishda gurux raxbari muxim rol uynaydi. Chunki u bir gurux sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga karatilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi. Guruh rahbarning ko'p kirrali vazifasi «Ta'lim tugrisida» gi Konun va «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»da. «O'quv yurti ichki nizomlari» da bayon kilingan bulib, unda akademik litsey, kollej direktoriga, tarbiyaviy ishlarning tashkilotchilariga, ukituvchilarga, ota-onalarga va gurux raxbarlariga tavsiyalar berilgan; akliy, axlokiy, mexnat, yestetik a jismoniy tarbiyaning vazifai va mazmuni guruxlarga nisbatan moslashtirilgan.

Ana shunga kura gurux raxbari kuyidagi vazifalarni bajaradi:

O'ziga yuklatilgan guruxda tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi.

Bu vazifan bajarishda u yolg'iz emas. Shu guruxda dars dars berayotgan turli fan ukituvchilari bilan yakin xamkorlikda va ularga suyangon xolda ukuvchilarda dunyokarash asoslarini shakllantiradi, axlok tarbiyasini amalga oshiradi. Kamolot tashkiloti xamkorligida, muntazam suratda ularga tayanib va kundalik ishda yorda uyushtirib talabalar bilan darsdan tashkaridagi xilma-xil ishlarni tashkil etadi va gurux jamoasini mustaxkamlaydi.

Ukuvchilarning birligiga bulgan kizikishini va qobiliyatini ustirish, har bir ukuvchining individual –ruxiy xususiyatini hisobga olgan holda kasbga yunaltirish – guruh rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda u har bir ukuvchining sogligini mustahkamlashga ham e'tibor beradi.

Guruh rahbarining diqqat markazida talabalarning yuqori darajada uzlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir talabaning kundalik uzlashtirishidan voqif bulib turadi, orqada qolayotganlarga uz vaqtida kechiktirmay yordam uyushtiradi.

Guruhdagi talabalarining uz-uzini boshkarish ishlarini yunaltiradi, ular ishtirokida guruh jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi, ukuv yurti mikyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda uz guruhining faol qatnashishini ta'minlaydi.

Guruh talabalarining ota-onalari, korxonalar va muassasalardagi, turair joylardagi oila va uquv yurtiga yordam beruvchi homiy mahallalar bilan yaqin aloqa urnatadi.

Guruh rahbari shu guruhda dars berayotgan barcha fan ukituvchilari urtasida, ukuvchilari urtasida, ukuv yurti bilan oila urtasida talabalarga nisbatan yagona talablar o'rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarkatib, oila bilan ukuv yurti urtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

Guruh rahbari o'z guruhidagi turli hujjatlarning: guruh jurnali, uo'quvchilarning reyting daftarchasi, shaxsiy hujjatlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Ko'rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffakiyatli hal kilish guruh rahbarining shaxsiy sifatlariga ham boglikdir. Guruh rahbarlarining shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar o'qituvchiga qo'yiladigan talablardan farq qilmaydi. Lekin guruh rahbari asosiy tarbiyachi, bolalar ma'naviy jihatidan andoza oladigan shaxs bulganligi uchun ham bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida o'rin egallaydi.

Tarbiyaviysh ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining goyaviy ishonchiga va siyosiy ongining darajasiga bogliq.

Guruh rahbari o'zining g'oyaviy-siyosiy ongini oshiradi. Bu guruh rahbariga bolalarni onglilik ruhida tarbiyalashga, ular orasiga yot idealogiya va yomon xulkning kirib borishiga karshi kurasha olishimkoniyatini bera oladi. Gurux raxbarining axloqiy obrusi goyat darajada yuqori bulishi ham bu urinda muhimdir. Gurux rahbari ana shundagina tarbiyaviyta'sir kuchiga ega buladi. Tarbiyachiningn shaxsiy fazilatlari, ma'naviy kiyofasi ukuvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Guruh rahbari uchun kasbiy malaka va kunikmalarga ega bulishning uzi yetarli emas. U o'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi fukarolik fazilatlari, intizomi va odamiyligi, axloqiy sifatleri bilan xam ta'sir o'tkazadi. Chunki tarbiyachilik talanti juda kup sifatleri chukur bilish, keng fikr doirasi, ishga jon dildan kungi qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomalada nazokatlik, qalb yoshligi, serzavq, temperament, aql va odoblilik namunasi, aloqada nazokat va sipolik, vazminlik va kamtarlik kabi fazilatleri bo'lishini takozo kiladi. Bunga yana tarbiyachilik texnikasi kushilsa ishda muvaffakiyat ta'minlanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi gurux raxbarining asosiy kurolidir. Guruh rahbaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talableri rioya kilish, har bir talaba

shaxsini inson sifatida hurmat kilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bulish, uz malakasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondoshish talab kilinadi. Muximi shundaki, guruh rahbarining uz bolalarda tarbiyalamokchi bulgan goyaviy-axlokiy goyaga mos bulishi kerak. Tarbiyadagi oldiga kuyilayotgan talablar tarbiyachi harakterda hamisha ham namoyon bulavermasligidadir.

Guruh rahbarining faol jamoatchi sifatida xamisha namuna kursatishi muxim axamiyatga ega. Ayni vaqtda u kommunikativ (kattalar bilan xam, kichiklar bilan ham tez aloqa urnata olish qobiliyatiga ega bo'lishi, ro'y berayotgan hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga boglab baholashgina emas, balki ruy berish sababiga qarab hukm ham chikarishi pedagogik optimizmga, ijod kilish qobiliyatiga ega bulishi kerak.

Guruh rahbari uquv yurtidagi eng unievrchal pedagogik hisoblanib, u bajaradigan mehnatning **uochovi**, chegarasi yuq. Uning bilmagan ishi uddasidan chika olmaydigan sohasi bo'lmaydi. Shu bilan bir qatorda u begaraz, xolis va ta'masiz shaxs bulib, jamoatchilik asosida ishlaydi. Guruh rahbari pedagoglar, ota-onalar va ukuvchilarni uzaro boglovi shaxs sifatida barcha tomonlarning nukai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirishi, o'zaro aloqalarning to'g'ri bulishiga ta'sir o'tkazishi va ayni vaqtda o'zining pozitsiyasini anik ta'minlay olishi kerak. Bu esa donolikdir.

Mana shu fazilatlar guruh rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffakiyatini ta'minlashga garov buladi.

4.Guruh rahbarining pedagogik faoliyati va mahorati

Guruh rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan guruh o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili davomida nimalar qilish kerakligi, talabalar hayotining nima bilan band qilish va tanlangan ish turini amalga oshirishini behato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni uechadi. Bu borada guruh rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. Guruh rahbarining ish stolida «Talabalarni tarbiyalash ishining mazmuni» bo'lishi kerak. Chunonchi,

- dunyoqarash asoslarini tarkib toptirish;
- siyosiy onglilikni tarbiyalash va ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish,
- axloqli, ongli intizomni va xulq madaniyatini tarbiyalash;
- o'qishga ongli munosabatni tarbiyalash, bilish faolligini va aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish
- mehnatga va ijtimoiy mulkka munosabatni tarbiyalash, politexnika bilim doirasini kengaytirish, kasbni ongli tanlashga tayyorlash;
- o'z huquqini anglab yetishga o'rgatish, fuqarolik mas'uliyatini tarbiyalash;
- estetik madaniyat asoslarini tarbiyalash va badiiy qobiliyatni rivojlantirish;
- jismoniy barkamollik, salomatlikni, mustahkamlash va sanitariya-gigiena madaniyati kabi muhim masalalar alohida qayd etiladi.

Guruh rahbarining pedagogik faoliyati va mahorati o'quv faoliyatida ham, o'qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi.

Xo'sh, tarbiyachining pedagogik mahorati, texnikasi qanday malakalarni o'z ichiga oladi? Ularning pedagogik ta'sir ko'rsatishdagi roli qanday?

Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida pedagogning nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z fikr va his tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini aytib o'tish mumkin.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi guruh rahbarining mimkin va pantomimik ifodaliligidir. Aniq imo – ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zli tushuntirish yoki e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomala vositalari bo'ladi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda guruh rahbarining o'z hissiy holatini boshqarish, o'zida eng qulay hissiy jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatini saqlash, o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol o'ynaydi. Bu mahorat pedagogning kasbiy jihatdan o'z – o'zini nazorat qilishni ta'minlaydi. Ko'p yillar davomida sog'lom asab sistemasini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo'riqishdan o'zini tiyishga yordam beradi.

Samarali o'zaro ta'sir ko'rsatishni tashkil tish uchun pedagog aktyorlik va rejissyorlik mahorati tarkibiy qismlarini egallashi zarur, ular pedagogga tarbiyalanuvchilar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchilarning aql – idorkigagina emas, balki ularning his tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatishga yordamlashadi.

Shunday qilib, guruh rahbarining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u guruh rahbariga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ulaga o'z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beradi. A.S.Makraenko shularni nazarda tutib, «Trabiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishini bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har biri harakati tarbiyalasin», deb yozgan edi. Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari pedagog rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual – shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin.

Pedagogik texnik-malakalarini shakllantirishda gruppaviy ish olib borish alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnik mashg'ulotlarining bu shaklini batafsiliroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar pedagoglar uchun muljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda lozim darajada ko'rsatib berilmagan. Guruh shaxsning o'z – o'zini bilish va o'z-o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullari tekshirib ko'riladigan, nazariy masalalar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin.⁷

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini ishlash malakalarni egallashga faol intilishlari, o'z – o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash bo'yicha chuqur ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalri shakllanishining

⁷ Mahkamov M. «Bo'lajak tarbiyachilarninr pedarorik muloqat madaniyatini shakllantirish» nomzodlik dissertastiyasi. T., 2005.

boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq tajribaning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham borishi mumkin ekan. Bular masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo'lga qo'yilishi, to'g'ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday ko'nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malaklarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi.

Oliy o'quv yurtlaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash guruh rahbariga o'zining kasb yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan holi bo'lishda, talabalarga ta'lim tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Guruh rahbari vaziyatlarning haddan tashqari xilma – xilligi pedagogdan ijodiy xulq – atvorni talab qiladi. Pedagogik texnika pedagog malakalarining eng yaxshi ijodiy xulq atvoriga, boshqacha qilib aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga samarali ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Pedagogik texnika malakalari tarbiyachining individual–shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqligi faqat bu malakalarning individual tusda bo'lishi emas, balki ularning shakllanishi va rivojlanishi pedagog shaxsiga ta'sir ko'rsatishda ham nomoyon bo'ladi.⁸

Pedagogik texnikaning yana muhim xususiyatlaridan biri pedagogning ma'naviy va estetik nuqtai nazarlari tarbiyalanuvchilarga yanada to'laroq ochib beriladi. Agar pedagogning nutqi qashshoq va tartibsiz bo'lsa, agar u bo'lar bo'lmas sabablar bilan o'z hissiyotlariga erk bersa, didi past, estetik jihatdan omi bo'lsa, u holda “eng to'g'ri” so'zlar ham, eng “kerakli” tadbirlar ham tarbiyalanuvchilarning na aql – idrokiga, na hissiyotiga ta'sir qiladi.

Pedagogik texnika to'g'risida aytilganlarning hammasi har bir guruh rahbari uchun bu texnikani tashkil etuvchi malakalarni egallash nihoyatda zarurligini ochiq – oydin ko'rsatib turibdi va bu pedagogik vaziyat hamda san'at bilan bog'liq. Chunki inson o'zining har bir qadamini oldindan ko'rishi, rejalashtirishi amalda mumkin bo'lmaydi. Guruh rahbari ning mehnati – bu behad izlanish va azob – uqubatli kechinmalar, ilhom va betakror nurlanish oni, ko'pdan ko'p kundalik ishlar, hafsalasi pir bo'lish va shaxslar birgalikda boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilishdir. Pedagogik san'at – bu qandaydir qul bilan tutib bo'lmaydigan, fahm – farosat bilan amalga oshiriladigan mahorat mahsulidi.

Xo'sh, pedagogik mahorat nima va u nimalardan tashkil topadi?

Pedagogik mahorat fahm – farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlikning, shaxslar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan shaxs shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat majmuasidir. Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm – farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradiki, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab, ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi.

⁸ Mahkamov M. «Bo'lajak tarbiyachilarning pedarorik muloqat madaniyatini shakllantirish» nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2005.

Pedagogik mahorat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o'zicha, paypslab ijodiy izlanish olib boadi, Ayni bir xil savollarni: shaxslar bilan, pedagoglar jamoai bilan qanday qilib til topish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ichida tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq kerak? Tarbiyalanuvchilarni pedagogik talablarni bajarishga qanday qilib majbur etish mumkin? Qanday qilib yaxshi pedagogik ruhiyatni saqlab qolish va o'z kuch – qo'vvatini oqilona sarflash mumkin? Degan savollarni muttasil takrorlaydi va hakoza.

Bu kabi savollarga javob berish uchun pedagogdan odatdan tashqari kuch – g'ayratni, qat'iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlar olib boirishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va halollikni, o'tkir aql idrokni, o'z topilmalarining qimmatini aniqlash qobiliyatini talab qiladi. Pedagogika fani bilan tarbiya san'atining o'zviy aloqadorligi zarurki, u yuksak kasb mahoratini ta'minlaydi.

Pedagogika fikrlashga o'rgatadi, murakkab pedagogik muammolarni hal qilish uchun to'g'ri yo'l yo'riq va ilmiy asoslangan yo'llarni ko'rsatadi, pedagogning pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasi va texnikasi bilan qurollantiradi. Biroq texnikaning tarkibiy qismlari bilan mahorat o'rtasidagi nisbatning dialektik muammolarini to'g'ri hal qilish uchun tayyor andazalar, mutloqo aniq tavsiyalar qarda bo'lishi mumkin, qarda bo'lishi mumkin emas, degan savolga javob berishi mumkin.

Tarbiyaning maqsadlari, vositalari va natijalari o'rtasida, shuningdek, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi tafakkuri, motivlari o'rtasida g'oyat murakkab bog'liqlik bor. Kattalarning maqsadi, odatda, yoshlarning maqsadlari (hatto strategik maqsadlari) bor. Talabaning rivojlanish mantiqi, uning tafakkuri, harakatlari bitta nuqtai nazarda, tarbiyachining mantiqi boshqa nuqtai nazarda turishi mumkin. Bunday variantda hech qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish bo'lmaydi.

Pedagogik faoliyatda vositalar, maqsadlar va natijalarning nisbatini doimo tahlil qilib borish zarur. Ular uzviy birlikni tashkil etadi, bir – biriga bog'liq bo'ladi va alohida tarzda amalga oshirilmaydi. Maqsadni amalga oshirish usuli – bo'lajak natijadir. Natija yangi vositalarni tanlash, yangi maqsadlarni qo'yish uchun amaliy asos hisoblanadi. Tajribada ma'lum darajada qo'llanilgan har qanday vosita natija beradi, hatto biror sababga ko'ra maqsad aniq ifodalanmagan bo'lsa ham natija bervermaydi.

Tajribada mavjud bo'lgan pedagogik vositalarni ikkitasini ko'rib chiqamiz.

Birinchisi: har qanday pedagogik vosita hamisha bir qator boshqa vositalar, usullar, shartlar bilan bog'liq bo'ladi, ular pedagogik jarayoning muayyan bosqichida ta'sir ko'rsatish natijasini belgilab beradi. Masalan rag'batlantirish bir xil jarayonlarni tezlashtirish va boshqarishga to'siqnlik qilish, turli salbiy va ijobiy hissiyotlarning turli – tuman ko'irinishlarini vujudga keltirishi mumkin.

Ikkinchi: ayrim vositalarni qo'llanish pedagogning ular ta'sirini, mumkin bo'lgan o'zgarishini anglash qobiliyatlariga butunlay bog'liq bo'ladi. jamoa muomala sharoitida vositalarni qo'llash minut sayin o'zgarib turadigan vaziyatni hisobga olish zarurligini taqazo qiladi.

Hozircha biz ko'proq mavhum kategoriyalardan foydalanamiz. Amaliy faoliyatda esa vositalar, maqsadlar va natijalar dialektikasi ovozlar shovqini, g'oyat turli – tuman ehtiyojlar va da'volarning avj olishi bilan to'la bo'ladiki, bu barcha jonli

manzara doimo bir kishining – pedagog tarbiyachining diqqat markazida bo'lishi lozim.

Agar pedagogik san'at haqida gapirganda, chamasi, uning asosiy ko'rinishlari – talabalarga umidbaxsh faraz bilan yondoshish, talab va ishonchning birligi, uning shaxsga avayla munosabatda bo'lish, uni hurmat qilishdan iborat bo'lishi mumkin.

Pedagogik umidbaxshlik hatto eng qarovsiz talaba ham o'zida ko'pgina ijobiy narsalarga egadir, degan ishonchga asoslangan.

Pedagogik mahorat o'ziga talabalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, ta'lim muassasasi haqidagi, ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyani tashkil etadi, pedagog, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andazalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Biroq zamonaviy guruh rahbariga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi – maxsus bilimlar va malakalar: talabalarni kuzatish, ularning o'sishidagi muhim narsalarni aniqlay olish, bu muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy ijtimoiy g'oyalar bilan taqqoslash, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir – biriga o'tish dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir sistemaga solish malakalari zarur bo'ladi.

Guruh rahbari yangi tajribalarni o'rganar ekan, o'zining hayotiy bilmini, his etgan va anglagan narsalarini, o'z tajribasini aslo kamsitmasligi kerak. Guruh rahbarini keng va dadil tajribachilik ishlariga yo'llash zarur.

Demak, guruh rahbarining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u guruh rahbariga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beradi. Talabalar bilan bevosita muomala qilishda guruh rahbarining xuddi ana shu malakalari (yoki ularning yo'qligi) uning xulq atvorida namoyon bo'ladi.

Guruh rahbarining pedagogik mahorati bu tarbiyachining fahm – farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlikning, talabalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan talaba shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat majmuasidir.

Pedagogik texnika, mahorat, san'at, pedagogik malakalar, pedagogik vaziyatlar, maqsad, o'z – o'zini tarbiyalash, moxirlik, tashkilotchilik, aktyorlik, rejissyorlik, mimika, pantomimika, savodli gapirish, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, pedagogik ta'sir ko'rsatish.

Guruh rahbari noxoyatda ma'sulyatli va murakkab vazifani bajaradi. U guruhdagi tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, talabalarning murabbiysi, guruxni tashkil etadi hamda kamolot tashkilotchilari, o'qituvchilar, oila, keng jamoatchilik ahli bilan birga ish olib boradi.

So'nggi yillarda guruh rahbarining faoliyati turli shakl va metodlar bilan boyitildi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda o'quv yurti jamoat tashkilotlarining roli tobora oshirildi.

Ushbu ishni tayyorlashdan maqsad o'quv yurtining guruh raxbariga xozirgi vaqtda mamlakatda uzluksiz ta'limning yagona tizimini yaratish borasidagi ish uslublarini xar tomonlama keng joriy qilish va metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ideologik muassasalar sifatida o'quv yurti oldiga muhim tarbiyaviy vazifalar ko'yilgan, bu esa ayni vaqtda har bir guruh rahbarining asosiy vazifalarni xisoblanadi, shunday qilib. Alohida guruh birlashib o'quv yurtini tashkil etadilar. Alohida guruh jamoalari ko'lga kiritgan ta'lim va tarbiya borasidagi muvaffaqiyatlar butun o'quv yurti jamoasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan guruh rahbarining ma'suliyati jamiyat oldida raxbarlik ma'suliyatidan kam emas. Shuning uchun o'quv yurti direktorlari gurux rahbari vazifasiga tajribali, tashkilotchi, mexnatsevar, mahoratli, yosh avlodni sevadigan o'qituvchilarni tayinlab, ular bilan muntazam ish olib boradilar.

Guruh rahbarining muhim vazifalaridan biribu talabanning o'qishga bo'lgan havasi, e'tiqodi va bilim, qobilyatini rivojlantirish, kasb-xunarga bo'lgan layoqatini, yosh va ruxiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o'quvchining bo'lg'usi hayoti rejalarini amalga oshirish, talabalarining salomatligini muxofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning gurux jamoasi orasida obro'sini ko'tarish, o'z vaqtida ularga tegishli yordam ko'rsatish gurux rahbarining bevosita asosiy vazifasidir.

Shuningdek, guruh rahbarining tashkilotchilik funksiyasi tarbiya jarayonida muhim vosita sanaladi. Chunki, tashkilotchilik tushunchasining o'zi keng ma'noga ega. Maxsus bir maqsadni ko'zlab u yoki bu ishni tadbiriy choralarni tashkil etish guruh rahbaridan katta malaka va maxsus mahoratni talab qiladi.

Tashkilotchilik funksiyasi bir necha elementlarga bog'liqdir:

A. O'tgan ishlarni tashkil qilish, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi sabablarini belgilab olish.

B. Guruhda o'tkaziladigan barcha ishlar tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, ma'lum maqsadni ko'zlab o'tkazilishi va guruh rahbari turli tarbiy ishlarini o'tkazishda oldin shu ishning modelini tuza bilish lozim.

D. Guruh rahbari oldiga qo'yilgan maqsadga yetishish uchun o'z oldiga aniq vazifa qo'ya bilish lozim.

E. Guruh rahbari har bir tarbiri choralarni amalga oshirishda o'qituvchi va talabalarining qobiiliyatlariga qarab, vazifalarni taqsimlash, ma'lum reja asosida tarbiyaviy tadbirlarning o'tazish o'rni, vaqti, soati, javobgar shaxslar va tizimligini aniqlash lozim.

F. Ma'lumki tarbiyaviy ish bajarishda bajaruvchi kishilarni to'g'ri taqsimlash, ishga boshqa o'qituvchilarni, ota-onalar, talabalar, otalik tashkilotlari va ish obe'ktini aniqlash lozim.

Guruh rahbarining asosiy faoliyati esa quyidagilarni bilishni talab etadi.

1. Har bir talabani shaxs sifatida o'rganish.
2. Talabalarining guruhda tarbiyalashni tashkil etish.
3. Talablarning bilim-tarbiyasini oshirish va ularning tartib intizomini mustahkamlash.
4. Guruhda darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish.
5. Fan o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlarni (koordinatsiyalash) birlashtirish.

6. Talabalarning ota-onalari bilan ishlash.

Guruh rahbari fan o'qituv ishlariga nisbatan tarbiyaning ko'p qirrali muhim vazifalarini bajaradi. Shuning uchun uning oldiga juda katta pedagogik va psixologik talablar qo'ygan, bu talablar tarbiyaviy ishlarni yuqori darajaga ko'tarishda muhim rol o'ynaydi.

Demak yuqoridagilarga tayangan holda guruh rahbarining faoliyatiga nisbatan qo'yilgan talablar quyidagilardan iborat.

1. Yuqori g'oyafiylik va onglilik.
2. Guruh rahbari katta obro'ga ehtiromga va hurmatga ega bo'lishi
3. Pedagogik mahorat
4. Madaniy qobiliyatning mavdudligi
5. Pedagogie odibga ega bo'lish
6. Yosh avlodga nisbatan hurmat va ehtirom bo'lish
7. Tashkilotchilik malakasi va mahoratiga ega bo'lish
8. Tarbiya ishlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lish
9. Guruh rahbari kasbini yuqoriga ko'tarish mustaqil bilim olish qobiliyatiga ega bo'lish.

Rasmiy hujjatlarga guruh rahbarining vazifalari qisman bayon qilingan bo'lsa ham biz quyida guruh rahbarining vazifalarini aniq tarzda ko'rsatishni zarur deb bildik.

Guruh rahbarining vazifalari:

1. Anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini o'rganish.
2. Talabalarning kundalik davomati odob, xulqi va jamoat ishlariga qatnashishini tekshirib borish.
3. Talabalarning rejimga rioya qilishlari va uyga berilgan vazifalarni tayyorlab borishlarini kuzatish.
4. Guruhda ishlaydigan fan o'qituvchilari bilan majlis o'tkazish
5. Darsda talabalarning davomatini ta'minlash, guruhda va o'quv yurtida navbatchilikni tashkil etish, xonani jihozlash, xonadagi o'quv asboblari saqlashga o'rtgatish, talabalarning qiyinchiliklarini nazorat qilib ular bilan suhbat o'tkazish
6. Guruh majlichlarini tizimli va tartibli o'tkazish
7. «Kamolot» tashkiloti bilan ish rejalariga muvofiq darsdan tashqari ishlarini tashkil etish.
8. Talabarlarning darsdan ashqari o'kishlari va anjumanlarini o'ikazish
9. Guruh talabalari bilan sport, harbiy vatanparlik tarbiyasi borasida tadbiriy choralar ko'rish, talabalar sog'lig'ini muntazam nazorat qilish, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, harbiy ta'lim o'qituvchilari bilan doimiy aloqada bo'lish
10. Talabalarni rag'batlantirish va zarur vaqtlarda ularga nisbatan chora ko'rish.
11. Talabalarning ota-onalari bilan tarbiya borasida doimiy aloqada bo'lish va ular bilan individual suhbatda bo'lish.
12. Talabalarning shaxsiy va guruhga oid hujjatlarni tartibli olib borish.

Guruhda tarbiyaviy ishlarga doir masalalarni har tomonlama hal qilish maqsadida guruh rahbari talablarining ta'lim olishlari guruhning uyushtirishning

tahminiy rejasini tuzadiki bu reja talabalar bilan tizimli ish olib borishga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

2. Talabani o'rganishning tahminiy dasturi

3. Talabalar to'g'risida umumiy ma'lumot.

10. Talaba qayerda yashaydi?
11. Ota-onasining kasbi va ish joyi.
12. Oila a'zolarining va ularning moddiy ta'minlanganligi
13. Oilada ota-onaning o'zaro munosabatlari
14. Oilada talabaning tarbiyalash xarakteri
15. Talabani o'rganish rejimi
16. Oilaning xo'jalik ishlarida talabani ishtiroki
17. Talabani hayotida eng muhim voqealar
18. Talabani sog'ligi to'g'risida ma'lumot

II. YOSHLAR TARAQQIYOTINING UMUMIY HOLATI

7. Umumiy taraqqiyot (nafaqat madaniyati dunyoqarashi xarakteri kino, teatr, muzey, sport majmualariga borish)

8. Talabani o'qishga bo'lgan munosabati
9. Talabani davomati
10. Talabani jismoniy mehnatga munosabati
11. Talabani intizomi, xulq-atvor qat'iyati
12. Talabani qiziqishi (o'qishga, sportga)

III. Talabani jamoat ishlarida ishtiroki

4. Guruhning jamoat ishlarida ishtirok etish
5. Jamoat ishlarini bajarishi
6. Talabani guruhdagi obro'yi va mavqei

IV. Talaba shaxsining asosiy xususiyatlari

5. Jamoatchilik dunyoqarashi

6. Talabani ma'naviy sifatleri, vatanni sevmish, do'stlik, insoniylik, baynalmillatlik.

7. Irodalilik xarakteri va xususiyatlari. (maqsadli bo'lish, faollik, botirlik tashkilotchilik mustaqillik intizomlik, bandlik, kamtarlik va hokazo)

8. Talaba mijozining xususiyatlari va uning ruhiy jarayoni (nutq, diqqat, xotira xayol ruhiy holatlar)

V. Talabani o'rganish asosida guruh raxbari quyidagi choralar-tadbirlarni tuzadi.

1. Talabani qaysi sifatlarini tarbiyalab rivojlantirish lozim.
2. Talaba axloqdagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun nimalar qilish kerak?

4. B. Guruhni o'rganishning dasturi.

I. Guruh nafaqati.

4. Guruhdagi talabalarining yoshi, ruhiy, fiziologik va gigienik xolatlari.
5. Talabalarining shaxsiy taraqqiyoti, ma'rifatchilik jihatleri.
6. Guruhdagi jamoatchilik ishlari.

II. Guruhning hamjihatli va uyushqoqligi

5. Talabalarining o'zaro munosabati.
6. Talabalarining birgalikda mehnat qilishlari va uning vaqti.
7. Qizlar va o'g'il bolalarining do'stligi hamda xamfikrligi.

8. Jamoa a'zilarini himoya qilish.

Mustaqillik sharoitida tarbiyaviy ishlar jarayoniga va guruh rahbari faoliyatiga qo'yilgan talablar.

Pedagoglarda biz albatta oliyjanoblik hissini tarbiyalashimiz shart. Oliyjanoblik qalbning o'ziga hos holatidir. Bu holat insonda sokinlik, hurmat, mehr, g'urur hislarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Oliyjanoblik hissi har bir insonda yoshligidan tarbiyalanib o'ziga to'g'ri baho berishga yordam beradi. Bu hislat har bir inson uchun lozim, ammo pedagog uchun bu zaruratdir. Chunki faqat oliyjanob odamgina talablarda bu hislatni uyg'otishi va rivojlantirishi mumkin. Qanday qilib o'zini hurmat qilmagan inson boshqalarga o'zini hurmat qilishni o'rgatish mumkin.

Faqat ichki uyg'onlikka ega bo'lgan insongina boshqalar hayotga ham uyg'unlak kiritishi mumkin. Oliyjanob inson boshqalarning muvafaqiyatidan hursand bo'ladi va mag'lubitidan aziyat chekadi. Pedagog esa talabalarning yutuqlarida hursand bo'lib qolmasdan balki lazzat ham oladi. Chunki bu yutug'da pedagogning ham kichkina ulushi bor. Mag'lubiyat bu pedagogning ham mag'lubiyatidir.

Pedagogga qo'yiladigan birinchi ahloqiy talab, bu talabga hurmat bilan, mehr bilan qarash. Ma'naviy shakllanish talabadan ko'p kuch vako'p vaqt talab etadi. Ichki qrama – qarshiliklar talabani hulqida salbiy ko'rinishlar vujudga kelishi mumkin. Bunday hollarda murabbiy eteket chegarasi doirasida ish olib borishi mehr va toqat bilan ish yuritishi shart. Murabbiy har bir shaxsni baholashda uning jamoadagi o'rniga, o'qishdagi muvafaqiyatlariga, ota – onasining nasl nasabiga qarab emas, balki shu talabning ichki dunyosini shakllanishi darajasiga, odamiyligiga qarab baho berishi lozim. Bu kamsitmaslik ularning tarbiyasi ustida ish olib borayotgan davrda nuqsonlarni yo'qotishga harakat qilish va hurmat bilan qarashi zarur.

Pedagogning talabalarga bo'lgan nisbatan bo'lgan munosabati mehr, hayri ho hlik va yordamida iborat bo'lishi kerak. Ma'lumki rivojlanish uchun yordam berish murakkab jarayon bo'lib, talabalar olidag qo'yib o'zi chetda qarab turishi va faqat shu talablar qanday bajarilayotganligini kuzatib borishi yetarli degan hulosaga kelgan pedagoglar katta hatoga yo'l qo'yadilar. Talabni qo'yish qiyin emas, lekin uni bajararilishiga erishish qiyin shuning uchun talablariga to'liq javob olgan pedagoggina o'z kasbining ustasidir deb tan olish kerak. yaxshi pedagog har bir talabga individual yondoshib, uning talablariga javob berishida qanday qiyinchiliklar vujudga kelayotganini, uni nima qiynayotganini sinchiklab o'rganishi lozim. Talabaga bu jarayonda hayri ho hlik bilan yordam qo'lini cho'zishi kerak.⁹

Pedagogning ishida muomalaning turli bosqichlarida uning emotsional kayfiyati: faoliyatga hozirlik ko'rish jarayonida, uni amalga oshirish davrida, munosabat amalga oshgandan keyingi his qilnadigan sezgilarda va kechinmalarda muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa biz kasbiy pedagogik munosabatni amalga oshirish uchun juda muhim bo'lgan pedagogning psixik holatlari va ularni faoliyati hamda munosabati jarayonida boshqarish muommasiga yaqinlashib kelayapmiz.

Kasbiy pedagogik munosabat jarayonida ijobiy kayfiyatni boshqarish muammolari nihoyatda muhimdir. Darsaga bo'lgan

⁹ Mahkamov M. «Bo'lajak tarbiyachilarninr pedarorik muloqat madaniyatini shakllantirish» nomzodlik dissertastiyasi. T., 2005.

psixologik rag'bat, guruh bilan bo'ladigan munosabatga rag'bat, o'zaro fikr almashish ilhomi degan ilhomning vujudga kelishi va amalga oishirilishi murakkab jarayondir. Dastlab pedagogning mustaqil psiologik yo'l tutishi asosida, uning pedagogik ishga munosabati uni jalb qiladigan bo'lajak faoliyati materialiga munosabati natijasida, talabalar bilan bo'ladigan munosabatidan qoniqishini oldindan his qilish asosida vujudga keladigan ilhom guruh bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilish paytida huddi ana shu bevosita aloqaga muhtoj bo'ladi, bevosita muomala asosida rivojlanadi va mustahkamlanadi.

Pedagogning talabalar bilan munosabati ijodiy kayfiyati pedagogning ijodiy individualligining o'ziga hosligi, talabalar jamoasining xususiyatlari, faoliyat sharoitlari va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali jarayondir. Pedagogning munosabatidagi kayfiyati pedagogik ta'sir ko'rastirishning ob'ektlari – sub'ektlari bo'lgan talabalarning ijodiy kayfiyati bilan ko'p jihatdan bog'liqdir. Buning ustiga pedagogning mustaqil psixologik yo'l tutishi asosida vujudga keladigan ijodiy kayfiyat uning guruh bilan uzviy hamkorligi paytida aynan talabalar bilan bo'ladigan munosabatga bog'liqdir.

Talabalar bilan bo'ladigan munosabat oldindan pedagogning ijodiy kayfiyatini hosil qilishda uning o'quv materialiga o'z hissiy munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini oldindan topishga intilishi muhim rol o'ynaydi: bular tegishli imo – ishoralar, yuz harakatlari, gapirish ohangidir. O'quv materialiga o'z munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini o'ylab olish, tabiiyki, darsga, tadbirga shunday psiologik tayyorgarlik ko'rishga tayanadiki, uning tarkibiy qismlari sanab o'tilgan. Darsda tadbirlarda o'z fikrlari, his – tuyg'ularini qanday qilib yaqinroq va yorqinroq gavdalantirish ustida mulohaza yuritir ekan, pedagog bo'lajak faoliyat vaziyatga kirib boradi, unga chog'lanadi, uning shakllarini his qiladi, faoliyatga bo'lgan o'zining hissiy munosabatini yetkazish vositalarini izlaydi.

Tarbiyalanuvchilar bilan muomalada kishi o'zini boshqara bilishi nihoyatda zarurdir. Pedagogning darsdagi yomon, noijodiy kayfiyati darhol umuman guruhning ijodiy kayfiyatiga ta'sir qiladi, birgalikdagi faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Ijodiy kayfiyatini boshqarishining taklif etilgan tizimi individual o'zlashtirishni, o'z ustida muntazam o'ynaltirilgan ish olib borishni talab qiladi.

Tarbiyalanuvchilar bilan muomala jarayonida va bevosita undan oldin ijodiy kayfiyatni boshqarish – pedagog mehnatining eng muhim kasbkorlik talabi bo'lib, u pedagogning guruhda, tarbiyalanuvchilar bilan muomalada va shu kabilarda erkin bo'lishni, xulq – atvorning samarali bo'lishni ta'minlaydi. Pedagogik ijodkorlikning asosiy bosqichlariga nisbatan pedagogning ijodiy kayfiyatiga muomala ta'sirining qo'ydagi jixatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- pedagogning guruhdagi muomalasini oldindan payqashi uning ijodiy kayfiyatini safarbar qiluvchi omil ekanligi;

- guruh bilan dastlabki aloqa bevosita muomala paytida pedagog ijodiy kayfiyatining rag'batlantiruvchi omili sifatida;

- pedagogning guruh bilan muomalasi tizimi: u faoliyat jarayonida pedagogning ijodiy kayfiyatini rivojlantirishni qo'llab – quvvatlaydi va rag'batlantiradi;

- muomaladan qanoat hosil qilish shundan keyingi faoliyatda pedagogning ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil sifatida.

Pedagogning muomala jarayoni o'zida kechadigan bir qancha shart –sharoitlar bilan murakkablashadi. Muomala shart – sharoitlari muomala xarakteriga ancha ta'sir qiladi, aslida ular muomalaning kasbiy yo'nalishini ko'p jihatidan belgilab beradi. Muomalaning oshkoralik vaziyat ko'pgina qiyinchiliklar tro'g'diradi. Tadqiqotchilar qayd etib o'tganlaridek, kishilar oldida, katta auditoriya oldida muomala qilish auditoriyaning gapiruvchiga diqqat qilishga muljallanganbo'lib boshlovchilar uchun nihoyatda murakkabdir va maxsus tayyorgarlik ko'rmasdan o'tkazilishi mumkin emas. Faqat o'zaro fikr almashish malaka va usullarini egallashgina muomala jarayonida pedagogning hissiy kayfiyatini ta'minlaydi.¹⁰

Pedagogning ijodiy kayfiyatini boshqarishning alohida muhim muomalasi bunday kayfiyatni bevosita faoliyat oldidan chiqarish va safarbar qilish noijodiy kayfiyatni yengish hisoblanadi va hakozi.

Pedagogning ijodkorligida «jismoniy harakatlar» usulini ro'yobga chiqarishning o'ziga xosligi shundan iboratki, u pedagogga faqat bevosita ijodkorlik boshlanishidan oldin o'zining ijodiy tabiyyatini safarbar qilishning vositasi sifatidagina zarurdir, keyin esa «bordi – yu» holatidagi «jismoniy harakatlar» mantiqni ijodkorlik vaziyati bilan chinakkamiga ma'naviy moyillikka sekin – asta o'sib o'tadi.

Muomalada ijodiy kayfiyatni shakllantirish murakkab jarayondir. Bu yerda ko'pincha pedagog zo'riqish tuyg'usini boshidan kechiradi, buni pedagog ijodkorligining omma o'rtasidagi faoliyat, o'zgarib boruvchi ijodkorlik holati, o'zining psixikholatlarini operativ ravishda boshqarish zarurligi, mehnatning o'zaro fikr almashish jihatdan boyligi kabi xususiyatlarini taqozo qiladi.

Pedagog talabalar bilan hamkorlikda yashar ekan o'qituvchining entelektiga qat'iy rioya qilishi kerak. Unga ishonib aytilgan talabaning (sekretini) sirini hech kimga aytmassligi, uning ustidan kulmassligi va albatta u bilan samimiy bo'lishi shart.

Pedagoglarda biz albatta oliyjanoblik hissini tarbiyalashimiz. Oliyjanoblik qalbning o'ziga hos holatidir. Bu holat insonda sokinlik, hurmat, mehr, g'urur hislarining qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Pedagogning talabalarga nisbatan bo'lgan munosabati mehr, hayrihohlik va yordamidan iborat bo'lishi kerak. Ma'lumki rivojlanish uchun yordam berish murakkab jarayon bo'lib, talabalar olidag qo'yib o'zi chetda qarab turishi va faqat shu talablar qanday bajarilayotganligini kuzatib borishi yetarli degan hulosaga kelgan pedagoglar katta hatoga yo'l qo'yadilar.

Nazorat uchun savollar.

1. Oliyjanoblik deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagog va talaba o'rtasidagi munosabatni shakllantirishda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Munosabatlar samimiy bo'lishi uchun nima qilish kerak?
4. Talaba va pedagog o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni qanday yuzaga keltirish mumkin?
5. Hozirgi kunda pedagog bilan talaba o'rtasida “devor” bo'lishi kerak deb o'ylaysizmi?

8-mavzu: Tarbiyaviy ish va uni tashkil etish metodikasi

¹⁰ A.Alieva «Bo'lajak pedarorda muomala madaniyatini shakllantirishnir o'zira xos xususiyatlari» T., 2001, maristirlik dissertastiyasi

Reja:

1. Tarbiya pedagogikaning kategoriyasi sifatida
2. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining maqsadi
3. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining vazifalari

Tarbiya- ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir. Bugungi kunda tarbiya metodlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. So'z orqali ifodalash metodi.
2. Ko'rgazmalilik metodi.
3. Amaliy, na'muna
4. Rag'batlantirish va jazolash .

Birinchi guruh- so'z orqali fikrni bayon etish, maslahat berish, yo'naltirish, suhbat, hikoya, ma'ruza.

Ikkinchi guruh- kinofilmlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va adabiyot.

Uchinchi guruh- tarbiya ma'lumotlarini Amaliy mehnat xarakatlari orqali berish, o'rnatish, namuna va ibratdan foydalanish.

To'rtinchi guruh- talabalarni yaxshi bajarilgan ish uchun rag'batlantirish. Rag'batlantirish ma'naviy va moddiy ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Jazolash metodi ham kam ishlatilishiga qaramasdan o'zining ma'lum ta'sir kuchiga ega. Jazolashga- tanbeh berish, qattiq ogohlantirish, uyaltirish kabilar kiradi.

Mazkur "Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti" fanining o'qitilishi ham aynan ushbu qarorga asosan pedagogikaga ixtisoslashgan mutaxassislar uchun ishlab chiqilgan. Bunda uslubiyot tarbiya nazariyasining umumiy qoidalariga asoslanishi, lekin ularni takrorlamasligi, bu qoidalarni ro'yobga chiqarish usullarining vositalari, yo'llari va shakllaridan iborat bo'lishi lozim.

Tarbiyaviy ish uslubiyotini o'rganish talabalarni tarbiyalashning umumiy masalalarini mustaqil, ijodiy va dadil hal qilishga tayyorlashi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirishi uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor shaxs shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqazo etadi.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy – tarixiy an'analarga, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining asosiy vazifasi esa – shaxsning aqliy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun: yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z – o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

Talabalarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib–boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

Har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko'rish;

Insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushinadigan, mehribon, shafqatli, irqiy kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik) muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo'llanishi lozim.

Tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir shaxs, o'smir va yosh yigit – qizning betakror va o'ziga xosligini e'tiborga olish;

Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ishiga va turli yoshdagi tarbiyalanuvchilarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish lozim.

O'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti "Pedagogika" fanining bir qismi bo'lib, fan sifatida ajralib chiqdi. Va o'zining nazariy, uslubiy, Amaliy asoslarini yaratdi. Natijada tarbiyaviy ishlarining tarmoqlari vujudga keldi. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fani bir necha qismga bo'lib o'rganiladi. Bular quydagilardir: "Odobnoma fanini o'qitish" metodikasi, "Jamoani tashkil qilish" metodikasi, "Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlarni tashkil etish" metodikasi hamda "Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla hamkorligini amalga oshirish" metodikasi va hokozolar.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti "Pedagogika" fanining bir qismi bo'lib, fan sifatida qaraladi va o'zining nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada tarbiyaviy ishlarining tarmoqlari vujudga keldi. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fani bir necha qismga bo'lib o'rganiladi.

Demak bu fanni o'qitishdan maqsad kelajakda talabalarimizga ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiyaga davr talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondoshishni, ishni sifat, mazmun jihatdan to'g'ri tashkil etishni o'rgatishdan iboratdir.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy – tarixiy an'analarga, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Pedagogik texnika – bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beradi. Talabalar bilan bevosita muomala qilishda pedagogning xuddi ana shu malakalari (yoki ularning yo'qligi) uning xulq atvorida namoyon bo'ladi.

Pedagogik mahorat bu fahm – farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlikning, talabalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan talaba shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya bo'lgan qobiliyat majmuasidir.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari pedagog rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual – shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol

o'ynaydi.

O'zbekistonning mustaqilligi tufayli ota – bobolarimizning axloq – odob haqidagi hikmatli hikoyalari, naql – rivoyatlari yoshlarning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni biz Odobnoma fanining o'qitilishi misolida ko'rishimiz mumkin. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda esa har bir pedagog axloq odob haqidagi bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanini o'qitishda jamoani tashkil qilish metodikasiga katta e'tibor beriladi, chunki shaxsni jamoada tarbiyalash bilangina jamiyatni yuksaltirish mumkin. Bu vazifalarni esa biz odatda guruh rahbarlarining zimmasiga yuklaymiz. Guruh rahbarlari o'z navbatida guruhdagi talabalarning bevosita ta'lim – tarbiya jarayoni, ya'ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga ma'suldirlar.

Keyingi yillarda davlatimiz qabul qilinayotgan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv maskanlarining nufuzini yanada yuqori pag'onaga ko'tarishni taqozo etadi. Shu maqsadda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va uni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida biz sizlar bilan o'qish davomida ushbu uslublardan foydalangan holda darslarni tashkil etamiz. Va har bir yo'nalishga alohida to'xtalib o'tishga harakat qilamiz. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda huquq – tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, Davlat va nodavlat jamg'armalar, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanini dolzarb muammolari va uni amalga oshirish yo'llari. Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o'z vatanining ilg'or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

Yangi asrga qadam qo'yar ekanmiz mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy yukasalishi va yangilanishi sari yuz tutgun bir paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 3-sentyabrdagi “Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining qo'llab quvvatlash to'g'risida”gi Farmoni zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon ulkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushinib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Ma'naviyati yuksak Shaxslar yurtini tanitadi. Shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat – tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim – tarbiyasiz

ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!" degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk shaxs yaratishga e'tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi.

Mazkur "Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti" fanining o'qitilishi ham aynan ushbu qarorga asosan pedagogikaga ixtisoslashgan mutaxassislar uchun ishlab chiqilgan. Bunda uslubiyot tarbiya nazariyasining umumiy qoidalariga asoslanishi, lekin ularni takrorlamasligi, bu qoidalarni ro'yobga chiqarish usullarining vositalari, yo'llari va shakllaridan iborat bo'lishi lozim.

Tarbiyaviy ish uslubiyotini o'rganish talabalarni tarbiyalashning umumiy masalalarini mustaqil, ijodiy va dadil hal qilishga tayyorlashi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirishi uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor shaxs shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqazo etadi.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy – tarixiy an'analarga, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining asosiy vazifasi esa – shaxsning aqliy erkin fikrlovchi, axloqan barkamol va jismoniy jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirish hamda uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun: yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z – o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

Talabalarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib–boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

Har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarida joriy qilib ko'rish;

Insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir – birini tushinadigan, mehribon, shafqatli, irqiy kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik) muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo'llanishi lozim.

Tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir shaxs, o'smir va yosh yigit – qizning betakror va o'ziga xosligini e'tiborga olish;

Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ishiga va turli yoshdagi tarbiyalanuvchilarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish lozim.

O'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

Respublika mexnatiga qo'shiladi» mavzusida mehnat xafталigi va o'n kunliklari tashkil qilish mumkin. Bu xildagi ishlar o'z mazmuni bilan o'quvchilarda yuksak fuqarolik fazilatlarini shakllantiradi, g'oyaviy-siyosiy

mehnat hamda axloqiy tarbiya uyg'unligi ta'minlaydi va ana shular tarbiyadagi namunaviy munosabatni ifodalaydi.

Guruh rahbari tarbiya ishlari tizimidan xam majmuaviy munosabat xa vaziyatni yaratish maqsadida foydalanish kerak. Chunki tarbiyada vazifalar yaratadigan tarbiyani undan o'z maqsadi uchun juda keng va unumli foydalana oladi ham.

G'oyaviy axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi g'oyaviy axloqiy jixatidan yetuk va faol yoshlarni tayyorlashdir. Eng muhim vazifalardan esa, bu talabalarni axloq talablariga muvofiq takomillashtirishga tomon yo'naltirishdir. Har bir talaba o'zini-o'zi tarbiyalashning maqsadini aniqlab olishga yordamlashmoq kerak. Buning uchun har bir o'quvchining extiyoj va qiziqish darajasini o'rganish ularga o'z extiyojlarini jamiyat manfaatlariga, hal etilayotgan ijtimoiy vazifalarga bo'ysintirishga, o'z jamoasi sharoitida vujudga kelayotgan extiyojlarni ko'ra olishga va nihoyat ularning hal qilishning aniq shart-sharoiti va haqiqiy imkoniyatlarni topa olishga o'rgatish gurux rahbarining burchidir. G'oyaviy ahloqiy tarbiya vazifalarini amalga oshirish, o'quvchilarni g'oyaviylik, baynalmilallik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash; shaxsning faol pazittsiyasini tarkib toptirish; axborotlar oqimida o'ziga to'g'ri yo'nalish ola bilishga o'rgatish; milliy g'oya uchun kurash jarayonida o'zining faol faoliyati bilan ishtirok etishga tayyorgarlik; mehnat faoliyatida g'oyaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Talabalarni g'oyaviy-siyosiy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda dunyoqarashni shakllantirish asosan darsda hal qilinadi, lekin bu ish gurux rahbari faoliyatida alohida o'rin tutish kerak. Lekin bu muhim masalani hal etishda gurux rahbari quyidagi vazifalarni majmual hal qilish kerak:

1. Talabalarni ma'lum bir darajadagi siyosiy bilimlar, dunyoqarashga doir g'oya va tushunchalar bilan qurollantirish;

2. Talabalarda fuqarolik xislarini hosil qilish, ya'ni o'zining mamlakatdagi, xalqi hayotidagi voqealarga aloqador ekanligini anglashiga erishish, vatanparvarlik, baynalmilallik sifatlarini tarbiyalash;

3. Talabalarni ijtimoiy-siyosiy amaliyotga, ijtimoiy foydali ishlarga mehnat faoliyatigafaol jalb qilish yo'li bilan ularda ijtimoiy-siyosiy tajribani barpo etish.

Gurux rahbari talabalarining darsda egallagan g'oyaviy-siyosiy bilimlarni darsdan tashqaridagi turli tarbiyaviy ishlar vositasida kengaytirildi. Bu ishlar vaqt o'lchovining chegaralanmaganligi, emotsional ta'sir imkoniyatining kengligi shaxsiy ehtiyojga muvofiqligi tufayli talabalar tomonidan darsdagidan ko'ra boshqacharoq qabul qilinadi. Bu narsa ya'ni milliy g'oyalar xar bir kishining xulq-atvorida, har bir jamoa va har bir tashkilotning faoliyatidagi ishlar bilan uzviy bog'lab olib borilishi lozim. Ana shunga amal qilgan guruh rahbari har bir talabani va butun guruh jamoasini faol ijtimoiy ishlarga jalb qiladi, ularda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatda qatnashish extiyojini uyg'otadi, bu esa g'oyaviy-siyosiy tarbiyaning natijasidir.

Talabalarining o'zlari gazeta va jurnallardan maqolalar to'plami guruh burchagida ko'rgamalar tayyorlashi, maxsus gazetalar chiqarishi, axborotlarni o'zlari mustaqil o'tkazishlari foydaldir. Yuqori kurslarda bu ishlarning mazmuni, shakli va metodlari yanada murakkablashadi, manbalar hajmi ko'payadi va ular

xalqaro voqealarga doir ma'ruzalar talabalar anjumanlari, jamoatchilik muhokamalari, munozaralar shaklida o'tadi.

Siyosiy axborotlar talabalarda siyosiy bilimlarga chuqur qiziqish uyg'otish, gazeta o'qish, ichki va tashqi voqealarga doir radio eshittirishlarni va teleko'rsatuvlarni tinglash va kurish ehtiyojini tarbiyalash kerak. Guruh rahbari bolalarning turli hil voqealar haqidagi o'zaro mulohazalardagi noto'g'ri fikrlarni tuzatishi, ijtimoiy xayotning muxim voqealarini ilmiy asosda sharxlab berishi g'oyat muhimdir.

Ayni vaqtda guruh rahbari talabalarning axloqiy shakllanishi, ma'naviy dunyosining tarkib topishi uchun ham g'amxo'rlik qiladi. Xalqimiz moddiy farovonligining, madaniy darajasining, ma'naviy dunyosining o'sib borishi, mamlakatimiz ma'naviy hayotida eng ilg'or va eng insonparvar ijtimoiy munosabatlar tizimining qaror topganligi gurux rahbari amalga oshiradigan ahloq tarbiyasining muvoffaqiyatini ta'minlash uchun garovdir.

Talabalarning axloqiy shakllanishi faoliyat jarayonida ro'y beradi. Faoliyatni tashkil etish bilan gurux rahbari har bir talaba shaxsini g'oyaviy – axloqiy jixatdan tarkib topishni ta'minlaydi. Talabalarni faoliyatning ma'lum bir turiga jalb qilish aniq maqsadga qaratilishi kerak.

Talabalarni axloq nazariyasiga doir bilimlar bilan qurollantirish va ularni ijtimoiy hayot voqealaridan axloqiy tomonlarni ajrata olishga, axloq me'yorlariga muvofiq baxolashga o'rgatish bilan gurux rahbari yigit-qizlarning o'z xulqini axloq me'yor va qoidalari nuqtai nazaridan idora qila olishlariga erishadi.

Yoshlar bilan o'tkaziladigan odob va axloqqa oid suhbatlar ulaar ishtirok etadigan ijtimoiy foydali va unumli mexnat, turli xil ijod ishlari «Kamolot» tashkiloti faoliyati bilan uzviy bog'liq tarzda borsagina, ijobiy natija beradi.

Axloqqa oid suhbatlar samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biri talabalarning ongi bilan xulqi o'rtasidagi birlikni ta'minlash hisoblanadi. Axloqiy bilim berishdan maqad, tashqi ta'sirni ongli harakat bilan bog'lovchi ichki istakka aylantirishni ta'minlashdir. Bunda u o'ziga ma'lum bo'lgan axloq me'yoriga rioya qilgan holda to'g'ri harakat qilish yo'lini tanlab olishga o'rganadi. Masalan, gurux rahbari o'z suhbatini shunday boshlaydi. «Avtobusda ketayotgan bir necha yoshlar qo'llaridagi radiopleyni baland qo'yib, allaqaysi gurux ijrosidagi sershovqin kuy tinglab borardilar. Keksa ayol ulardan ovozni pasaytirishni iltimos qilib qoldi. Bunga javoban «Eshitgingiz kelmasa qulog'ingizni berkitib oling»dedi yoshlardan biri. Ikkinchisi esa vaziyatni yumshatish uchunmi, yoki noqulay axvoldan chiqish uchunmi har xolda «Xolajon, siz zamonaviy kuylarni yomon ko'rarkansiz-da»--dedi, uchinchisi esa, «Siz birginasiz, biz esa ko'pchilikmiz. Ko'pchilikni istagini xurmat qilish kerak buvijon!»-- deb qo'shib qo'ydi. Gurux rahbari talabalar bilan vujudga kelgan ushbu vaziyatni muhokama qilib, o'z fikrlarini bildirishni taklif qiladi.

Axloqiy bilim berishda gurux rahbari bilan oilaviy hamjixatlik g'oyat muhim omildir. Shuning uchun yoshlar bilan bir qatorda ota-onalar o'rtasida ham axloqiy tarbiyaga doir bilimlar tarqatish kerak. Axloqqa oid suxbatlarni bir oyda bir marta o'tkazgan ma'qul. Har bir suhbatga 7-10kun tayyorlaniladi. Suhbat vaqti 40-45 minutdan oshmasligi kerak. Navbatdagi suxbatga tayyorlik

davrida gurux raxbari hamda yoshlar turli xil faoliyatda ishtirok etadilar. Mavzu tanlashda guruh rahbari mamlakatning ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan voqealarga, o'quv materialining mazmuniga, talabalarining axloq me'yoriga doir bilimlari darajasiga asoslanadi.

Axloqiy ongni shakllantirishda guruh rahbari suhbatlar bilan bir qatorda tushuntirish, ma'ruza, namuna-ibrat kabilardan xa keng foydalaniladi. Ana shu jarayonda u talabaning axloqiy mulohazasini o'stirishga o'zining va boshqalarning xulqini axloq me'yorlari asosida baholay olishga qaratilgan ishlarga, ularni jalb qilishga alohida e'tibor berish lozim. Odatda talabalar o'rtoqlarining, atrofdagi kishilarning xulqidagi ijobiy, salbiy tomonlarni baholay olganlari holda o'z xulqidagi tomonlarga u qadar e'tibor berishmaydi va ularda o'z xulqini baholash ancha kech ko'rinsa boshlaydi. Mana shuning uchun gurux rahbari talabalarni o'z xulqini baholash ancha kech ko'rinsa boshlaydi. Mana shuning uchun gurux raxbari talabalarni o'z xulqini axloq me'yor va talablari asosida quyi kurslardan boshlaboq baholashga o'rgata boshlashi maqsadga muvofiqdir.

Gurux raxbari axloq tarbiyasini amalga oshirishda har bir talabaning xulqiga, xarakter xislatlariga alohida e'tibor berib borishi kerak. Guruhda pedagogik qarovsiz qolgan, tarbiyasi qiyin bolalarga ham uchraydi. Agar bu xil bolalarning xulqi o'z vaqtida tuzatilmasa, u jamiyatdagi axloq me'yorlariga xilof yo'nalish kasb etishi ham mumkin. Shuning uchun ham guruh raxbari bu xil yoshning xulqidagi salbiy yo'nalishni qancha tez aniqlasa, uni tuzatishga qanchalik tez va faol aralashsa, shuncha yaxshi ish qilgan bo'ladi.

Gurux rahbarining axloqiy tarbiyani amalga oshirishi metodik asosga ega bo'lsagina samara beradi. Buning mohiyati gurux rahbarining talabalarni axloqiy rivojlantirishga qay darajada ta'sir qila olishidadir, ya'ni talabaning yoshi, guruxi, shaxsiy xususiyati hisobga olinishi kerak.

Axloqiy mavzular yuzasidan munozaralar o'tkazish talabalarda axloqiy e'tiqod, qarash va nuqtai nazarni shakllantirishning muhim vazifasi hisoblanadi.

Munozara vaqtida gurux rahbari betaraf turishi foydalidir. Munozara oxirida guruh rahbari yakun chiqaradi. Munozara uchun yoshlarni to'liqlantirayotgan masalalar mavzu bo'ladi, masalan: «Hayotda o'z o'rnini topishning ma'nosini qanday anglaysiz?», «Yashashning ma'nosi va xayotdan maqsad», «Inson qachon baxtli bo'la oladi?», «Zamonaviy bo'lishning ma'nosi nimada?».

Gurux rahbari har bir mavzuning mazmuniga kiradigan masalalarni aniqlashda talabalarga yordam beradi.

Masalan: «Hayotda o'z o'rnini topishning ma'nosini qanday anglaysiz?» mavzusi uchun asos qilib quyidagi masalalarni olish mumkin:

«Hayotda o'z o'rnini topish» iborasini qanday tushinasiz?

Qanday orzuni eskirgan deyish mumkin?

Baxt va hayotdan lazzatlanish, ular o'rtasida farq bormi?

Shaxsiy erkinlikni qanday tushunasiz?

Sizning g'oyangiz kabi masalalarni tavsiya qilish mumkin. «Yashashning ma'nosi va hayotdagi maqsad» mavzusiga.

1. Hayotning «ma'nosi» va «maqsadi» bir xil tushunchami?

2. Hayotimiz qo'ygan qadamimizga qanchalik va qay jihatdan bog'liq bo'lish mumkin?

3. «Qanday yashash kerak», «Nima uchun yashash kerak», bu masalalarning xar birini qanday anglash kerak?

4. «Yashashning ma'nosi» va «Baxt» tushunchalari o'rtasida o'zaro o'xshashlik bormi? Bo'lsa nimada, kabi masalalar asos qilib olinishi maqsadga muvofiqdir.

Munozara uchun tavsiya etilayotgan bu mavzular yoshlarning fikrini band qiladigan asosiy mavzular bo'lib, ulardan qaysi birini tanlash, qanday uyushtirish gurux o'quvchilarning ehtiyojiga, jamoadagi kayfiyat va qiziqishga bog'liq. Bu mavzular mazmuniga kiradigan masalalar xammasi axloq, ma'naviy xayot bilan bog'liq bo'lgan bo'lib, ular yuzasidan yuritiladigan baxslar yordamida talabalar axloqiy bilimga jamiyatdagi odamlar munosabati bilan bog'liq me'yor va qoidalarga oid tushunchalarga ega bo'ladilar, asta-sekin ularda ishonch va qarashlar tarkib topa boradi.

Gurux rahbari faoliyatining mazmuniga kiradigan axloq tarbiyasi faqat yuqoridagilar bilangina hal bo'la qolmaydi. Axloqiy tarbiyani amalga oshirish murakkab jarayon bo'lib, asosiy e'tibor talablarda axloqiy ong, axloqiy his, tushuncha, muloxaza kabilarga muvofiq axloqiy malaka va odatlarni shakllantirishga qaratilishi kerak.

Nazorat uchun savollari:

1. Tarbiya jarayoni deb nimaga aytiladi.
2. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining maqsadi nimalardan iborat?
3. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti fanining vazifalarini nimalar tashkil etadi?
4. Tarbiyaviy ishni tashkil etish metodikasi

16-mavzu: Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishdga texnologik yondashuv

Reja:

1. O'qituvchini innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.
2. O'qituvchining innovatsion faoliyatni shakllantirish shartlari.

Tayanch iboralar: *innovatsiya, xususiy yangilik, diagnostika, qoliplashtirish, o'kituvchining innovatsion faoliyati, aksiologiya, akmeologiya, kreativlik, refleksiya.*

1.1. O'qituvchini innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.



Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar. Birinchi shaklga yangilik kiritishni oddiy ishlab chiqish kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir. Ikkinchi shaklga yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir. Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir. Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy o'rin tutadi.

Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi. Xususiy yangilik aniqlanishicha, joriy zamonaviylashtirishda

muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi. Mahalliy yangilik konkret ob'ektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi. Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ekt uchun ob'ektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar. R.N.YUsufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.YUsufbekova innovatsion jarayon tuzulmasining uch blokini farqlaydi: Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi. Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlari, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi. Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tadbiiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir.

Ayovsiz bemaorlik qonunida pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo'linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va qimmatini keng yoyadi. Nihoyat amalga oshirish qonuni yangilikning hayotiyliigi bo'lib, u erta yo'kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi. Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipga tushirish va amaliy harakatga o'tirish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklarning amalga oshirish yo'liga to'siq bo'lishga majbur bo'ladi. Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytirishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi. Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar: Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi. Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir. Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin: • madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv; • shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;

• ko'p sub'ektkli (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish; • individual - ijodiy (o'qituvchi va tinglovchilarning o'zaro munosabatlari) yondashuv. Oliy maktabda innovatsion faoliyatning sub'ekti o'qituvchi, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Unga quyidagilarni kiritadi: o'qitirishning Hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o'quv - tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning yangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a'lo darajada eng bilish, o'sirish va mustahkam o'rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari,

istiqbollari bilan qoniqish, o'zining sotsial roli funksiyasini bajarishida faol munosabatda bo'lish va hokazo. Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini- o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri tinglovchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish. Bunday yo'nalish tinglovchilarning o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi. Tayanch yo'nalishlar - ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, ularning o'zaro aloqalarida yangi tamoyillarga o'tish. SHunday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi tahlili uning eng muhim yo'nalishi gumanistik aksiologiya ekan degan xulosaga olib keladi. Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamini anglatadi. Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan- bir maqsadi sifatida qaraydi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi. O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. Insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga etishdagi balandliklardan o'ta olish masalalari muximdir.. Ob'ektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub'ektiv omillari esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas'uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi. YUksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- iste'dod nishonalari;
- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste'dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;
- o'quv yurti;
- o'z xatti-harakati. Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:
 - ijodiy individuallik;
 - o'zining o'sish va takomillashish jarayoni;
 - o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi. O'qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:
 - intellektual - ijodiy tashabbus;
 - bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliya ti;
 - ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;
 - axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayri odatiylikka va yangilikka bo'lgan his-tuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik . Ijodiy individualizmni ro'yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:
 - ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;
 - pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;
 - samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;
 - shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z rivojlanishini ta'minlash; SHu tariqa o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi. Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining

betakror ekanligini anglay olishi; o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlari to'plami; individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uyg'unligi, ichki birligi; shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga Hozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglay olishi. Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvda uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi. O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir. Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrining ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.).

O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin: Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar tuzukkina ko'chiriladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; uchinchi bosqichda g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; to'rtinchi bosqichda o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiyasi va metodikasi yaratiladi. O'qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiyadir. Refleksiya o'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olish deb qaraladi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an'anasi mavjudligi aytiladi:

• ob'ektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili;

• shaxslararo muloqot ma'nosini tushunish refleksiyasi; Bu bilan bog'liq ravishda pedagog olimlar quyidagi reflektiv jarayonlarni farqlaydilar:

- o'z-o'zini va boshqalarni tushunish;
- o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish;
- o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

Refleksiya (lotincha Reflexio- ortga qaytish) sub'ektning o'z (ichki) psixik tuyg'u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi. Falsafa va pedagogikaga oid adabiyotlarda refleksiya shaxsning o'z ongidagi o'zgarishlarni fikrlash jarayoni deb yoziladi. Psixologik lug'atda shunday izoh beriladi: "Refleksiya - faqat sub'ektning o'z-o'zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg'usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi.

3.2. O'qituvchining innovatsion faoliyatni shakllantirish shartlari.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari. Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir. Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi. O'qituvchining innovatsion

faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishini ko'zda tutadi. O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi. O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. YAngilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi. Keyingi sharti - bu o'qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi. O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini echishni aniqlashga qaratilgandir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. YAngi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyati bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish. Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi: • ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;

- ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqazo qiladi;

- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi. O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi YAngilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, sub'ektiv

darajalarini farqlaydilar. Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi. Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi. Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiriladi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob'ektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.. O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi. Qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o'z kamolotiga intilish va boshqalar;¹¹

- kreativlik. Bu – hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo'lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o'zicha mushohada yuritish, refleksiya;

- kasbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;

- o'qituvchining individual qobiliyati. Bu - ijodiy faoliyat sur'ati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat'iyatlik, o'ziga ishonch; mas'uliyatlilik, halollik, haqiqatgo'ylik, o'zini tuta bilish va boshqalar. Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o'qituvchining innovatsion faoliyatga Hozirligi me'yorlarini belgilashga imkon berdi :

- innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;
- ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;
- shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;
- ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga shaylik;
- innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;
- innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri;
- kasbiy refleksiya bo'lgan qobiliyat.

Oliy maktabdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri-o'qituvchi shaxsidir. O'qituvchi-novator sarmahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni, ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim. O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim: • yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish; • yangicha harakat qila olishga o'rgatish. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda tinglovchilarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega. Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

¹¹ Kärkkäinen, K. and S. Vincent-Lancrin "Sparkling Innovation in STEM Education with Technology and Collaboration: A Case Study of the HP Catalyst Initiative", OECD Education Working Papers, No. 91, 2013. OECD Publishing. <http://dx.doi.org/10.1787/5k480sj9k442-en>. -128 p.

Nazorat savollari

1. O'qituvchini innovatsion faoliyati deganda nimani tushunasiz.
2. O'qituvchining innovatsion faoliyatni shakllantirish shartlari.
3. Kreativlik nima?
4. Ob'ektlar mohiyatini izohlash
5. Ongning reflektiv tahlili
6. SHaxslararo muloqot ma'nosi.
7. Pedagog olimlar vazifalari

Foydalangan adabiyotlar

1. H. Fry, S. Ketteridge, S. Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Enhancing Academic Practice. Third edition. New York. 2009. -544 p. ISBN 0-203-89141-4
2. Use of Simulation in Pharmacy School Curricula, Health Workforce of Australia. <https://www.hwa.gov.au/resources/publications>. Accessed March 15, 2014.
3. Kärkkäinen, K. and S. Vincent-Lancrin "Sparkling Innovation in STEM Education with Technology and Collaboration: A Case Study of the HP Catalyst Initiative", OECD Education Working Papers, No. 91, 2013. OECD Publishing. <http://dx.doi.org/10.1787/5k480sj9k442-en>. -128 p.
4. YUzlikaeva E.R. Teoriya i praktika podgotovki uchitelya k diagnosticheskoy deyatel'nosti: Avtoref. dis. ... doktora ped. nauk. – Tashkent: TGPU, 2012. – 42 s

V. AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLARI



1-amaliy mashg'ulot: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha

Ishdan maqsad: : Talabalarga Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida to'liq ma'lumot berish, fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari haqida to'liq ma'lumot berish va uning kategoriyalari tushuntirish va lar xaqida bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantirish.

Masalaning qo'yilishi: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalarga tezkor so'rov-savollarini qo'llagan holda kichik guruhlarda ishlash ,klaster va Pinbord usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarish uchun namuna

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun etarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tayziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

“Tezkor- so'rov savolari”

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani nimani o'rganadi?
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining vazifalari nimadan iborat?
3. sharq pedagogikasi namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
4. Tarbiya nima?
5. ta'lim nima?
6. Ma'lumot nima?
7. Ta'lim va tarbiyada muhim metodlarni qo'llashning ahamiyati nimada deb o'ylaysiz

1 guruhga beriladigan topshiriq

O'qitish (o'rgatish, ta'lim berish) - bu nima?

To'g'ri javobni aniqlang. Keltirilgan javoblardan ikkitasi xato ekanligini isbotlang.

1. O'qitish tarbiyalanuvchilarni hayotga tayyorlash maqsadida tarbiyachining bilimlarini talabalarga berish.

2. O'qitish jarayoni - bilim, mahorat, malakaga ega bo'lish maqsadida talabalarning mustaqil ta'lim olishini tashkil qilishdir.
3. O'qitish - tarbiyachining bilim, mahorat va malakasini talabalarga berish, hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyatidir.
4. O'qitish - bu bilim, mahorat va malaka tizimlarini ongli va mustahkam egallashi uchun yo'naltirilgan pedagog va talabalarning ikki tomonlama faoliyatidir. Bunda aqliy qobiliyatlari va bilish manfaatlari rivojlanadi, bilish faoliyatining uslublarini egallash amalga oshiriladi, ilmiy dunyoqarash shakllanadi.
5. O'qitish - pedagogning talabalar bilan munosabatlari, bunda bilim, ko'nikma va malaka beriladi.

2 – guruhga beriladigan topshiriq.


Pedagogika tizimiga kiradigan fanlar qaysi guruhga kiritilganligini ko'rsating.

1. Didaktika, psixologiya, tarix, falsafa, maktabshunoslik, tarbiya nazariyasi, maktab gigienasi, solishtirma pedagogika.
2. Umumiy pedagogika, yosh davrlar pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, alohida predmetlarni o'rganish uslubiyoti, maxsus pedagogika, pedagogika tarixi.
3. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi, maktab pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, kasb – xunar – texnika ta'lim pedagogikasi.
4. Umumiy pedagogika, etika, estetika, yoshga doir pedagogikasi, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, maktabshunoslik.

3 – guruhga beriladigan topshiriqlar.

Tarbiya jarayoniga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif keltirilgan.

1. Tarbiya bu o'quvchilarni bilim, ko'nikma malakalar bilan qurollantirib bilim qobiliyatlari rivojlantiruvchi jarayondir.
2. Tarbiya chegaralangan bo'lib, ikki yoqlama olib boriladigan jarayondir.
3. Tarbiya bu tarbiyachi o'zi xoxlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga maqsadga muvofiq tizimli ta'sir ko'rsatishidir.
4. Tarbiya – ta'lim tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, xosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.



Guruhlarda ishlash qoidasi.

Har biringiz o'z guruh a'zolaringizni diqqat, e'tibor bilan eshitishga xarakat qiling.

Guruhning har bir a'zosi faol, xamkorlikda ishlashi va topshirilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan yondoshishi kerak.


Har kim o'ziga yordam kerak bo'lganda so'rashi mumkin.

Hamma qat'iy tushunishi kerak:


- boshqalarga yordam berib o'zimiz ham o'rganamiz.
- biz bitta qayiqdamiz: yoki barobar suzib chiqamiz, yoki barobar cho'kamiz.

Muammoni pinboard texnikasi

Hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashni amalga oshirishga (inglizhdan pin – mahkamlash board – doska) kollektiv tarzda yagona yoki aksincha qarama – qarshi shakldagi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi



O'qituvchi taklif etgan muammo bo'yicha o'z nuqta'i nazarlarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumni boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi)



Fikrlarni taklif qiladilar va muhokama qiladilar, baholaydilar hamda eng optimal fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2ta so'zdan ko'p bo'lmagan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslaxatlashgan xolda:

- 1.xato bo'lganyoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- 2.baxsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- 3.fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;
- 4.shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz varaqlaridagi)guruxlarga ajratadilar;
- 5.ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: kollektivning yagona yokiqarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

Guruhlarda ishlashni baholash.

Guruhlar.	Javobning to'liqligi. (1,0)	Sxemalar da berilgan ligi (0,4)	Guruh ishtirokchisining faolligi 0,6)	Ballar.	Bahosi.
1					
2					
3					
4					
5					
6					

«Aqliy xujum» metodini qo'llaganda quyidagi eslatmaga rioya qiling.

- O'rtoqlarni fikrini hurmat qil;
- Qancha fikr ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- Agar fikrlar takrorlansa ajablanma va jahlingni chiqarma;
- Boshqalar fikrini tanqid qilma; fikrlar ko'pligi yangi fikrlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi;
- Fikrlaringda bir oz shubha bo'lsa ham, ularni aytishga harakat qil;

Talabalar bilimni quyidagi savollar bilan mustahkamlanadi:

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani nimani o'rganadi?
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani vazifalari nimalardan iborat?
3. Tarbiya tushunchasiga ta'rif bering?
4. Tarbiyaviy ishlarga qayiladigan zamonaviy talablar qaysilar?
5. Tarbiyaviy ishlar fanining maqsad va vazifalari?
6. Tarbiyaviy ishlar tizimi va uning asosiy bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsadi, boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

2-Amaliy mashg'ulot: Tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida

Ishdan maqsad: Ma'rifatparvar olimlarning ta'lim-tarbiya qo'shgan hissasi haqida hamda pedagogik texnologiya to'g'risida bilimlarni va to'liq tasavvurni shakllantirish.

Masalaning qo'yilishi: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalarga FSMU interfaol usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarish uchun namuna

Pedagogika fanini o'qitishda **“FSMU”** usulini qo'llanilishi
FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, baxs –munozaralar o'tkazishda yoki o'quv seminari yakunida, yoki o'quv rejasi asosida biron bir bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrlarini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshkalarga o'tkazishga, ochik xolda baxslashishga, shu bilan bir katorida o'quvchi –talabalarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini taxlil etishga, kay darajada egallaganliklarini baxolashga xamda tinglovchilarni baxslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Maksad :Ushbu texnologiya talaba va o'quvchilarni tarkatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini anik va kiska xolatda ifoda etib, tasdiklovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-Bosqich

- trener tinglovchilar bilan birga baxs mavzusini yoki muxokama etilishi kerak bo'lgan muammoni, yoki urganilgan bulimni belgilab oladi;
- trener ukuv mashgulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruxlarda ish olib borilishi va nixoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlalishi xakida tinglovchilarga ma'lumot beradi
- mashgulot davomida har bir tinglovchi uz fikrini erkin xolda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2-Bosqich

- Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarkatiladi:

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarkatilgan qog'ozdagi FSMU ning 4 bosqichini uz fikrlarini yozma bayon etgan xolda to'latadi.

- bir tinglovchi o'z qog'ozlarini tulatib bolgach, okituvchi ularni kichik guruxlarga bulinishlarini iltimos kiladi yoki uzi turli guruxlarga bo'lish usullaridan foydalangan xolda tinglovchilarni kichik guruxlarga bo'lib yuboradi;
- trener har bir guruxga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi; trener kichik guruxlarga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirilgan xolda 4 bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

3-Bosqich.

- kichik guruxlarda avval har bir tinglovchi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan gurux a'zolarini tanishtirib o'tadi. Gurux a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik gurux a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

Gurux a'zolari FSMU ni 4 bosqichini har biri buyicha umumlashtirib, uni ximoya kilishga tayyorgarlik ko'radilar;

4-Bosqich

Fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o'z fikrlarini ximoya etishi, isbotlashi mumkin.

5-Bosqich.

kichik guruxlar umumlashtirilgan fikrlarini ximoya kiladilar:

gurux, vakilari har bir bosqichni aloxida ukiydi iloji boricha izox bermagan xolda. Ba'zi bo'limlarni isbotlashi, ya'ni guruxning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

6-Bosqich.

- trener mashg'ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;
- quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojaat kiladi:
ushbu trening yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?
- ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?
- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlar tarqatiladi.


Tarqatma materiallar

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda islom ta'limoti tutgan o'rni.

Qur'oni Karim musulmonlarning hayotdagi yagona insoniylikni shakllantiruvchi yo'l boshchiga aylandi. Olloh taolo o'z xoxishi bilan to'g'rini noto'g'ridan, haqni noaqdan ajratib, odamlarga tushuntirish uchun payg'ambarlar yubordi va odamlarga to'g'ri yo'ldan yurish ixtiyorini berdi. Qur'oni Karimdagi "Inson" surasida shunday deyilgan: "Biz insonga to'g'ri yo'lni ko'rsatib qo'yganmiz. hoxlagani shukr keltiruvchi bo'lsin yoki kufr keltiruvchi bo'lsin"(3 oyat) Qur'onning ko'pchilik oyatlarida insonni ixtiyoriy o'zi bilan bo'lib u qilgan yaxshi va yomon ishlariga ham o'zi javobgardir.

Islom diniga mansub bo'lgan musulmonlarni aql zakovat bilan ish ko'rish, irodali, o'z so'ziga qat'iy bo'lishlikka, halol mehnat evaziga yashash, o'z ona Vatani va avlod ajdodlarini e'zozlashga chorlaydi. Yaxshilik- adolatli b'ylash, savob ishlarga qo'l urish. Sabr, mehnat va hunar egasi bo'lish,

Klaster metodi



Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sharq va g'arb olimlarining pedagogik qarashlar.

Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvchi yoki munosabatlariga muxtoj bo'ladi. Uning fikricha tarbi jarayoni tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhimdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim.

Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog'laydi. Zero, insonda komillikning muhim mezonlari aksak axloqlilikdir. Beruniy ham axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan xolda ta'rif beradi. Axloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va tarkib topadi deydi, u. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini belgilaydigan mezon sifatida qo'llaniladi.

L. N. Tolstoy shunday yozadi: "Tarbiya, biz o'qitish, tarbiyalashni xohlamas ekanmiz, murakkab va qiyinligicha qoladi. Agarda boshqalarni biz faqat o'zimiz orqali tarbiyalashimiz mumkinligini tushunib olsak, unda tarbiya masalasi yo'qoladi va hayot to'g'risidagi masala qoladi: O'zim qanday yashashim kerak!"

"Bolaning aqliy rivojlanishi asosi bo'lib xizmat qiluvchi, uning jismoniy rivojlanishi shartlari bilan tanish bo'lmagan ayol, aniq va to'g'ri harakat qila olmaydi, - deb yozadi K. Setkin.



Abu Nasr Farobiy ustoz O'Qituvchiga shunday talab qo'yadi: "Ustoz shogirdlariga katta zulm ham haddan tashqari ko'ngilchanglik ham qilmaslik lozim." Chunki ortiqcha zulum shogirdga ustozga nisbatan nafrat uygotadi-yu, ustoz juda ham yumshoq bo'lsa shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi. U o'qituvchiga bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanishni maslahat beradi. Uning fikricha:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish-o'rganishga moyillik bildirsalar, ularga ta'lim - tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.
2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha itoatsiz bo'lsalar, qattiq usul (majburlov) qo'llaniladi.



Birinchi yo'nalish: I Karimov o'zininr "YUksak ma'naviyat- enrilmas kuch asarida" shu nuqtai nazardan qararanda zaminimizda yashab o'tran buyuk allomalarimiz mutafakkir bobolarimizninr ibratli ha'eti va faoliyati bemisil ilmiy ijodiy kashfi'etlari burun ham johon ahlini hayratra sola'etranin g'urur bilan ta'kidlash lozim"¹

Ikkinchi yo'nalish: Qadriyatlarimizni ulug'lash milliy bayram va marosimlarni tashkil etish metodikasi. Ma'naviy – ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish o'quvchilar onrira, qalbira quyidari ma'naviy madaniy g'oyalarni sinrdirish muhimdir.

- " Halqninr maqsad va muddolarini ifodalaydiran, tarix sinovlaridan o'tishda halqninr ruhini ko'tarib, ularra ta'yanh va suyanhik bo'ladiran avlod bo'lish.

- Jamiyatimiz va davlatimizda bo'ladiran ko'plab ha'etiy muammolarra duch kelranda, ularni samarali echimini topish qobilyati shakllanran bo'lish

- Ma'naviy qadriyatlarimizni, ilm fan taraqqi'eti yutuqlari bilan boyitib borishda tashabbuskor bo'lish


- O'zlimizni chuqurroq anrlash

- Zamonaviy ahborot texnoloriyalari va komp'yuter tarmoqlaridan unumli foydalanish kabi sifatlarra eralik qilishda halqimizninr boy milliy qadriyatlari ijobiy ahamiyat kasb etadi.

3 yo'nalish: Umumhalq bayramlarini nishonlash va ularni tarbiyaviy ahamiyati.

Qanday» organayzerini to'ldiring

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va "Qanday" savoli orqali muammo hal qilinadi.



Jonlantirish uchun savollar:

1. Maʼnaviy- maʼrifiy ishlarni rejalashtirishni izohlab bering.
2. Barkamol avlodni maʼnaviy, maʼrifiy, milliy, ahloqiy tarbiyasi istiqboli haqida nimalarni bilasiz?
3. Tarbiyaviy tadbirlar tashkil qilish tamoyil, shakl, usullari va vositalarini izoxlab bering.

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:
 - V – bilaman
 - + - men uchun yangi ma'lumot
 - - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi
 - ? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.
2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	V	-	+	?
1.				
2.				
3.				

13-Amaliy mashg'ulot: Guruh rahbarining ota-onalar va jamoatchilik bilan guruh tarzidagi ishlash shakllari.

Ishdan maqsad: Guruh rahbarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlar haqidagi bilimini rivojlantirish.

Masalaning qo'yilishi: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalaraga "FSMU" metodi interfaol usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarish uchun namuna Oilada bola tarbiyasida halq milliy an'analaridan foydalanish.


“ O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab xamkorliri” konstepstiyasini amalra oshirish jaraēnida oilaninr vazifalari oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobra olish, farzandlar uchun ota-onalar har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarninr ota-onasira, Vatanira muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amho'r bo'lishni ta'minlash; oilada xuquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarininr o'z huquq va burchlarini anrlab etishlarini va ularra rioya qilishlarni ta'minlash; farzandlarra chuqur dunēviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib etishlarini ta'minlash; bozor munosabatlarira mos bo'lrn kasb hunar o'rnatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar onrira sinrdirish; bolalarninr ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish; bolalarni mustaqil fikrlashra o'rnatish, istiqloq g'oyalari va milliy mafkurara sadoqat ruhida tarbiyalash;

Soat millari texnologisini to'ldiring

Oilada bola tarbiyasida halq milliy an'analaridan foydalanish.

O'tgan zamon

Hozirga zamon



Kelasi zamon

Oilada ota-onalarning savodxonlik darajasini shakllantirish.

Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Oilalarni pedagogika yutuqlari bilan tanishtirish ularning mustaqamligini ta'minlash vositalaridan biridir. Ikkinchi tomondan esa, bu o'z navbatida, bolalarning tarbiyasida tegishli shakl va uslublarni takomillashtirish yo'llaridan biridir. SHuning uchun ham ota-onalarni, oilalarni tarbiyaga oid bilimlar bilan, tarbiya uslublari bilan qurollantirish nihoyatda zarur. Tarbiyaga oid bilim berish muammosi faqat ota-onalarning ishi bo'lib qolmasdan, balki keng ma'noda davlat ahamiyatiga molik ishdir. Xukumatimiz qarorlarida ta'kidlanganidek, barcha tashkilotlar, mehnat jamoalari, umuman jamiyat axloqiy sog'lom, ma'naviy boy, mustaqkam oilani vujudga keltirish to'g'risida, onalar maqadagi, mamlakatning kelajagi bo'lgan yoshlar maqadagi g'amxo'rlikni kuchaytirishi zarur. Ota-onalarning bolalar tarbiyasi maqadagi, ularni turmushga va mehnatga tayyorlash to'g'risidagi mas'uliyatini oshirish zarur.

2-o'quv topshiriq

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnoloriya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jaraenini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnoloriya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishra, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarra o'tkazishra, ochiq xolda baxslashishra xamda shu bilan birra baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinrlovchilarra tarqatilran oddiy qog'ozra o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar eki inkor etuvchi fikrlarni baen etishra erdam beradi.

F – fikrinrizni baen etinr

S – fikrinriz baenira sabab ko'rsatinr

M – ko'rsatran sababinrizni isbotlovchi dalil keltirinr

U – fikrinrizni umumlashtirinr

1-guruh

Savol	Ota-onalarning savodxonlik darajasini shakllantirish.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

Jonlantirish uchun savollar:

1. Farzand tarbiyalashda ota-ona qanday fazilatlari bilan namuna bo'la oladi?
2. Oilada farzandlarni ahloqiy tarbiyalashning qanday usullari mavjud?
3. O'zbeklarra xos qanday an'yanlarni bilasiz?

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	V	-	+	?
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				

14-Amaliy mashg'ulot: Tarbiyaviy ishda badiiy pedagogikani tarkibiy qismlarini qo'llanishi

Ishdan maqsad: Talabalarda badiiy pedagogikani tarkibiy qismlarini qo'llanishi haqidagi bilimni rivojlantirish.

Masalaning qo'yilishi: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalaraga "Assesment", "SWOT" metodi interfaol usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarilishidan namuna Talabalardan so'rovnoma o'tkaziladi

Yoshlar va badiiy adabiyot

Hurmatli yoshlar sizlardan bugungi kun yoshlarining badiiy adabiyotga, kitobga bo'lgan e'tibori va qiziqishlar doirasini o'rganish maqsadida kichik ijtimoiy so'rovnoma olinadi. Natijalar xolis va xaqqoniy bo'lishi uchun sizdan berilgan savollarga to'g'ri, aniq javob berishingizni so'raymiz. So'rovnomada ishtirokingiz uchun rahmat, sizning fikringiz kelajakda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

1.BO‘SH VAQTINGIZDA NIMA BILAN SHUG‘ULLANASIZ?

1. Kitob o‘qiyman
2. Kompyuter o‘yinlarini o‘ynayman
3. Kino ko‘raman
4. Do‘stlar bilan shahar aylanaman
5. _____
2. Ma’lumotlarni, bilimni nimadan olasiz?
A. Kitobdan
B. Internetdan
C. Ommaviy axbarot vositalaridan
3. Badiiy kitob o‘qib turasizmi?
A. Doim o‘qiyman
B. Ba’zan o‘qiyman
C. Yo‘q umuman o‘qimayman
4. Qanday turdagi kitoblarni o‘qiysiz?
A. Badiiy kitoblar
B. Ilmiy kitoblar
C. Publitsistik kitoblar
5. Sizningcha badiiy kitob kitobxonga nima beradi
6. Qanday janrdagi adabiyotlarni o‘qiysiz?

A. Drammatik
B. Dedektiv
C. Tragediya
7. Oxirgi marta o‘qigan badiiy asaringiz?
8. O‘zbek yozuvchilaridan kimlarning ijodini o‘qiysiz va kuzatasiz?
9. Quyida keltirilgan asarlar mualliflarini belgilang?
“Jimjitlik”, “O‘tkan kunlar”, “Anor”, “Farg‘ona tong otguncha”
“Ikki eshik orasi”, “Nur borki soya bor”,
10. SHaxsiy kutubxonangiz bormi?
A. Bor
B. Yo‘q
11. Tug‘ilgan kuningizda qanday sovg‘a olishni istaysiz?
A. Gul
B. Atir
C. Kitob
D. Suvinir
13. SHahringizda kutubxonalar bormi?
A. Bor B. Yo‘q C. Bilmadim
- Qaysi kutubxonaga a’zo bo‘lgansiz?
14. Teatrda borasizmi ?
A. Ba’zan boraman
B. Tez –tez boraman
C. Umuman bormayman
15. YUrtimizda qanday teatrlar faoliyat yuritadi?
- 16) Muzeylarga oxirgi marta qachon borgansiz?
A. Bir oy oldin
B. Eslolmayman
C. Muzeylarga borishni yoqtirmayman
17. Qaysi turdagi muzeylarni bilasiz?

18. Sizga teatrda, badiiy san’at galireyasiga, istirohat bog‘iga, muzeyga, kinoga chiptalar taklif etildi, qaysi birini tanlaysiz?

19. Qaysi rassomlarni bilasiz?

Mavzuga oid “Assesment”metodi qollaniladi

“Badiiy pedagogika” oid bilimlaringizni assesment metodidan foydalanib tekshiring

Baholash: har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball

TEST... Badiiy pedagogika haqidagi ilk tushunchalar qaerda paydo bo‘lgan. A. Qadimgi YUnoniston va Rim V. Xitoy S. Vavilion D. Hindiston <div style="text-align: right;">1,5</div>	MUAMMOLI TOPSHIRIQ Siz rahbarlik qilayotgan guruhingizga ma’naviyat kunida G’.G‘ulomning uy muzeyiga borish taklifini berdingiz, ammo bir guruh talabalar sizga “Biz muzeydan nimani ham ko‘ramiz undan ko‘ra kinoga borganimiz yaxshiroq” deya norozilik bildirdi. Guruhning boshqa talabalari ham uning fikrini ma’qullashdi. SHu vaziyatda siz qanday yo‘l tutasiz? <div style="text-align: right;">1-5</div>
SIMPTOM Badiiy pedagogika bu ... <div style="text-align: right;">1,5</div>	AMALIY KO‘NIKMA YOshlarni badiiy adabiyotga qiziqtirish orqali ijodiy estetik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qanday usullardan foydalanasiz? <div style="text-align: right;">1-5</div>

“SWOT – TAHLIL” metodi

Ta’lim jarayonida o‘quvchi – talabalarni badiiy estetik ruhda tarbiyalashda badiiy adabiyotdan foydalanishning kuchli va kuchsiz tomonlari, ichki imkoniyatlari hamda to‘sqinlik qiluvchi tashqi xavflarini ushbu jadvalga tushiring.

S	Kuchli tomoni	
W	Kuchsiz tomoni	
O	Imkoniyatlari	
T	Xavflar (risklar)	

“BADIY ADABIYOT INSON RUHIYATINING MA’NAVIY KO‘ZGO‘SI”

*Atoqli o‘zbek ėzuvchisi O‘tkir
Hoshimov asarlarida ėshlarni
ma‘naviy dunėsini tarbiyalashda
rivojlantirishda asar
qahramonlarining obrazlarida
talqin etish g‘oyaviy yakdillikni
ta‘minlab beradigan ėzuvchi.*



*Adibning “Ikki eshik orasi ” asari
ham insoniyatni haėt yo‘llarida
dush keladigan ziddiyatlar taqdir
sinovlari asar qahramonlari
Kimsan Rėno Munnavar Umar
zakonchi obrazlarida badiiy
talqin etilgan.*

Badiiy pedagogika bugungi kunda pedagogika fanining dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishiga aylandi. Chunki ta‘lim tizimiga insonparvarlik, gumanizatsiya, estetik ijodiyot innovatsion faoliyat tushunchalarining kirib kelishi bu fanning jamiyat hayotidagi o‘rnini yanada oshirdi. SHu bilan bir qatorda “Badiiy pedagogika” zamonaviy ijtimoiy hayotga mos keladigan ta‘lim tizimi talablariga monand, zamonaviy ijtimoiy hozirgi yoshlarda ijtimoiy turmush tarzini, yuksak estetik individual xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan yoshlarni tarbiyalashning nazariy asoslarini, konsepsiyasini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Hozirgacha badiiy pedagogikaning izohli ma‘nosi “madaniyat”, “badiiy madaniyat”, “estetik madaniyat”, “Art pedagogika (san‘at pedagogikasi)” kabi pedagogik atamalar negizida shakllangan va estetik tarbiyaning shakl va metodlari sifatida keng qyullanilmoqda. Badiiy pedagogikaning nazariy asoslari har bir shaxs va individning ijodiy potensialini intellektual salohiyatini rivojlantirishga, har tomonlama ularni maqsad sari yo‘naltirish asosiy vazifalar sirasiga kiradi. Badiiy pedagogikaga oid ilk tushunchalar Qadimgi YUnonistonda va Qadimgi Rimda paydo bo‘lgan. 2700 yil davomida davlat sifatida bo‘lgan Qadimgi Rimda fuqarolarda axloqiy sifatlarni shakllantirish, engilmas, jasur rimliklarni tarbiyalash masalalari teatr, adabiyot asosida amalga oshirilgan. Axloqiy va jangovarlik sifatlari Plutarx, Sezar, Mark Avreliya, Sitseron, Eliktet va Senekalarning asarlarida



Toxir Malik o'zbek adabiётida o'zini yo'nalishga janriga ega bo'lgan zabardast ijodkorlardan biri. U o'z asarlarida ёshlarni tarbiyaviy axloqiy meъzonlarini dedektiv drammatik janrlarida salmovli ijod qilib kelaётgan adiblarimizdan biridir.

Adibning "Jimjitlik" "Xalovat" "Ufq" kabi asarlarini ёshlarга ko'proq tavsiya etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

yoritilgan. Bunga Senekaning "Lutsiliyaga axloqiy xatlar" asarini misol qilib keltirish mumkin. O'sha davrdan to bugungi kungacha badiiy adabiyot "badiiy pedagogika"ning o'ta muhim manbasi sifatida talqin qilinadi. O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab badiiy pedagogika o'rganila boshlandi. Estetik ma'lumotlar va estetik ta'lim jarayoni negizida Erney Bern tomonidan badiiy pedagogikaning asoslari, fenomeni xaqida fikr yuritadi. Bu asoslar bizning oldimizga ikkita birlashgan vazifani yuklaydi.

1. Badiiy pedagogikaning xalq og'zaki ijodida, xalq an'alarida, xalq turmush tarzi va adabiyotlarda vujudga kelgan an'analarni asrab-avaylash.

2. SHular asosida shakllangan estetik tajriba, ma'naviy madaniyat, xalq og'zaki ijodi, adabiy manbalar negizida rivojlangan ta'limotlarga tayangan holda, yangi zamonaviy badiiy pedagogikaning ilmiy, nazariy, amaliy, metodologik va pedagogik asoslarini yaratish.

Muxtasar ma'noda "badiiy pedagogika"ning maqsadi – insonlarda an'alar, adabiyotlar, sivilizatsion rivojlanish xususiyatlari va etnosga asoslangan holda umumiy fuqorolik, axloqiy va estetik tarbiyaning shakl, usul va metodlarini ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy yondashuvlar asosida joriy qilishdan iboratdir.



Adabiëtimizda o'ziga xos yo'nalishga ega bo'lgan yana bir sermahsul ijodkor ëzuvchilarimizdan biri Aъzam O'ktam qalamiga mansub mazkur asar o'quvchiga haët falsafasini o'zgaras qonuniyatlari insoniylik ezzulik o'lim va haët haqida kahramonlarnin taqdir yo'llari orqali ëritib beradi. Kitobxon asar o'qish jaraënida haëtda o'zi duch kelgan vaziyatlar voqealarni ko'ra olishida ijodkorin taqdir yo'llari haëti syujetlarnin keltirishida nomoën bo'ladi.

Biz avval ham ta'kidlaganimizdek, adabiyot insonning ma'naviy dunyosini shakllantirish va ahloqiy qiyofasini belgilashda eng samarali ta'sir ko'rsatuvchi san'at turi. Adabiyotning oliy ta'lim tizimida fan sifatida o'rganish ob'ekti badiiy asarlardir. SHunga ko'ra adabiyot o'qitishning asosiy maqsadi sog'lom e'tiqodli, sof insoniy tuyg'ularni anglaydigan hissiyotlarga boy, yuksak didli, ahloqan yuksak, aqlan etuk, ma'suliyatni his qila biladigan, barkamol shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat. Bu adabiyotning so'z san'ati sifatida estetik tabiatidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Adabiyotning ana shu estetik tabiati asosida inson shaxs sifatida shakllanar ekan, uning Ma'naviy madaniyati, shu jumladan ekologik madaniyati ham shakllanadi.

Biz "Adabiyot dasturi"da o'rin olgan adabiyotning eng qadimgi namunalarini, adabiyotimiz tarixida salmoqli o'rin olgan va komil inson tarbiyasida o'z o'rniga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimiz namunalarida, shuningdek XX asr adabiyoti namunalarida ko'ramiz.

Lekin dasturdagi annotatsiyalarda bular aynan ekologik madaniyatni shakllantirish tarzida emas, balki, umuman ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishga oid umumiy yo'nalish kasb etganki, har bir adabiyot o'qituvchisi buni o'z tajribasi, mahorati bilan bilim saviyasiga ko'ra farqlay olishi va

tarbiya qirralariga alohida e'tibor berishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zamonaviy badiiy pedagogikaning umumiy tamoyillari sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Maqsadga erishish
2. Ko'rsatish bildirish
3. Qiziqish

Psixologik- fiziologik tamoyillari

1. Individning ustuvor qobiliyatlari
2. Kobiliyat irradatsiyasi
3. Insoniyatga o'tmishdan no'malum bo'lgan qiziqish yo'nalishlarini mustahkamlash.

Badiiy pedagogikaning didaktik tamoyillari

1. Turli yoshdagi bolalar o'quvchilar uchun erkin tanlash tamoyili;
2. O'quvchilarni badiiy ijod qobiliyatlarini rivojlantirish;
3. Go'zallikni his qilish va ularni obrazli yoritishga yo'naltirish;
4. Estetik ta'limning assotsiativligi;
5. O'quvchilarni o'qitishda ularning ijodiy faoliyatini korreksiyalash.

15-Amaliy mashg'ulot: AL va KHKlaridagi tarbiyaviy ishlarning xususiyatlari.

Ishdan maqsad: AL va KHKlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning nazariy va milliy asoslari to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.

Masalaning qo'yilishi: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalaraga BBB texnologiyasi, Klaster, "SWOT", "BBB"metodi interfaol usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarilishidan namuna

1-ilova

AL va KHKlaridagi tarbiyaviy ishlarning xususiyatlari.

Reja:

1. Al va KHKlarida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish
2. Ma'naviy tadbirlarni samaradorligini oshirish

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Al va KHKlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning nazariy va milliy asoslari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish.

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalarga Al va KHKlarida milliy urf- odat, qadriyat va an'analar tarbiya asoslari va xalq og'zaki ijodi- bola tarbiyasida muhim vositasiga izoh berish.

2-ilova

Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga echim topishi 0-5 ball	Guruh a'zolarining faolligi 0-5 ball	Jami ball

10 – 9 ball – «a'lo».

8-7 ball – «yaxshi».

6-5 ball – «qoniqarli».

3-ilova

1. Al va KHKlarida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.

Tarbiyaviy ishlar mazmunida milliy qadriyatlar ni quyidagi bosqichlaridan ketma ket foydalanish Ular:

- Milliy qadriyat haqida tushuncha berish:
- Ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy moddiy boyliklar:
- xalq og'zaki ijodiyoti:
- Urf- odat va ularning tarbiyaviy ahamiyati:
- xalq yaratgan an'ana va marosimlarni o'rganish va nishonlash, kabilar

Milliy qadriyatlardan foydalanish ta'lim tarbiya jarayonida mazmunini ochib berish o'quvchilarda milliy g'oya, milliy g'urur, milliy iftixor kabi ma'naviy axloqiy sifatlar shakllanadi. An'ana- tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida

vujudga keladigan, avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy hodisadir. Odat(urf- odat) – kishilarning turmushida sinoh

1-o'quv topshiriq

4-ilova

B./ B. /B texnologiyasini qo'llash qoidalari

	Mavzu savoli	Bilaman	Bildim	Bilishni xohlayman
1.	An'ana			
2	Urf			
3.	Marosim			
4.	Bayramlar			
5.	Odat			
6.	qadriyat			


5-ilova

2. Ma'naviy tadbirlarni samaradorligini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishishi xalq ta'limi tizimini yangilashni taqozo etmoqda. Bu tizim yangicha fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib uni amalga oshirish, xalqni ma'naviy uyg'onishga va mamlakatning aqliy salohiyatini oshirishga olib keladi. Ma'naviyatsiz hech qanday taraqqiyot bo'lmagani singari har qanday millat mustaqil taraqqiyot ma'rifatli, madaniyatli jamiyat tomon boradi. Bu esa mustaqillik talablariga javob bera oladigan etuk mutaxassislarning iqtidorini shakllantirishni va ularni ixsak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar qilib tarbiyalashni taqozo etadi. AL va KHKlarida tashkil etiladigan ma'naviy tadbirlar o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy tadbirlarni samaradorligini oshirishda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchi-yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlari shakllantirishda samarali natijalarga erishish mumkin.

6-ilova

Klaster metodi



7-ilova

Jonlantirish uchun savollar:

1. Al va KHKlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda qanday milliy urf odatlardan foydalanish mumkin?
2. Milliy qadriyatga ta'rif bering?
3. Al va KHKlarida xalq og'zaki ijodidan foydalanishni mazmunini izohlang?
4. Maqol nima va uning tarbiyaviy ahamiyatini izohlang?

Munozara qatnashchilariga eslatma

1. Munozara munosabatlar yig'indisi emas, balki muammo echimi uslubiyatidan iborat.
2. Ko'p gapirmasdan, boshqalarning so'zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo'lida xissiyotlarinni jilovlab, batafsil o'ylagan holda so'zla.
4. Raqiblarning vaziyatini o'rganib, ularga xurmat bilan murojaat qil.
5. Raqiblarning tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va mulohazali yondash.
6. Munozara predmeti bo'yicha chetga chiqmagan holda to'g'ri yondashib gapir.

Munozara ma'ruzaning boshqaruv dastaklari

Boshlovchi barcha vazifalarni o'ziga oladi – munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to'g'riligini tasdiqlash, qo'llangan termin va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni to'g'ri qo'llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to'g'ri boshqarish.

Taqrizchi – tomonlarning ma'ruzalarini yo'nalishlar bo'yicha belgilash va to'liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyligi va masalalarning aniqqo'yilganligi, xulosalarning aniq ko'rsatilishi.

Raqib – qabul qilingan tadqiqot o'rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma'ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki hato tomonlarini topish hamda o'zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

Ekspert – barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning maxsuldorligini baholaydi.

Munozara reglamentini o'tkazish tartibi

1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'ruzachilarning taqdimotlarin e'lon qiladi.
2. Ma'ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi – 2 minut.
4. Raqib – ma'ruza mavzusi bo'yicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama – 5-10 minut.



1-keys

Pedagogik kengash yig'ilishida maktab direktori o'qituvchilarning e'tiborlariga quyidagi ma'lumotni aytib o'tdi: 6 nafar ota-ona tomonidan farzandini ingliz tili chuqurlashtirilib o'tiladigan 5-sinfga qabul qilinishi so'ralgan ariza berildi. Sinfga faqatgina bir nafar o'quvchini qabul qilish imkoniyati bor. Sizlar qanday fikrdasizlar, kimni qabul qilamiz?

Ariza bergan o'quvchilarning ijtimoiy ahvoli va tabaqalashtirilgan sinfga qabul qilinishni asoslovchi holatlari:

1-o'quvchi: boshqa tumanda istiqomat qiladi, maktab yonida uning buvisi yashaydi, qolaversa, u tabiiy fanlardan a'lo baholarga o'qiydi.

2-o'quvchi: maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, uning mahalladagi barcha do'stlari ana shu sinfda ta'lim olishganligi sababli shu maktabga o'tishga qaror qilgan.

3-o'quvchi: boshqa shahardan kelgan, uning ota-onasi diplomat, shu sababli o'quvchi ingliz tilini mukammal biladi, qolaversa, 3 oydan so'ng ular boshqa davlatga ko'chib ketadi.

4-o'quvchi: ikkinchi yilga qolgan, 4 fanni "qoniqarsiz" bahoga o'zlashtiradi, qolaversa, ichki ishlar bo'limda ro'yxatda turadi, biroq, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi.

5-o'quvchi: qishloqdan ko'chib kelgan, u erdaga maktabda esa ingliz tili o'qitilmagan, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, ko'p vaqtini bekor o'tkazadi.

6-o'quvchi: bolalikdan 2-guruh nogironi, bolalar selebral paralichi (BSP) tashxisiga ega, fanlarni "4" va "5" baholarga o'zlashtiradi, yolg'iz onaning qo'lida tarbiyalanadi, shu bilan birga maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi.

Sizningcha, ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga qaysi o'quvchi qabul qilinadi?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash to'g'risida"gi Qonuni.
3. Ta'lim muassasalarining "Tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi Nizomi.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining echimi

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash to‘g‘risida”gi Qonunlarida bayon etilgan me‘yoriy talablarga muvofiq ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga bolalikdan ikkinchi guruh nogironi bo‘lgan o‘quvchi qabul qilinadi.

2-keys

Nodir o‘zini o‘rtoqlari kutishayotganligi sababli, ko‘chaga chiqmoqchi. Dadasi bo‘lsa, bunga ruxsat bermayapti. Nodir esa darslarini tayyorlab bo‘lganligini aytib ruxsat so‘rayapti. Biroq, dadasi kutilmaganda, “Bunday daydi va beboshlar bilan ko‘chada tentirab yurgandan ko‘ra uyda o‘tirib, kitob o‘qi!” – dedi.

Savollar:

1. Bu vaziyatda kim haq?

2. Dadasi qanday pedagogik xatoga yo‘l qo‘ydi?

3. Sizningcha, Nodirning keyingi harakatlari qanday bo‘ladi?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

“Pedagogika” va “Psixologiya”ga oid adabiyotlar.

Talabalar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring va

5. Echimni bayon eting.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining echimi

Har bir shaxs ijtimoiy, xususan, mikromuhitda shakllanadi va rivojlanadi. Bolalar o'z tengdoshlari bilan muloqot qilish, o'qish, o'ynash, bellashish, baxslashish ehtiyojiga ega. Ular tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlarda o'zidagi kamchilik va nuqsonlarni sezadi, ularni bartaraf etish haqida o'ylab ko'radi. Tengdoshlarining ta'siri bilan mehnatga munosabatlari shakllanadi. O'smirlar esa deyarli barcha hayotiy vaziyatlarda tengdoshlaridan namuna olishga intilishadi. O'zlari mansub bo'lgan muhitda lider bo'lishga harakat qiladi. SHu sababli Nodirning dadasi nohaq.

Dadasi Nodirni kitob o'qishga o'rtoqlarini haqorat qilmagan holda undashi zarur edi. Qolaversa, dadasi o'g'lining o'rtoqlari kimlar ekanligini bilishga intilmagani holda ular haqida noto'g'ri xulosa chiqardi.

Eng to'g'ri yo'l Nodirga ko'chaga chiqishi uchun ruxsat berish, biroq, uzoq qolib ketmasligini eslatib qo'yish, u qaytib kelganidan keyin esa o'rtoqlari kimlar ekanligini, vaqtini tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlarga ham sarflashi mumkinligini, ammo, ko'proq vaqtini tejashga e'tibor qaratishi zarurligini tushuntirishi lozim.

3-keys

Birinchi sinfda o'qiyotgan Dilshod she'rni ifodali o'qib bergani uchun "besh" baho oldi. O'qituvchi uni buning uchun maqtadi. Dilshod uyga qaytgach, shoshganicha, bu xabarni oyisiga aytdi. U, hatto, o'zi yod olgan she'rni oyisiga ham o'qib bermoqchi bo'ldi. Ammo, oyisi Dilshodning xabarini sovuqqonlik bilan tingladi va o'g'liga qayrilab ham qaramasdan dedi:

- Besh oldingmi? Juda soz, barakalla, - endi ovqat tayyorlashimga xalaqit bermaginda, o'ynab kel!

Dilshod tushlik ham qilmay ko'chaga chiqib ketdi.

Savollar:

1. Vaziyatni qanday baholaysiz?
2. Dilshodning onasi tarbiyaning qaysi tamoyillariga zid ish qildi?
3. SHu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga qanday ta'sir o'tkazadi.

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

"Pedagogika" va "Psixologiya"ga oid adabiyotlar.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.
3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.
4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan tarbiya tamoyili (ikkita tamoyil) asosida bayon etadi.
5. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining echimi

1. Nihoyatda yoqimsiz vaziyat. Onasi Dilshodning maktabga qanday borib kelganligi bilan ham qiziqmadi.
2. Dilshodning onasi tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiya jarayonida rag'batlantirish tamoyillariga zid ish qildi.
3. SHu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazadi, asta-sekin unda qo'rslik, befarqlik, o'z-o'zini past baholash, o'ziga va atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatlar shakllanadi.

4-keys

1. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakllarni aniqlash.
2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali metodlarni tanlash.
3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiya vositalari belgilash.



Talabalar uchun metodik ko'rsatmalar


1. Tegishli adabiyotlardan shakl, metod va vosita tushunchalari qanday ma'no anglatishini yodga oling.
2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari va shaxs ma'naviyatini shakllantirish jarayonlarining mohiyatini chuqur o'rganing.
3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalar aniqlang.
4. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalarini tizimlashtiring.
5. "Ko'zgazma" metodi yordamida oila tarbiyasining talabalar ma'naviyatini yuksaltirishdagi samarali shakl, metod va vositalari asosida plakat ishlang.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining echimi 1-topshiriq bo'yicha





5-keys

Topshiriqli keys

1. Quyida berilgan ta'riflar qanday tushunchalar mohiyatini yoritishini toping.
2. Ta'riflar va ularning mohiyatini yorituvchi tushunchalar asosida jadval shakllantiring.

Ta'riflar:

1. Ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.
2. Ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.
3. Davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui.

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Didaktika" va "Ta'lim menejmenti"ga oid materiallar.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining echimi

Ta’lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o‘quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi	Ta’lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida ta’lim muassasalari faoliyati yo‘nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli	Davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish yo‘lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta’lim muassasalari majmui
Ta’lim natijasi	Ta’lim konsepsiyasi	Ta’lim tizimi

6-Keys.

9 – sinf o‘qituvchisi Javlonning ota-onasi o‘zaro qattiq ziddiyatda edilar. Otasi muhandis, spirtli ichimlikka berilib, rafiqasini haqoratlar. Hattoki munosabatlarini yumshatishni istab uning bu qilmishlariga chidab kelardi. Lekin o‘g‘li Javlon aralashib otasidan onasini taqqirlashni bas qilishini talab qiladi. Ish mushlashishgacha borib etadi.

SHundan so‘ng Javlon darslarga bormay qo‘yadi. Sinf rahbari shoshilinch chora ko‘radi, ya’ni Javlonning otasi ishlaydigan joyga borib tushuntirish ishlarini olib boradi. SHundan so‘ng oilada vaziyat asta sekin yaxshilana boradi. Ona ham, o‘g‘il ham o‘qituvchining ota bilan suhbatlashganini bilishmaydi.

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

2. Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablar va hal etish yo‘llarini jadval asosida izohlang (individual va kichik guruhda).

Muammo turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo‘llari

7-Keys

.«Ota o‘z 10 yashar o‘g‘li bilan daladan qaytayotib, yo‘l ustida tushib yotgan bir taqani ko‘radi va o‘g‘liga deydi: Taqani ol!

- Eski taqa uchun egilib o‘tiranmanmi – deb gap qaytardi o‘g‘li. Otasi indamasdan o‘zi egilib, taqani oladi-da, yo‘lida davom etadi. Kun issiq edi. Bola chanqay boshlaydi. Bir oz yo‘l yurganidan keyin olcha sotib o‘tirgan baqqol ko‘rinadi. Otasi boyagi taqani

olchaga almashtirib, belbog'iga tugib oladi. O'g'liga ko'z-ko'z qilib, bir dona olchani og'ziga tashladi-da, bir donasini erga tashladi. O'g'li darrov egilib olchani oladi va chanqog'ini

bostirmoqchi bo'lib og'ziga soladi. Otasi olchani ketma-ket tashlaydi. O'g'li o'n-o'n besh marta egilib, olchalarni terib olib eganidan so'ng nihoyat otasi to'xtaydi va belbog'ida qolgan olchalarni o'g'liga uzata turib deydi:

- Ko'rdingmn o'g'lim, sen taqani ko'tarib olish uchun bir marta egilishga eringan eding, olchalarni terib olish uchun o'n-o'n besh marta egilding. Bundan keyin esingda bo'lsin, agar engil mehnatni og'ir deb hisoblasang, undan battar og'iriga duch kelasan».

Bu ertakdagi pedagogik ta'sirning salbiy va ijobiy ko'rinishlarini bolalarga izohlashda o'qituvchi quyidagi savollar orqali tarbiyaviy mahorat bilan aniqladi.

Keysni bajarish bo'yicha topshiriqlar:

- otani talabi to'g'ri-mi, yoki yo'q-mi? Sababini ochib bering.
- otani bolaga mehnatdan bosh tortmaslik uchun tutgan ish usuli to'g'ri-mi? Bolaga dastlab o'z harakati bilan o'rnak bo'lib, so'ng xatosini tushuntiradi.
- bu borada sizlarnpng fikr va munosabatlaringiz qanday?

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

3. Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablar va hal etish yo'llarini jadval asosida izohlang (individual va kichik guruhda).

Muammo turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo'llari

8- Keys:

Zamonaviy pedagogik atamalar topshiriq. Tinglovchilar keys bilan tanishadilar va pastda ko'rsatilgan jadval asosida uning echimini topadilar.

“Farmakogniziya” kafedrasida “Zamonaviy pedagogik atamalar” mavzusiga bag'ishlangan seminar -trening o'tkazildi. Seminar-treningda Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan “metodika”, “texnologiya”, “interfaol metod”, “strategiya”, “grafik organayzerlar” kabi atamalar tahliliga alohida e'tibor qaratildi. Seminar-treningda pedagogik texnologiyalar sohasiga doir qator izlanishlar olib borgan mutaxassis olimlar taklif etildi.

Moderator birinchi bo'lib so'z navbatini “metodika” va “texnologiya” tushunchalari mohiyatini aniqlashtirib berish uchun pedagogika fanlari doktori, professor F.F.Urmanovaga berdi. U o'z nutqida “Metodika – qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi”ni, “texnologiya - bu rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi”ni ifoda etadi, degan umumiy fikrni berdi. SHundan so'ng, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o'qituvchisi A.Jabborov F.F.Urmanovaga shunday savol bilan murojaat etdi: “Domla, kechirasiz, sizningcha, metodika va texnologiyaning bir-biridan farqi nimada?”. F.F.Urmanova qisqa qilib “Metodika o'rgatadi, texnologiya faollashtiradi” degan javobni berdi. A.Jabborov javobni

tushunmasdan hayron bo‘lib, indamay qo‘ydi. Olim unga “Nega siz javobdan qoniqmadigizmi?” savol nazari bilan qaradi, M.Alieva esa indamadi. Kafedra o‘qituvchisi G.Yo‘ldosheva A.Jabborovga “Nimaga tushunmaysiz, domla aytmoqchilarki, o‘qitish metodikasi talabalarni faollashtira olmaydi, texnologiya esa ta’lim oluvchini faollashtirib, o‘yin asosida mashg‘ulotlarni qiziqarli o‘tishini ta’minlaydi” deb tushuntirgan bo‘ldi.

F.F.Urmanova o‘z chiqishini yakunlagach, moderator so‘zni pedagogika fanlari doktori, professor D.I.Ilesovga berdi va “zamonaviy pedagogik texnologiyalar” haqida ma’lumot berishni so‘radi. D.Ilesov bugungi kunda ko‘plab zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjudligi, ularga Aqliy hujum, B-B-B, kaskad, pinbord, klaster, zigzag, tarmoqlar, o‘yinli texnologiyalar kabilar borligini aytib, ularga qisqa-qisqa izoh berdi. D.Ilesov so‘zini yakunlagach, dotsent V.Ganiev unga quyidagi savol bilan murojaat etdi: “Ustoz, meni bir savol ko‘p vaqtdan beri qiziqtiradi: “Texnologiya bilan interaktiv metod” tushunchasi bir narsami? Har doim ularni aralashtirib qo‘llayveramiz, shu to‘g‘rimi?”. D.Ilesov savolga quyidagicha javob berdi: “Siz manimcha, savolni man yuqorida bir nechta texnologiyani sanab o‘tganimgan kelib chiqib beryapsiz. Ularni “texnologiya” deb aytish ham, “interfaol metodlar” deb nomlash ham mumkin” degan javobni berdi. Javobni eshitgach, V.Ganiev “unda birini qo‘llayversak bo‘lmaydimi?” degan savol nazari bilan qaradi. Unga javoban olima “Istaganigizni ishlatavering” deb javob berdi. SHu bilan D.Ilesov ham chiqishini yakunladi.

Siz nima deb o‘ylaysiz, seminar-trening oldiga qo‘yilgan maqsad to‘liq amalga oshdimi? Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq holda qo‘llanilayotgan tushunchalarning mohiyati etarlicha aniqlashtirildimi? Siz mazkur tushunchalarni qanday izohlagan bo‘lar edingiz? Seminar-treningda qaysi tushuncha mohiyatiga umuman e’tibor qaratilmadi? “Metodika” va “texnologiya” tushunchalarini farqlashga doir F.F.Urmanova tomonidan berilgan javobga siz qanday munosabat bildirasiz? D.Ilesovning o‘z nutqida Aqliy hujum, B-B-B, kaskad, pinbord kabilarni texnologiya deb ishlatishi to‘g‘rimi? Z.Zaripovanning “metod” va “texnologiya” tushunchalariga nisbatan aytan fikrini qanday baholaysiz? Grafik organayzerlarni “ta’lim vositasi”mi yoki “metod” sifatida talqin etish maqsadga muvofiqmi?

Keys echimi uchun taklif etilgan g‘oyalar taqdimoti uchun chizma namunasi

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Echim	Natija

9-Keys.

Kasbiy ta’lim metodikasi bo‘yicha yaratilgan adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ularda “ta’lim jarayoni” tushunchasining mohiyati turlicha yoritilgan.

Ta’lim jarayoni – bu:

1. Talabalarga bilimlarni berib, ularda ko‘nikma, malakalarni berish orqali u yoki bu darajada ularning o‘zlashtirilishini ta’minlash (o‘qitish)ga qaratilgan faoliyat.

2.Talabalar tomonidan BKMning o‘zlashtirilishi (o‘qishi)ni ta’minlovchi jarayonini boshqarishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va talabalarining birgalikdagi faoliyati (chunki o‘qitish va o‘qitish – ta’limning o‘zaro aloqador va o‘zaro shartlangan tomonlaridir).

3.O‘qituvchining talabalar tomonidan BKMni ongli va puxta o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilib, bu jarayonda bilimlarning mustahkamlanishi, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati elementlarini o‘zlashtirish, dunyoqarashni boyitish va talabalar xulq-atvorining shakllanishini ta’minlovchi rahbarligi va harakatlarining izchilligi.

4. Talabalarning o'qituvchi rahbarligida BKMni o'zlashtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga qaratilgan faol bilish faoliyati.

Keysni bajarish bo'yicha topshiriqlar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
 2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
 3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
 4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring.
 5. Echimni bayon eting.
- ishtirokida muhokama qilinadi.

10-Keys.

Markaziy Osiyo davlatlarida individual ta'lim usuldan qadim davrlarda unumli foydalanganlar.

Ushbu („Me'mor“ romanining „Ustoz va shogird“) bobidan keltirilgan parchada individul ta'lim olish uchun borgan tolibning sinovdan o'tganligi haqida hikoyat qilingan. Zulfiqor sinovdan qanday o'tdi.

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar: „Me'mor“ romanining „Ustoz va shogird“ bobidan keltirilgan parcha .

Keysni bajarish bo'yicha topshiriqlar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

7-Keys. Kasbiy ta'lim metodikasi darsida o'qituvchi talabalarga: „O'rtog'ingdan ko'chirma!“, „O'zing yoz, birovlarining daftariga qarama!“, „Obbo, ko'chiradigan odamingni ham topibsanmi-a! Uning o'zi xatto ko'chirib olishni ham qoyillata olmaydi-yu!“ singari zaharxanda so'zlar bilan bir necha bor qattiq tanbeh berdi.

Boshqa sinfda esa o'qituvchi darsiga yo'l-yo'lakay, albatta, ammo ta'sirli qilib: „Talabalar bir-biringizdan berkitmanglar, bu yaxshi emas, hech kim sizlardan ko'chirayotgani yo'q!“, - dedi.

Talabalarga tavsiya etiladigan material: „Pedagogik talab“ va uning mohiyatini yoritishga oid materiallar.

Keysni bajarish bo'yicha topshiriqlar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Manbalar asosida muammoning echimini toping.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga harakat qiling.
5. Echimni bayon eting.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchilarning mustaqil ishi o'rganilayotgan mavzu yuzasidan ma'lumotlarni axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalangan xolda yig'ish, olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda ishlab chiqish, tahlil qilish va amaliyotda qo'llay olishdan iborat bo'lib, uning shakllari turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular quyida keltiriritilgan.

Tinglovchilarning mustaqil ishiga shuningdek, bitiruv malakaviy ishlarini bajarilishi borasida olib boradigan faoliyati ham kiradi.


Mustaqil ishni bajarish natijalari baholanadi. Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar tinglovchilarning mashg'ulotlarda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining predmeti va mazmuni.(5soat)
2. Pedagogik texnika – pedagogik mahoratining birinchi bosqichi sifatida.(5soat)
3. Jamoada shaxsni tarbiyalash shakllari va usullari(5soat)
4. Oila, jamoa o'quv bilim yurtining tarbiyaviy ishlarini hamkorligi.(5soat)
5. Tarbiyaviy ishda teatr pedagogikasini tarkibiy qismlarini qo'llanilishi. (5soat)



TEST SAVOLLARI



1. Pedagogika so'zining lugoviy ma'nosi nima?

- a) bolalarni o'qitadi
- b) bolani o'ynatadi
- v) bola yetaklovchi ma'nosini anglatadi
- g) bolaga tarbiya beradi

2. «Ta'lim to'g'risida»gi Konunning maqsadi nima?

- a) kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi 3 bosqichni amalga oshirish
- b) davlat va nodavlat muassasalarini rivojlantirish
- v) fuqorolarga ta'lim tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi, hamda u har bir shaxsning bilim olishidan iborat
- g) ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini amalga oshirish

3. Ta'limni og'zaki metodlariga nimalar kiradi?

- a) tushunish, anglash, ko'rsatish
- b) suhbat, indukstiya, izlanish
- v) test, algaritmlash, indukstiya, dedukstiya
- g) suhbat, ma'ruza, seminar

4. «Ta'lim to'g'risidagi qonun» qachon qabul qilingan?

- a) 1993 yil
- b) 1997 yil
- v) 2000 yil
- g) 1999 yil

5. Shaxs bu...?

- a) aqlli mavjudot
- b) anatomik, fiziologik, jismoniy o'zgarishlar ifodasi
- v) ijtimoiy tuzum maxsuli bo'lib, ongli faoliyat bilan shug'unlanuvchi ijtimoiy mavjudotdir
- g) muayyan ijtimoiy tuzum mahsuli

6. Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan (YI -VIII asrlarda) asarni toping?

- a) O'rxun, Yenisey yodgorliklari
- b) Hibatul-Xaqoyiq
- v) Mahbub-ul qulub
- g) Guliston

7. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bosqichlarini aniqlang?

- a) 2 bosqich
- b) 4 bosqich
- v) 3 bosqich
- g) 5 bosqich

8. Oliy ta'limdan keyingi ta'limni toping?

- a) maktabgacha ta'lim, o'rta ta'lim
- b) aspirantura, doktorantura
- v) umumiy o'rta ta'lim
- g) bakalavriyat, magistratura

9. Qobiliyatning shakllanishi va rivojlanishi shaxsda quyidagi sifatlardan qaysi birini yuzaga keltiradi?

- a) mehnatga ijodiy yondashish, yangilikka intilish, ijodiy aktivlik, jamoa bilan hamkorlik, o'z o'ziga talabchanlik
- b) ijodiy aktivlik, yangilikka intilish
- v) o'qitish, o'rgatish
- g) o'qish, o'rganish, o'qitish

10. Dialektik jarayon nima?

- a) u yoki bu jarayonlarni aynan miqdoriy takrorlanishi
- b) jamiyatga xos ajralmas xususiyat
- v) soddadan murakkabga boruvchi
- g) sifat o'zgarishlar jarayonidir

11. Tabiiy sharoitda jarayonlarni o'rganish metodlariga:

- a) kuzatish, suhbat, anketa o'tkazish, intervyu olish, hujjatlarni tahlil etish
- b) fFaoliyat natijalarini tahlil etish, o'qituvchi bilan ishlash
- v) dasni tashkil etish va kuzatish
- g) o'qitish, o'rgatish

12. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) jamoa, axborot almashishi
- b) bilim malakalar
- v) yetuklik, ko'p o'qish
- g) irsiyat, muhit, ta'lim-tarbiya

13. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilarni qaysi biridan iborat?

- a) ta'lim olish huquqi, tabiiy ta'limot huquqi
- b) maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim
- v) shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqish
- g) ta'limning demokratlashuvi, ta'limning insonparvarligi, ijtimoiylashuvi

14. Pedagogikaning bosh masalasi?

- a) tarbiya
- b) barkamol inson
- v) ta'lim, tarbiya, barkamol inson tarbiyasi
- g) ta'lim tarbiya samaradiligini oshirish

15. DAVLAT TA'LIMI STANDARTLARI TO'G'RISIDAGI NIZOM QACHON QABUL QILINGAN?

- a) 5 yanvar 1998 yil
- b) 6 iyun 1998 yil
- v) 29 avgust 1997 yil
- g) 6 may 1998 yil

16. QAYSI GURUHDAGI FANLAR PEDAGOGIKA FANINING TARMOQLARI HISOBLANADI?

- a) falsafiya, pedagogika, psixologiya
- b) umumiy pedagogika, anatomiya, fiziologiya
- v) pedagogika asoslari, didaktika, tarbiya nazariyasi, maktabshunoslik
- g) maktabgacha tarbiya pedagogikasi, maktab pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, maxsus pedagogika, xususiy metodika, pedagogika tarixi

17. Muammoli vaziyat bu...?

- a) o'yin

- b) o'quvchining ma'lum psixik holati
- v) harakatli o'yinlar
- g) ijodiy o'yin

18. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?

- a) ta'lim-tarbiya
- b) tarbiya, ma'lumot
- v) shaxs faoliyati, tarbiya
- g) ta'lim-tarbiya, ma'lumot

19. Pedagogika fanlari tizimiga qaysi fanlar kiradi?

- a) pedagogika tarixi, gigiena, odam anatomiyasi va fiziologiyasi metodika
- b) pedagogika tarixi, maxsus pedagogika, metodika
- v) maktab pedagogikasi, maxsus pedagogikalar, metodika
- g) maktab pedagogikasi, maxsus pedagogika, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, metodika, gigiena

20. Ta'lim nazariyasi qaysi masalalarni o'z ichiga oladi?

- a) ta'lim haqida barcha tushunchalarni
- b) ta'lim printsiplarini maktab ta'lim mazmuni
- v) o'qitish metodlari hamda tashkiliy shakllari
- g) ta'lim jarayoni uning mohiyati, mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, metodlari, uning tashkiliy shakllari va ta'limga ta'luqli barcha kategoriyalarni

21. Ta'lim mazmuni deb nimaga aytiladi?

- a) aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan barcha vazifalarga aytiladi
- b) o'qovchilarni bilimlar bilan qurollantirishiga aytiladi.
- v) ta'lim xujjatlari o'quv rejasi, dasturi va darsliklariga aytiladi
- g) o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq belgilangan doirasiga aytiladi.

22. O'quv rejasi nima?

- a) o'quv rejasi asosida o'qituvchi ishlab chiqadigan soatlar
- b) yil mobaynida o'tiladigan soatlar.
- v) o'quvchiga beriladigan ilmiy bilim va malaka hajmi
- g) davlat hujjati, unda har bir o'quv fanining mazmunini ochib beriladi.

23. Ta'limni tashkil qilishning noa'naviy shakllarini aniqlang?

- a) muloqot
- b) didaktik o'yinlar
- v) trening va boshqalar
- g) muloqot, baxs-munozara, didaktik o'yin, trening

24. Ta'limni tashkil qilish shakllari qanday tanlanadi?

- a) ta'lim turiga qarab
- b) ta'lim maqsadiga qarab
- v) bolalarning yosh xususiyatlariga qarab
- g) o'quv rejimi asosida

25. Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligining zarurligi nimada?

- a) tarbiyaning ijtimoiy muo'itning ob'ektiv va sub'ektiv oimllarga bog'liqligida
- b) o'qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etish va anglab olinishda
- v) tarbiyaning shaxs taraqqiyoti bilan aloqadorligida
- g) tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borishda

26. TARBIYA METODLARI GURUHLARINI TO'G'RI BELGILANG

- a) hikoya, tushuntirish, o'qitish, ma'ruza, axloqiy -ma'naviy suhbat va baxs
- b) ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar odatlantirish va faoliyatda

mashqlantirish, rag'batlantirish va jazolash metodlari.

v) rag'batlantirish va jazolash, hikoya tushuntirish metodlari

g) o'qitish, savol-javob, ma'ruza, suhbat va baxs

27. SINFDAN TASHQARI ISHLARNING O'ZIGA XOS TOMONI NIMADA?

a) bolalarni maktab bilan hayot o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in

b) bolalarni ijtimoiy foydali mehnatga o'rgatadi

v) sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar o'rtasidagi hamjihatlik xissi shakllanadi.

g) o'quvchilarning yosh xususiyatlariga tayanib o'qishdan biroz chalg'itish

28. "Inson o'z mablag'ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka olib keladi".

Ushbu fikr muallifini toping?

a) Mahmudxo'ja Behbudiy

b) Yusuf Xos Xojib

v) Abu Nasr Farobiy

g) Abdulla Avloniy

29. Xadis ilmining yaratilishida "oltin davr" qaysi asrga to'g'ri keladi?

a) VIII-IX-asrlar

b) XV-asr

v) XVI-asr

g) X-XII-asrlar

30. O'quvchilarga axloqiy tarbiya berishning samarali yo'llari qaysilar?

a) o'qish jarayonining yuksak darajada uyushtirilishi, o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining saviyasi

b) tarbiyaviy ishlarning rejali bo'lishi va hamjihatlik

v) faqat *a* javob to'g'ri

g) *a* va *b* javoblar to'g'ri

31. XXI asrda AQSh da qanday dastur e'lon qilindi?

a) "Amerika ta'lim strategiyasi"

b) "Porloq kelajak sari"

v) "Muammoli o'qitish"

g) to'g'ri javob berilmagan

32. AQSh dv majburiy ta'lim necha yoshgacha?

a) 14 yoshgacha

b) 15 yoshgacha

v) 16 yoshgacha

g) 17 yoshgacha

33. Yaponiyada majburiy ta'lim necha yillik?

a) 8 yillik

b) 9 yillik

v) 10 yillik

g) 11 yillik

34. Yaponiyadagi kollejlar turlari qaysilar?

a) kichik kollejlar, texnik kollejlar, maxsus kollejlar

b) texnik kollejlar, maxsus kollejlar

v) 1-toifali kollejlar, maxsus kollejlar

g) to'g'ri javob berilmagan

35. Franstiya ta'lim tizimidagi boshlang'ich sinf bosqichlari qaysilar?

a) tayyorlov bosqichi (1 yil), elementar kurs (2 yil)

b) tayyorlov bosqichi (1 yil), elementar kurs (2 yil), chuqurlashtirilgan bosqich (1 yil)

v) tayyorlov bosqichi (1 yil), chuqurlashtirilgan bosqich (1 yil)

g) elementar kurs (2 yil), chuqurlashtirilgan bosqich (1 yil)

36. *Franziya pedagoglari sinf o'quvchilarini 3 tabaqaga ajratib o'qitishni afzal ko'radilar.*

Ular qaysilar?

a) gomogenlar – matematika va gumanitar fanlar yo'nalishidagi o'quvchilar, yarim gomogenlar – tabiiy fanlarni o'zlashtirayotgan o'quvchilar, gegeron – barcha fanlarni har xil saviyada o'zlashtirayotgan o'quvchilar

b) gomogenlar – matematika va gumanitar fanlar yo'nalishidagi o'quvchilar, yarim gomogenlar – tabiiy fanlarni o'zlashtirayotgan o'quvchilar, tabaqalashtirilgan sinf o'quvchilari

v) gomogenlar – matematika va gumanitar fanlar yo'nalishidagi o'quvchilar, individual sinf o'quvchilari, gegeron – barcha fanlarni har xil saviyada o'zlashtirayotgan o'quvchilar

g) faqat *a* javob to'g'ri

37. *Yaponiya maktablarida o'qish qaysi oydan boshlanadi?*

a) fevral oyidan

b) mart oyidan

v) aprel oyidan

g) may oyidan

38. *“Eksperiment” so'zining ma'nosi nima?*

a) “tahlil”

b) “analiz”, “sintez”

v) “umumlashtirish”

g) “sinab ko'rish”, “tajriba qilib ko'rish”

39. *Elektron o'quv adabiyoti nima?*

a) aniq bir tartibda joylashgan so'zlar jamlanmasi

b) foydalanishga qulay shaklda yaratilgan ma'lumotlar to'plami

v) zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan manba

g) fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni beruvchi to'plam

40. *“Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konstepstiyasi” qachon qabul qilingan?*

a) 1997 yil

b) 1998 yil

v) 1999 yil

g) 2000 yil

41. *“O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligi Konstepstiyasi” qachon qabul qilingan?*

a) 1997 yil

b) 1998 yil

v) 1999 yil

g) 2000 yil

42. *“Qat'iy aytish mumkinki, yolg'iz o'g'il yoki qiz tarbiyalash bir necha bolani tarbiyalashga qaraganda ancha qiyin ish. Xatto, agar moddiy jihatdan bir muncha qiynalgan taqdirda ham yolg'iz bola bilan kifoyalanib qolish yaramaydi”. Fikr muallifini toping?*

a) Ushinskiy

b) Disterveg

v) Suxomilinskiy

g) Makarenko

43. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunning nechanchi moddasida "Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar" deb belgilab qo'yilgan?

a) 30-moddasida

b) 31-moddasida

v) 32-moddasida

g) 33-moddasida

44. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya mazmuni yuzasidan yagona "mudofaa va mehnatga tayyorlash" kompleksi tashkil etilgan. Mazkur kompleks necha darajadan iborat?

a) 4 darajadan

b) 5 darajadan

v) 6 darajadan

g) 7 darajadan

45. "Aqllilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat". Ushbu fikr muallifini toping?

a) Abu Ali Ibn Sino

b) Yusuf Xos Xojib

v) Kaykovus

g) Makarenko

46. "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki, o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuch va sog'lik lozimdur". Ushbu fikr muallifini toping?

a) Mahmudxo'ja Behbudiy

b) Yusuf Xos Xojib

v) Kaykovus

g) Abdulla Avloniy

47. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi nechta tamoyilga asoslanadi?

a) 3 tamoyilga

b) 4 tamoyilga

v) 5 tamoyilga

g) 6 tamoyilga

48. Milliy istiqlool mafkurasining asosiy g'oyalari qaysilar?

a) Vatan ravnaqi, xalq farovonligi

b) komil inson, millatlararo totuvlik

v) barkamol shaxs tarbiyasi

g) faqat a va b javob to'g'ri

49. O'zbekiston respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi Qonuni qachon qabul qilingan?

a) 1991 yil 9 dekabrda

b) 1992 yil 9 dekabrda

v) 1993 yil 9 dekabrda

g) 1994 yil 9 dekabrda

50.. "Men bolalar "Alifbe"ni ochib, birinchi so'zini g'ijjalab o'qishlariga qadar, avval, dunyodagi eng ajoyib kitob – tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim". Ushbu fikr

muallifi kim?

- a) Ushinskiy
- b) Disterveg
- v) Suxomilinskiy
- g) Makarenko





Glossariy

Adekvatlik – teng, o'xshash, muvofiq kelmoq.

Analogiya – psixik xodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining o'xshashligi.

Anketa – metodlardan biri bo'lib, respondent to'g'risida aniq ko'zlangan ma'lumotlarni yig'ish maqsadida qo'llaniladi.

Assosiasiya – psixik xodisalar orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi.

Attraksiya – bir kishini boshqa kishi ko'rib qolganda, idrok etishda yuz beradigan tafakkur turi.

Apatiya – kishining tevarak atrofdagi olamga nisbatan befarqlik xolati.

Audivizual idrok – shaxsning bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham ko'rib idrok qilishi.

Autogen mashq – shaxsning o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.

Affekt – kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emosional kechinmalar sifatida ro'y beradigan psixologik holat.

Biografik metod – odamni uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan xujjatlar orqali o'rganish usuli.

Bixeviorizm – psixologiyaning o'rganish predmeti sifatida odam xulq-atvorini olinishi nazariyasi.

Breynshorming – aqlga xujum – baxslarni tashkil etishda qo'llaniladigan interfaol usuldir.

Bosqichlar – muloqotda mavjud bo'lgan shaxsning o'zi bilan, boshqalar bilan va avlodlar orasida kechadigan jarayoni.

Verbal – og'zaki ifodalangan nutq.

Genotip – ota-onadan farzandga o'tadigan irsiy belgilar majmui.

Gnostik – butun borliqni bilishga yo'naltirilgan faoliyat.

Guruh – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

Dunyoqarash – odamning tevarak-atrofdagi oamga va unda o'zining tutgan o'rniga qarashlaridan kelibchiqqan tizim. Uning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig'indisi.

Diqqatning barqarorligi – diqqatning ma'lum ob'ektga uzoq vaqtdavomida muttasil qaratilishi.

Diqqatning ko'lami – bir vaqtning o'zida diqqatning bir qancha ob'ektga qaratilishi imkoniyati.

Diqqatning taqsimlanishi – diqqatning bir vaqtda bir necha ob'ektga taqsimlanish xusuiyati.

Diqqatning ko'chishi – diqqatni ixtiyoriy ravishda bir ob'ektdan ikkinchisiga ko'chirish.

Dialog – ikki va undan ortiq kishilarning o'zaro og'zaki gaplashishi.

Dialogik nutq – nutq turlaridan bo'lib, bunda so'zlovchilar barobar teng,

birgalikda faollik ko'rsatadi.

Dominant shaxs – boshqalar bilan muomala va munosabat o'rnatishda o'z fikrini o'tkazish xislatining yorqin namoyon bo'lishi.

Yosh davri nizolari – o'ziga xos, uncha uzoqqa cho'zilmaydigan ontogenez davrlari bo'lib, bu vaqtda keskin psixik o'zgarishlar yuz beradi.

Jamoa – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

Jamoaning negizi – umumiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishga taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a'zolari.

Yo'nalish – shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat'i nazar ma'lum yo'lga yo'naltiruvchi barqaror motivlar yig'indisi.

Individuallik – individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi, qaytarilmasligi.

Idrokning konstantligi – idrok sharoiti o'zgarsa-da, idrok qilishdan hosil bo'lgan narsa obrazlarning nisbatan o'zgarmasligi.

Idrokning predmetliligi – jamiki olamdan olingan ma'lumotlarni ichki olam ob'ektiga kiritish xususiyati.

Idrokning butunliligi – sezgi a'zlariga bevosita ta'sir etib turgan ob'ektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qo'shib idrok etish.

Istedod – shaxsning ma'lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi.

Ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni.

Ijtimoiy tasavvurlar – shaxsga jamiyat orqali ta'sir etgan narsa va xodisalarning yaqqol obrazi.

Ilmiy taxmin – tekshirish va tadqiqot olib borish maqsadida ilgari kutilishi mumkin bo'lgan xolatning bashorat qilinishi.

Interaktiv – shaxslararo munosabatlarda bir-biriga xulq-atvor ta'sir ko'rsatish jarayoni.

Introvert shaxs - shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining nihoyatda pastligi.

Kasb – faoliyat shakllari birlashmasi bo'lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat sub'ektini tayyorlashga qo'yiladigan talablar majmui.

Kontent-analiz – tekshirilayotgan matnda so'z, ibora, abzaslarni ma'no-mohiyatini takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli.

Kuzatish – sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog'liq ravishda tekshirish, o'rganish, ma'lumotlar to'plash metodi.

Kommunikativ – shaxslararo munosabatlarda ma'lumot, axborot, g'oyalar almashinuvi jarayoni.

Kichik guruh – a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo'luvchi kishilar guruhi.

Ko'nikma – odamning ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rinadigan qobiliyati. K. mahoratning asosini tashkil etadi.

Longityud tadqiqot – sinaluvchini uzoq muddat va doimiy ravishda o'rganish.

Metod – bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

Metodologiya – tadqiqot, tekshirish usuli bo'lib, bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisidir.

Motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

Motivasiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

Malaka – mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullari.

Mehnat – inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat.

Mutaxassislik – faoliyatning aniq shakli bo'lib, mehnat egasining kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilanadi.

Mehnat sub'ekti (egasi) – bu faol harakat qiluvchi, anglash va o'zgartirishga layoqatli, ong va iroda bilan ish olib boruvchi individ yoki ijtimoiy guruh.

Muloqot – ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishi.

Melanxolik - temperament turlaridan biri bo'lib, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, xatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotda berilishi bilan xarakterlanadi.

Monologik nutq – bir odamning o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi.

Monolog – ma'ruzachi tomonidan nutq so'zlanishi, ma'ruzachi aktiv, tinglovchi passiv bo'lgan jarayon.

Mobil shaxs - shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining yuqori darajada kuzatilishi.

Negativizm - individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqeni namoyon qilishi.

Norasmiy – odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o'zaro ishonch, bir xil qarash va maqsadlarning ko'zda tutilishi.

Noverbal - nutqsiz ifodalangan xarakat, mimika, xolatlarning boshqa shaxsga yo'naltirilishi.

Nizolar – o'zaro ta'sir ko'rsatayotgan kishilarning qarama-qarshi turishi, bunda fikrlar, pozitsiyalar, qarashlar teskariligi kuzatiladi.

Nizo turlari – nizolarning kimlar orasida yuzaga kelishiga ko'ra farqlari: shaxslararo, guruhlararo, shaxsiy, etnik, milliy; namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra: ochiq, yopiq, uzoq muddatli, qisqa; mavqe yoki darajaga ko'ra: vertikal va gorizontal; yo'nalishiga ko'ra: destruktiv va konstruktiv.

Nizo bosqichlari – uch bosqichda, ya'ni nizo oldi, nizo va nizodan keyingi bosqichlar.

Nizo hal etish yo'llari – komromiss, ya'ni kelishuv; joyida hal etish; nizodan chekinish; orqaga surish; qochish.

Operativ xotira – xotira turlaridan biri bo'lib, faoliyat bajarish jarayonida uzoq xotiradan vaqtincha foydalaniladi.

Oila – turmush qurish, qarindosh-urug'chilik asosidagi kichik guruh.

Pilotaj tadqiqot – tadqiqotning muammoli izlovchi turi, asosiy tadqiqotgacha o'tkaziladigan va soddalashtirilgan shakli

Polilog – guruh ichidagi munozara bo'lib, barcha ishtirokchilar faolashuvi kuzatiladi.

Perseptiv tomon – shaxslararo munosabatlarda tushunish, his etish, idrok etishga qaratilgan jarayon.

Professiografiya - mehnat sub'ektining faoliyat tarkiblari (uning mazmuni,

vositalari, sharoitlari, tashkilot) bilan o'zaro munosabati va bog'liqligini o'rganish va aniqlashga qaratilgan kompleks metod.

Professiogramma - kasbning turli ob'ektiv xarakteristikalarining tasnifi.

Rasmiy – odamlarning birgalikdagi faoliyatlarida, ijtimoiy rollar taqsimotida mavqe, martabaning inobatga olinishi

Real – birgalikdagi faoliyat jarayonida bevosita muloqot amalga oshishi imkoniyati.

Referent guruh – shaxsning har tomonlama ishongan, o'ziga yaqin tutgan guruhi.

Sangvinik – temperament turlaridan bo'lib, chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez o'zgaradigan, boshqalarga nisbatan dilkashlik, mehribonlik xislatlari bilan xarakterlanadi.

Sanoat psixologiyasi – sanoat va ishlab chiqarishda turli yuzaga keladigan muammo va xolatlarni psixologik va ijtimoiy omillarini tahlil qilib olishga qaratilgan xizmatlari turi.

Simpatiya – bir kishida boshqasiga nisbatan kuzatiladigan moyillik va yoqimlilik hislarining ichki namoyon bo'lishi.

Sosiologiya – jamiyatda yuz beradigan turli-voqea-xodisalarni va o'zaro munosabatlarni o'rganishga qaratilgan fan.

So'rov – asosiy metodlardan biri bo'lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bavosita ma'lumot olinadi.

Ta'lim maskanlari psixodiagnostikasi – shaxsni ta'lim tizimda qobiliyati, iqtidori, iste'dodini aniqlab olish maqsadida olib boriladigan psixologik xizmat turi.

Test – sinaluvchini tekshirish jarayonida maxsus qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi.

Tushuncha – narsa va xodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so'z yoki so'zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli.

Tushunish – biror narsaning ma'nosi va ahamiyatini anglash qobiliyati, asosiy erishilgan natijasi.

Taxlil – tafakkur qilish usuli, bunda murakkab ob'ektlar qismlarga bo'linib o'rganiladi.

Taqqoslash – narsa va xodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operatsiyasi.

Trening – mashq qilmoq, guruxlarda muloqotning samarali tashkil etish usuli bo'lib, shaxsning muloqotga o'rgatish va obro'li bo'lishini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi.

Tobe shaxs – muloqot va boshqa jarayonlarda shaxsda ko'nikuvchanlik, boshqa kishilarga bog'liqlik, fikriga bo'ysunish xususiyatlarining tarkib topishi.

Umumlashtirish – voqelikdagi narsa va xodislarni umumiy va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni.

Uyushganlik - guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini anglashlari.

Faoliyat – insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligi.

Faollik – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi.

Xarakter – kishidagi barqaror psixik xususiyatlarining individual birligi bo'lib, shaxsning mehnatga, narsa va xodisalarga, o'ziga va boshqa kishilarga munosabatlarida

namoyon bo'ladi.

Harakat – maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. H. Ongli faoliyatning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

Xulosa chiqarish – tafakkurning mantiqiy shakllaridan bo'lib, bir qancha xukmlar asosida ma'lum xulosa chiqariladi. X.ch. induktiv, deduktiv va analogik turlarga ajratiladi.

Shaxs – ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odam.

Shaxs ijtimoiylashuvi - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir.

Shaxslararo munosabat – muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sir etish natijasida ro'y beradigan ijtimoiy-psixologik hodisalar.

Shakllar – bevosita va bivosita tur bo'lib, yuzma-yuz yoki vosita orqali amalga oshishi ko'zda tutiladi.

Shakllanganlik - odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo'lishi bilan bog'liq psixologik jarayon.

SHartli – odamlarning turli belgi, faoliyat shakllariga ko'ra biror guruhga taalluqli deb qarash.

Emosiya – odam va hayvonlarning sub'ektiv ifodalangan ichki va tashqi qo'zg'oluvchilar ta'siriga javob reaksiyasi.

Ekstrovert shaxs – shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining yuqoriligi.

Empatiya – boshqa odamlarning psixik holatini tushunish qobiliyati.

O'qish – shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

O'yin – faoliyat turlaridan biri bo'lib, bolalarning kattalar faoliyatini, ish xarakatlarini aks ettirishda ifodalanadigan va atrofni bilishga qaratilgan faoliyatdir.

O'z-o'ziga baho berish – shaxsning o'z-o'ziga baho berishi.

Qobiliyat – shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biror faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

Qiziqish – shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli narsa yoki xodisalarga munosabati.

Qobiliyatlar – shaxsning ma'lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

«Axloq», «xulq» va «atvor» so'zlari arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida xam o'z ma'nosida qo'llaniladi. Axloq kishilarning xar bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmuidir. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, xamma soxalarda kishilarning xatti-xarakatlarini tartibga solish funksiyalarini bajaradi.

Bakalavriat- o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'limidir.

Bilish, anglash-dunyo xaqidagi yangi bilimlar xisoblanadigan sub'ekt va ob'ektning o'zaro ta'sirini, voqelikning ruxiyatda qayta ta'sir etilishi va aks ettirish jarayonidir.

Dars- ma'lum maqsad asosida, belgilangan vaqtda aloxida, bir xil yoshdagi o'quvchilar, yoshlar bilan o'qituvchi raxbarligida olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Darslik- maxsus ravishda o'quvchilar uchun yozilgan kitob darslik deb ataladi.

Jamoa-insonparvrlilik va javobgarlik ma'suliyatlariga bog'likligi bilan

xarakterlanadigan munosabatlar xamda xamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyligi, jamoasidir.

Idrok- mazkur muddatda sezgi organlarida ularning bevosita ta'sir etishi davomidagi bir butun xodisalar yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.

Maqsad-bo'lg'usi natijalar xaqida xar doim aqlan o'ylab qurilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar, kelgusidagi rejalar.

Shaxsiy fazilat - shaxs tomonidan o'zining axloqiy, ruxiy va ishchan-lik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o'rnini anglay olish xususiyati.

E'tikod - shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va xodisallarning qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muxitga xamda o'zining xatti-xarakatlariga bo'lgan sub'ektiv munosabati.

Evrastika ilmiy tadqiqotning mantiqiy usullari va metodik ko'rsatmalari.

Empirik - tajribaga asoslangan.

Empirik bosqich tadqiqot ob'ekti to'g'risida xar tomonlama tasavvur xosil qilish, ta'lim amaliyoti, ilmiy bilimlar saviyasi va xodisalar moxiyatiga erishishga bo'lgan talab o'rtasidagi ziddiyat, ilmiy muammoni nomlash.

Eстетik tarbiya - go'zallikni xis qilish, atrof-muxitdan go'zallikni payqay olish va tushunishga bo'lgan qobiliyatni tarbiyalash.

Exhtiyoj - individning biror narsa-xodisaga muxtojligi va kishining ruxiy quvvati xamda faolligi manbai xisoblanadigan asosiy xususiyati. Uyin faoliyatnini bir turi bo'lib, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va bunyod etishga, o'z xatti-xarakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

O'z-o'zini baxolash -shaxsning o'z psixologik sifatleri, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baxolay olishi.

O'z-o'zini tarbiyalash 1) shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruxiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

O'qitish - ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o'qituvchining faoliyati.

O'qitish - 1) ta'limning o'ziga xos usuli bo'lib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta'minlanadi; 2) talaba va o'qituvchi, talabaning boshqa talabalar bilan aloqasi natijasi o'laroq atrof-muxit, uning qonuniyatlari, taraqqiyot tarixi va ularning o'rganilish usullarini bilishning muntazam boshqarilish jarayoni.

O'qituvchining innovasion faoliyati - ijtimoiy pedagogik fenomen bo'lib, ijobiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

O'qitish vazifasi - ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

O'qitish turlari - sokratcha suxbat metodi, qoloq ta'lim, izoxlash-namoyish etish asosida o'qitish, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashtirilgan ta'lim, o'quv jarayonini algoritmlash, differensiasiyali xamda indnvidual ta'lim va boshqalar.

O'QISH – o'quvchinng o'z qobiliyati, bilimi, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan xarakat.

Talabalarni kasbga yo'naltirish - talaba-yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish texnik tadbirlarnng asoslangan tizimi.

O'quv-bilish faoliyati - insoniyat tomonidan to'plangan madaniy boylikni egallash

bilan bog'lik faoliyat.

O'quv faoliyati shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash jarayoni.

Qiziqish - shaxs xarakatiga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nalishining ongli shakli.

Xalollik - shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni, axloqiy me'yorlarni rostguylik bilan saqlash.

Xasad - o'zgalarpiig muvaffaqiyatlarini ko'ra olmaslikdan kelib chiqadigan tyyg'u.

Pedagogikaning nazariy vazifasi- ilg'or va yangi pedagogik tajribalarni o'rganish.

Pedagogikaning texnologik vazifasi - diagnostik satx - pedagogik xodisalar xolatini aniqlash; bashorat qilish satxi - pedagogik faoliyatni eksnerimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqelikni yaratish modellarini o'rnatish; loyixa satxi- pedagogik faoliyatning nazariy konsepsiyasi, uning mazmuni va xarakteri asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o'quv reja, dastur, darslik va o'quv ko'planmasi, pedagogik tavsiyanomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik satxi - pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta'lim amaliyotiga tatbiq etish; reflsktik tuzatma (korrektirovka) satxi - ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'lim va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baxolash.

Pedagogika fani - maxsus institutlarda (oila, ta'lim va tarbiya, madaniyat muassasalari) maqsadga muvofiq tashkil etiladigan real, yaxlit pedagogik jarayon.

Pedagogik jarayon - ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini xal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

Pedagogik jarayon tamoyillari - pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo'lib, u pedagogik jarayonning yo'nalishini ko'rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik ixtisoslik - ta'lim natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy gurux doirasidagi faoliyat turi.

Pedagogik ixtisoslashish - pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

Pedagogik malaka - muayyan toifadagi vazifalarni xal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik masala - pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimidir. U voqelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'lik tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta'lim qatnashchilarining ma'lum bir maqsadini ko'zlagan ta'lim va tarbiyadagi moddiylashtirilgan vaziyatdir.

Pedagogik mahorat - pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, xarakatga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik muloqot - ta'lim oluvchilarning maqsadlari xamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

Pedagogik takt - shaxslar faoliyatinish turli doiralarida ular bilan muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'lchovi, talabalar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini xisobga olgan xolda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi.

Pedagogik texnika – 1) xar bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishning samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va kunikmalar majmuasi; 2)

xar bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jixatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va kunikmalar.

Pedagogik tizim - shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

Pedagogik faoliyat - ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning aloxida turi.

Pedagogik uyin - bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan xamda ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

Pedagog nuqtai nazari (pozisiyasi) - pedagogning dunyoga, pedagogik voqelikka va pedagogik jarayong'a bo'lgan intellektual va xissiy munosabati.

Pedagogik xaqqoniylik – o'qituvchining obektivlik mezoni, uning ma'naviy tayyorgarlik darajasi.

Proektiv malaka - malakaning maxsus turi bo'lib, kutilgan pedagogik natijalarni aniq ta'lim va tarbiya rejalarida aks ettiradi.

Preskreptiv - me'yoriy.

Retrospektiv - o'tmishga murojaat etish.

Ruxiy pedagogik tayyorgarlik - pedagogikaning metodologik acoclari va kategoriyalarini, shaxsniig ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlari, ta'lim va tarbiyaning mohiyati, maqsadi va texnologik g'oyalarini bilish.

Suxbat - kuzatuv juda etarli darajada aniq, bo'lmagan zarur axborotni olish uchun qo'llanadigai tadqiqot metodi.

Tadqiqot ob'ekti - ziddiyat va muammoli vaziyat tug'diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy taxlilga muxtoj ob'ekt.

Tadqiqot predmeti - bevosita o'rganilishi lozim bo'lgan va amaliy yoki nazariy jixatdan muxim axamiyat kasb etadigan ob'ektning mohiyati, ma'lum bir tomoni, xususiyati.

Tayzik o'tkazish - uyatga qo'yish, aybdorlik xissi yoki ko'ngli chukkanlarning fikri, xissiyoti, intilishi va moyiligi ularning ongidan xalos qilish.

Takabbur - o'z manfaatlarini yuqori quyuvchi, manman shaxs.

Takt - misli ko'rilmagan tarzda o'zini tuta bilish.

Ta'lim - 1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoi, ijtimoiy etalonlarnipg ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy-axloqiy kadr, malaka, ko'nikma, axloq me'rlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustakil tizim Tarbiya - 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy xolatiga muntazam va maqsadga muvofiq, tasir etish;

2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Pedagogik faoliyat - ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning aloxida turi.



I. Maxsus adabiyotlar

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. T. "O'zbekiston", 1997. 29 avgust. -7 bet.

2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T. 1997. 29 avgust. 9-10 bet.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari:

3. "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2005 yil, 15 iyun.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini Qarorlari:

4. Islom Karimov. "Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil xarakat qilishimiz lozim". O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatidagi 2005 yil yakunlariga bag'ishlangan ma'ruzasi. 10 fevral, 2006 y.

5. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijalari. Vazirlar Mahkamasining qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 16.04.2005

6. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun darsliklar va o'quv adabiyotining yangi avlodini yaratish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 341-sonli Qarori.

7. «2010 yilgacha bo'lgan davrda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi pedagog va muxandis pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturi» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4-oktyabrdagi 400-sonli Qarori.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

8. Karimov I.A. "Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo'lishi darkor". O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2006 yil 25 fevral.

9. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: "O'zbekiston", 2005.-96

10. Karimov I. A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.- "Turkiston", 2002 yil 31 avgust.

11. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T., «O'zbekiston», 2000 y.3-9 bet.

12. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. T., «O'zbekiston» 1999 y.11-15 bet.

13. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Xalq so'zi, 2006 yil 11 fevral.

14. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.

15.Karimov I.A. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch. T.:Ma'naviyat,2008,176-b.

V. Asosiy adabiyotlar:

- 1.Fayzullaeva N., SHodmonova SH. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2008. -18 bet.
2. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010.
3. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar/ – T.: Fan va texnologiya, 2010.
- 4.Ilinicha V.I. Fizicheskaya kultura studenta.Uchebnik.– M.:Gardariki,2005. – 448 str.
- 5.Solonina YU.N., Kagana M.S. Kulturologiya. Uchebnik.– M.: Vysshee obrazovanie, 2005. – 566 str.
- 6.Ismailova Z.K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. T.: «Fan» 2003 y.
- 7.Ibragimov X, Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. T., 2008 yil.
- 8..Hoshimov K.,Nishonova S. Pedagogika tarixi T., 2005 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'afurov, B.K. To'xliev. -T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.
2. Pronina E.N., Lukashevich V.V. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya studentov VUZov. – M.: Elit, 2004.– 322 str.
3. Slastenina V.A. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya.– M.: Akademia, 2004.– 234 str.
4. Ibragimov X.I., Yo'ldoshev U.A., Bobomirzaev X. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2009.- 400 bet.
5. Orexova V.A. Pedagogika v voprosax i otvetax. Uchebnoe posobie. – M.: KNORUS, 2006. – 200 str.
6. Ochilova G., Musaxanova G., Tojiev SH. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. -T.: TDIU, 2005.– 345 bet.
7. Ochilova G., Musaxanova G., Tojiev SH. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. Masalalar to'plami, 2005.– 345 b.

Internet saytlari

- 1.www.ziyonet.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz

V. XORIJIY ADABIYOTLAR.

1. Bodrev, Zazyuka. Osnovy pedagogicheskogo masterstva. M.: Prosvetshenie, 1989.
2. Azarov YU.P.Kultura vospitani: Uchitel. M.: Prosvetshenie. 1985.
3. Amonavshen SH.A., Edinstvo tseli.. M., Prosvetshenie. 1987.
4. Sibirskaya M.P. Professionalnoe obuchenie: Pedagogicheskie texnologii. – Sankt Peterburg, 2002.
5. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. // Pod. red. V.A.Slastenina. – M.: Akademiya, 2004.

